



UDK:908

**Bekzod AXMEDOV,**  
*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti*  
E-mail: [b.akhmedov@mail.ru](mailto:b.akhmedov@mail.ru)

*QarDU professori G.Muminova taqrizi asosida*

### QORAKO‘LCHILIK – IQTISODIYOTNING MUHIM TARMOG‘I

Аннотация

O‘zbekiston mustaqillik yillarida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirib, qorako‘lchilik sohasida muhim natijalarga erishdi. Bozor munosabatlari, xususiy lashtirish va zamonaviy xo‘jaliklarni tashkil etish orqali mamlakat qorako‘lchilik mahsulotlari yetishtirishda jahondagi yetakchi o‘rinlardan birini egalladi. Mahalliy qorako‘l zoti o‘zining noyob mo‘ynasi va junlari bilan ajralib, raqobatdoshligini oshirmoqda. Biroq, moliyaviy resurslar va xomashyo yetishmovchiligi ishlab chiqarish samaradorligini pasaytirgan. Hukumat tomonidan qabul qilingan dasturlar, yaylovlarni suv bilan ta‘minlash va moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga qaratilgan. Xulosa qilib aytganda, qorako‘lchilik O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog‘i bo‘lib, uning rivojlanishi agrar sektorni mustahkamlash va valyuta tushumlarini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynamoqda.

**Kalit so‘zlar:** Qorako‘lchilik, xususiy lashtirish, mo‘yna, jun, go‘sht, eksport, infratuzilma, ishlab chiqarish, tabiiy resurslar, xorijiy investisiyalar.

### КАРАКУЛЕВОДСТВО-ВАЖНАЯ ОТРАСЛЬ ЭКОНОМИКИ

Аннотация

За годы независимости Узбекистан провел экономические реформы и добился значительных результатов в области каракулизма. Благодаря рыночным отношениям, приватизации и созданию современных хозяйств страна заняла одно из ведущих мест в мире по производству каракулевой продукции. Местная порода каракуль отличается уникальным мехом и шерстью, что повышает ее конкурентоспособность. Однако нехватка финансовых ресурсов и сырья снизила эффективность производства. Программы, принятые правительством, направлены на обеспечение водой пастбищ и укрепление материально-технической базы. Таким образом, каракулеводство является важной отраслью экономики Узбекистана, развитие которой играет решающую роль в укреплении аграрного сектора и увеличении валютных поступлений.

**Ключевые слова:** Каракулеводство, приватизация, мех, шерсть, мясо, экспорт, инфраструктура, производство, природные ресурсы, иностранные инвестиции.

### KARAKUL FARMING IS AN IMPORTANT BRANCH OF THE ECONOMY

Annotation

Uzbekistan carried out economic reforms during the years of independence, achieving significant results in the field of karakul farming. Through market relations, privatization and the establishment of modern farms, the country has gained one of the world's leading places in the production of blackcurrant products. The domestic karakul breed is distinguished by its unique fur and wool, increasing its competitiveness. However, the lack of financial resources and raw materials has reduced productivity. The programs adopted by the government are aimed at providing water to pastures and strengthening the material and technical base. In conclusion, karakul farming is an important branch of the economy of Uzbekistan, the development of which is playing a decisive role in strengthening the agrarian sector and increasing foreign exchange revenues.

**Key words:** Karakul farming, privatization, fur, wool, export, infrastructure, production, natural resources, foreign investments.

**Kirish.** Mustaqillik yillarida iqtisodiyotning barcha yo‘nalishlarida tub islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, qishloq xo‘jaligida bozor munosabatlarini shakllantirish, mukchilikning nodavlat shakllariga o‘tish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish chora tadbirlari olib borildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 15 martdagi “Respublika chorvachiligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 137-sonli qaroriga muvofiq barcha jamoa xo‘jaliklarida qo‘ychilik fermerlari xususiy lashtirildi va fermer xo‘jaliklar barpo etildi. Bu yangilanishlar o‘z o‘rnida chorvachilikning eng muhim tarkibiy qismi hisoblangan qorako‘lchilik sohasida ham amalga oshirildi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Qorako‘lchilik–O‘rta Osiyo mintaqasida chorvachilikning eng qadimiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston qorako‘lchilik mahsulotlarini yetishtirish bo‘yicha jahonda oldingi o‘rinlardan birini egallaydi. O‘zbekistonda qorako‘lchilikning asosiy mahsulotlari – uning ajoyib mo‘ynasi, mazali go‘shti va juni hisoblanadi.

O‘zbekiston keskin o‘zgaruvchi iqlimga ega bo‘lib, uning umumiy yer maydonining qariyb 25 mln. gektarini, ya‘ni 56,7 foizini cho‘l, dasht hamda tabiiy yaylovlar tashkil etadi. Respublikada asrlar davomida shakllangan qorako‘l zotli qo‘ylar o‘zining noyob mahsuloti qorako‘l terilari bilangina emas, balki mahalliy noqulay iqlim va yaylov sharoitiga moslashganligi bilan ham qimmatli hisoblanadi.

O‘zbek qorako‘li azaldan eksport qilinadi va xalqaro bozorda hamda kimoshdi savdosida sotilib, mamlakat g‘aznasiga valyuta tushumlarini ko‘paytirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i tarkibida qorako‘lchilik sohasi alohida o‘rin tutdi.

Respublika qishloq xo‘jaligi umumiy daromadlarining 11 foizi qorako‘lchilikdan olinadigan mahsulotlariga to‘g‘ri keldi[1].

Qorako‘lchilik tarmog‘i cho‘l hududlarini xo‘jalik jihatidan o‘zlashtirish imkonini beruvchi hamda bu mintaqada yashayotgan 2,3 mln. aholining hayotini, turmush darajasini belgilovchi omil sifatida muhim o‘rinni egallab, uning mahsuloti valyuta manbai hisoblanadi.

O‘zbekiston qorako‘lchilik sohasining ishlab chiqarish infratuzilmasida 124 ta ixtisoslashgan xo‘jaliklar, shu jumladan 18 ta naslchilik zavodlari, 13 ta naslchilik xo‘jaliklari va 93 ta tovar xo‘jaliklari, Buxoro qorako‘l zavodi va Keles jun yuvish fabrikasi hamda 10 ta ixtisoslashgan bo‘rdoqichilik komplekslari mavjud bo‘lib, uning rivojlanishida jami 650000 ishchilar, jumladan, 130 000 dan ortiq mutaxassislar xizmat qildi[2].

Qorako‘l qo‘y zoti xalq seleksiyasi natijasida yaratilgan bo‘lib, ulardan olinadigan qorako‘l terilari o‘zining bejirimligi va pishiqligi, rang-barang tuslarda tovlanib turishi bilan jahon mo‘yna bozorida doimo munosib baholangan. Biroq qorako‘lchilik sohaning asosiy mahsuloti bo‘lgan qorako‘l terilarini ishlab chiqarish manbai bo‘libgina qolmasdan, balki, arzon tannarlarda go‘sht, jun va charm mahsulotlari ishlab chiqarish manbai ham hisoblangan.

Cho‘llarni o‘zlashtirish va uning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish tajribasi shuni ko‘rsatdiki, qorako‘l qo‘ylarini urchitish cho‘l mintaqalari resurslaridan samarali foydalanishning yagona, iqtisodiy jihatdan asoslangan usuli bo‘lib xizmat qildi.

Qorako‘lchilikni rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy masala bo‘lib, sohada iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi.

Mustaqillik yillarida qorako‘l sifatini yaxshilash uchun Buxoro amirligi davrida Afg‘oniston hududiga o‘tib ketgan qorako‘l

qo'y zotlaridan 20 bosh zotli qo'chqorlar Afg'onistondan Navoiyga keltirilib yuqori navli sur qorako'l teri yetishtirish yo'lga qo'yilgan[3].

1992 yili Buxoro qorako'l teri oshlash zavodining Nurota shahrida filiali ochildi. Shu yili zavodda tayyor kiyimlar sexi ham ishga tushirildi. Bu sexda 1992 yilning dastlabki olti oyida 692 dona ayollar va erkaklarning bosh kiyimlari tikildi. Shuningdek, sexda qorako'l teridan ayollar paltosini tikish yo'lga qo'yildi. Zavodda bu kabi yutuqlar bilan bir qatorda kamchiliklarga ham yo'l qo'yildi. 2-xom ashyo sexi terini oshlashga topshirish rejasini 80,2 foizga, terini saralashni esa 59 foizga bajardi. Ranglash sexida ham shunday holat kuzatiladi. Bu kabi kamchiliklar zavodda teri sotish ko'rsatkichining pasayishiga olib keldi.

Zavodda teri sotish 1992 yili 1991 yilga nisbatan 33,5 foizni tashkil etgan, xolos. Qorako'l terining qimmatlashib ketganligi tufayli yil boshida zavod bilan tuzilgan shartnomalar xaridorlar tomonidan bajarilmadi. Bu esa zavodning moliyaviy sharoitini og'irlashtirdi. Zavod teri topshiruvchi xo'jaliklarga hammasi bo'lib 115 mln. so'm pul to'ladi, qarz esa 450 mln. so'mdan oshiq bo'ldi[4].

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 1992 yil 31 yanvarda qabul qilingan 31-sonli va Respublika "Qorako'l" ishlab chiqarish birlashmasining 2 mart 1992 yil 17-sonli buyrug'ida mehnatni muhofaza qilish, mutaxassislarining malakasini oshirish, ish joylarida tegishli sharoitlar yaratish, baxtsiz hodisalarni oldini olish va yong'inga qarshi xavfsizlik choralarini kuchaytirish maqsadida Respublika "Qorako'l" ishlab chiqarish birlashmasi qoshida shu masalalar bo'yicha maxsus komissiya tuzildi. Komissiya faoliyati yuzasidan Nizom ham tasdiqlandi. Nizomda komissiyaning ish doirasi va huquqlari, komissiya ishini tashkil qilish to'g'risida yo'llanmalar ko'rsatildi[5].

O'zbekistonda 1991 yili qorako'lchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklar soni 82 ta bo'lsa, 1999 yili ular soni 124 ta bo'ldi. Shu yillarga taalluqli ravishda qorako'l qo'ylari soni 3,4 mln. dan 2,4 mln. ga tushdi, teri yetishtirish esa 802,0 ming donadan 493 ming donaga kamaydi[6]. Buning asosiy sababi ishlab chiqarish, iqtisodiy-ijtimoiy va bozor infratuzilmalarining o'ta past darajada rivojlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mustaqillikning dastlabki yillarida qorako'l qo'ylar sonini ko'paytirish, seleksiya-naslchilik ishlarini takomillashtirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdorini ko'paytirish, uning sifatini eksportbop va jahon bozori talablariga moslashtirish kabi muammolar to'planib bordi. Shuningdek, xo'jaliklarda iqtisodiy islohotlarni qo'llash, sohada ilmfan yutuqlarini keng tadbiq etish, cho'ponlarning ijtimoiy sharoitini yaxshilashdek muammolar o'z yechimini kutayotgan edi.

**Tahlil va natijalar.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida qorako'lchilik sohasining yanada rivojlanishi va taraqqiy etishi uchun mustahkam moddiy-texnika bazasini tashkil etish dolzarb masalaga aylandi. Bu esa o'z navbatida mazkur sohani yanada rivojlantirish uchun xorij sarmoyalari jalb etishni talab etdi.

Hukumat tomonidan sohada iqtisodiy islohotlarni olib borish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar belgilandi. Soha rivoji uchun noqulay bo'lgan og'ir tabiiy iqlim sharoitlarida qorako'lchilik sohasini

barqarorlashtirish maqsadida davlat tomonidan qorako'lchilikni qo'llab quvvatlash dasturini ishlab chiqish va bu dasturda yaylovlarni suv bilan ta'minlashni yaxshilash, qorako'lchilik xo'jaliklari hududlarida ishlab chiqarilgan don mahsulotlarini maqsadli foydalanish uchun xo'jaliklarining o'z ixtiyorida qoldirish va asosan g'allaning ozuqabop navlarini ekish kabilar shular jumlasidan edi.

Qorako'lchilik sohasining asosiy mahsuloti - sifatli qorako'l teri bo'lib, buning uchun naslchilik ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, tanlash, saralash va sun'iy urug'lantirishni to'g'ri tashkil etish talab etildi.

Chorvachilikning bu tarmog'ini O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida takomillashtirish maqsadida sohaning tashkiliy boshqaruv tizimini takomillashtirish, qorako'l teri yetishtirilayotgan viloyatlarda yaylovlarning holatini yaxshilash, suv bilan ta'minlash, yaylovbop va ozuqabop o'simliklar ekishni yo'lga qo'yish va kengaytirish, qorako'lchilik ixtisoslashgan xo'jaliklarda lalmikor dehqonchilikni, jumladan, urug'chilikka yo'naltirilgan g'allachilikni rivojlantirish,

Buxoro qorako'l zavodiga davlat tomonidan ko'makni kuchaytirish zaruriyati kelib chiqdi. Respublikada har yili qariyb yarim million dona qorako'l tayyorlanib, undan atigi 100 mingga yaqin Buxoro qorako'l zavodiga topshirildi. Ammo qorako'l zavodining to'lov uchun mablag'i yetishmasligi oqibatida xo'jaliklardan tobora qarzi ko'payib bordi[7].

1996 yilda respublikada ishlab chiqarilib, "Buxoro-Qorako'l" hissdorlik jamiyatiga sotgan jami qorako'l terining 90,5 foizi "O'zqorako'l" uyushmasiga qarashli xo'jaliklarga to'g'ri keldi.

Respublikada ishlab chiqarilgan mahsulotning 1993 yilda 66,3 foizi, 1994 yilda 28,4 foizi, 1995 yilda esa 20,9 foizi "Buxoro-Qorako'l" hissdorlik jamiyatiga topshirdi.

1997 yilda esa xo'jaliklar "Buxoro-Qorako'l" hissdorlik jamiyatiga 276,6 ming dona qorako'l teri yetkazib berishga shartnoma tuzgan bo'lib, 1997 yil 1 sentyabr holatida 163,4 ming dona yoki shartnomada ko'rsatilganining 59,1 foizini yetkazib berdi[8].

**Xulosa va takliflar.** Mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, ayniqsa, qorako'lchilik sohasida muhim ro'yxatda turdi. Bozor munosabatlarini shakllantirish, xususiy lashtirish va zamonaviy xo'jaliklarni tashkil etish orqali, mamlakat qorako'lchilik mahsulotlari yetishtirishda jahondagi yetakchi o'rinlardan birini egalladi.

Mahalliy qorako'l zoti o'zining noyob mo'ynasi va junlari bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, boshqa tarmoqlardagi muammolar, moliyaviy qurilmalar va xomashyo yetishmovchiligi ishlab chiqarishning samaradorligini pasaytirdi.

Xukumat tomonidan qorako'lchilikni rivojlantirish uchun qabul qilingan dasturlar, yaylovlarni suv bilan ta'minlash, xo'jaliklarni moddiy-texnika bazasini mustahkam-lashni talab qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, qorako'lchilik O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog'i bo'lib, uning rivojlanishi mamlakatning agrar sektorini mustahkamlashda va valyuta tushumlarini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynamoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Нуралиев Ж. Қорақўл тери – Ўзбекистоннинг миллий бойлиги // Иқтисод ва ҳисобот. – 1998. – №2-сон. – Б. 31
2. Саидкулов Б. Ўзбекистон қорақўлчилиги ва уни келажакда ривожлантириш // Материалы международной научно-практической конференции «Проблемы пастбищного животноводства и экологии пустынь». – Самарканд, 2000. – С 5-7.
3. Дала ёзувлари: Юсупов Максуд Гуламович – Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлиги, бошқарма бошлиғи (2016 йил август).
4. Бухоро ВДА, 498-фонд, 1-рўйхат, 336-иш, 155-158-варақлар.
5. Бухоро ВДА, 498-фонд, 1-рўйхат, 336-иш, 114-варақ.
6. Шеров Ж.А. Истикболда Ўзбекистон қорақўлчилигини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари // Материалы международной научно-практической конференции «Проблемы пастбищного животноводства и экологии пустынь». – Самарканд, 2000. – С. 146-148.
7. Бозоров Р. Қорақўл – жавоҳир // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 1998. – №4. – Б. 26-36.
8. Нуралиев Ж. Қорақўл тери – Ўзбекистоннинг миллий бойлиги // Иқтисод ва ҳисобот. – 1998. – №2. – Б. 31



UDK:338.46:330.34:947.573

**Sanjarbek DAVLETOV,**  
Ma'mun universiteti professori, DSc  
E-mail: sdavletov7722@urdu.uz  
**Kuvonch NURULLAEVA,**  
Urganch innovatsion universiteti o'qituvchisi

DSc, professor G.Haydarov taqrizi ostida

### SOME ISSUES OF SERVICE SECTOR DEVELOPMENT IN THE CONTEXT OF NEW UZBEKISTAN

Аннотация

This article highlights the special attention given to the development of the service sector in New Uzbekistan and its impact on economic growth. The paper analyzes the activities carried out in the service and service delivery sectors, government programs, and statistical results, as well as examines the main directions of development.

**Key words:** New Uzbekistan, service sector, economic development, government programs, entrepreneurship, digital economy, investment, macroeconomics, tourism, infrastructure.

### НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье освещается особое внимание, уделяемое развитию сферы услуг в Новом Узбекистане, и его влияние на экономический рост. Анализируются мероприятия, проводимые в сфере услуг и сервиса, государственные программы и статистические результаты, а также рассматриваются основные направления развития.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, сфера услуг, экономическое развитие, государственные программы, предпринимательство, цифровая экономика, инвестиции, макроэкономика, туризм, инфраструктура.

### YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASI RIVOJLANISHINING AYRIM MASALALARI

Аннотация

Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga qaratilayotgan alohida e'tibor va bu jarayonning iqtisodiy o'sishga ta'siri yoritilgan. Xizmat ko'rsatish va servis sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, davlat dasturlari va statistik natijalar tahlil qilinib, rivojlanishning asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, xizmat ko'rsatish sohasi, iqtisodiy rivojlanish, davlat dasturlari, tadbirkorlik, raqamli iqtisodiyot, sarmoya, makroiqtisodiyot, turizm, infratuzilma.

**Kirish.** Yangi O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan ishlohtlarning asosiy maqsadi insonlar uchun munosib hayot sharoitlarini yaratishdan iborat. Bu holat esa, tabiiyki, xizmat ko'rsatish sektorining yanada rivojlanishini talab qiladi.

Iqtisodiy rivojlanish yo'lining ilk bosqichlarida sanoat va qishloq xo'jaligining rivoji transport, kommunal xizmatlar, bank tizimi, axborot va kommunikatsiya xizmatlari kabi muhim xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan. Shuningdek, mehnat unumdorligini oshirish va inson kapitalini rivojlantirish hamda xalqaro savdo imkoniyatlarini kengaytirish xizmatlar sektorining rivojlantirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda xizmatlar sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Iqtisodiyotda ushbu sohaning ulushini oshirish maqsadida, joylardagi mavjud xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Xususan, zamonaviy talablarga muvofiq xizmatlar sohasini kengaytirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini tizimli ravishda amalga oshirish juda muhimdir.

Mamlakatimiz makroiqtisodiyotida hududlarning o'zini alohida ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 28-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida"gi Qonunida "O'zbekiston Respublikasi - viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat" ekanligi belgilab qo'yilgan [1]. Har bir ma'muriy-hududiy birlik o'z tarkibidagi shahar va tumanlar bilan birga, muayyan obyektiv qonuniyatlar asosida tashkil etilgan bo'lib, geografik va hududiy joylashuvi, iqtisodiyot tarkibi, sanoat va qishloq xo'jaligining rivojlanganlik darajasi, demografik vaziyat, iqlim va tabiiy resurslar salohiyatiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Bu holat xizmatlar sohasida ham o'z aksini topadi.

Tahlillarga ko'ra, hozirgi davrda mamlakatda ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmining hududlar kesimidagi ulushi Toshkent shahrida - 41,1 %, Toshkent viloyatida - 6,8 %, Samarqand

viloyatida - 6,2 %, Farg'ona viloyatida 5,7 %, Andijon viloyatida - 4,6 %, Qashqadaryo viloyatida - 4,2 %, Buxoro viloyatida -4,1 %, Namangan viloyatida -3,8 %, Surxondaryo viloyatida 3,3 %, Xorazm viloyatida - 2,8 %, Qoraqalpog'iston Respublikasida - 2,7 %, Navoiy viloyatida -2,4 %, Jizzax viloyatida - 2,2 %, Sirdaryo viloyatida - 1,3 % ga to'g'ri keladi [10].

**Metodlar va o'rganilish darajasi.** Mavzuga oid masalalar O.S.Jumanazarov, Sh.Sh.Suvankulov, S.A.Ishakova, S.S.Ibadullayev, M.S.Xusanov, N.J.Jurayev, F.A.Djalilov, N.Nabiyeva, G.I.Aliyeva, Q.J. Mirzayev va boshqalarning tadqiqotlarida o'rganilgan. Ushbu tadqiqotchilar tomonidan chop qilingan maqolalarda mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi, uning iqtisodiy salohiyati, boshqaruv mexanizmi, samaradorlikka erishish masalalari qamrab olingan bo'lib, ularda sohaning dolzarb muammolari tahlil qilingan.

Jumladan, M.Xusanov o'z maqolasida milliy iqtisodiyotda xizmatlar sohasi rolining iqtisodiy-statistik tadqiq qilib, xizmatlar sohasida hajm yaratuvchi hamda mazkur sohada faoliyat yurituvchi subyektlar, O'zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanib borish dinamikasi tahlilini bergan.

G.I.Aliyevaning maqolasida raqamli iqtisodiyot, uning xizmatlar sohasini rivojlantirishdagi roli, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni joriy etish dasturlari va imkoniyatlari hamda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Tadqiqot jarayonida xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishining tashkiliy-huquqiy asoslari hamda iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilish, jarayonlarni o'rganishda tizimli yondashuv, kompleks baholash, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik va dinamik yondashuv usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalar.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilda 7-fevraldagi 4947-sonli farmoni bilan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi. Uning 3.4-bandida iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiyl mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik rivojini

rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish ustuvor vazifa qilib belgilandi [2].

Mamlakatimizda barcha ma'muriy-hududiy birliklarni rivojlantirish bo'yicha shakllantirilgan davlat dasturlarida istiqbolda xizmatlar sohasini rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratilgan. Xizmatlar sektori iqtisodiy o'sishda muhim rol o'ynaydi. Xizmatlar sohasida yangi texnologiyalarni joriy etish, xalqaro tajribalarni o'rganish va boshqa davlatlar bilan hamkorlik o'rnatish, investitsiyalarni jalb qilish va bozorlarni kengaytirishga imkon yaratadi. Masalan Xorazm viloyati misolida ko'radigan bo'lsak, 2017-yil 17-martda "Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun qo'shimcha qulay sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi[4] qarorning qabul qilinishi Quyi Amudaryo hududida iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, tadbirkorlik bilan shug'ullanayotganlar uchun yanada keng shart-sharoitlar, imtiyozlar yaratish, eksport salohiyatini kengaytirish, investitsiya loyihalarni o'z vaqtida amalga oshirish imkonini berdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-noyabrda "O'zbekiston Respublikasida mehmonxona biznesini jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorning ijrosini ta'minlash yuzasidan Xorazm viloyatida hududlarning turizm salohiyatidan foydalanish samaradorligini yanada oshirish, zamonaviy turizm infratuzilmasining jadal rivojlanishini ta'minlash, mehmonxona xizmatlarini kengaytirish va sifatini yaxshilash, sohaga investitsiyalarni keng jalb qilish maqsadida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi [8].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-iyunda "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi [5] va 2021-yil 11-mayda "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [6] qarorlari qabul qilindi. Bajirilgan ishlar natijasida 2021-yilda jami 18 trillion so'mlik 29 mingta loyiha amalga oshirilib, mamlakatimizda xizmatlar ko'rsatish hajmi qariyb 20 foizga o'sdi [7].

2021-yil 22-aprel kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev hududlarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha aniq vazifalarni belgilab berdi. Shuningdek, viloyat, tuman va shahar hokimlari, sektor rahbarlari hamda mahallaga biriktirilgan mas'ul shaxslar "mahalla-tuman-bank" tamoyili asosida loyihalar ro'yxatini shakllantirishga kirishadigan bo'ldi. Har bir mahallada kamida 20 turdagi, tuman va shaharda esa kamida 70 turdagi xizmatlar bo'lishi rejalashtirildi. Shuningdek, Milliy bank 28 ta yirik va o'rta shaharlarda turizm, transport, tibbiyot, ta'lim xizmatlari hamda yirik savdo majmualari tashkil etish maqsadida qo'shimcha 200 million dollarlik mablag' jalb qiladi. Umuman, xizmat ko'rsatish sohasini qo'llab-quvvatlash uchun byudjet va Milliy bankdan umumiy 500 million dollar yoki 5,5 trillion so'm miqdorida mablag' ajratilishi ko'zda tutildi [9].

2022-yil 27-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-104-son qarori qabul qilindi. Unda hududlarning aholisi zichligi, geografik joylashuvi, ixtisoslashuvi va infratuzilma darajasidan kelib chiqib, xizmatlar sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi. Jumladan, 2021-2022 yillarda byudjet mablag'lari hisobiga aholi gavjum bo'lgan ko'chalarni savdo, xizmat ko'rsatish, sayilgoh va ko'ngilochar joylarga aylantirish rejalashtirildi. Toshkent va Nukus shaharlari, viloyat markazlari va boshqa shaharlarda har 3-5 ta mahalla uchun aholi gavjum bo'lgan ko'chalarni obodonlashtirish va piyodalar yo'laklarini kengaytirish, yoritish orqali savdo-xizmat ko'chalarni tashkil etish va boshqa muhim vazifalar nazarda tutildi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasini qo'llab-quvvatlash va jadal rivojlantirishga qaratilgan muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, "Elektron hukumat" tizimi takomillashtirdi, biznesni ro'yxatga olish jarayoni soddalashtirildi, AKT infratuzilmasi qariyb 6 barobarga kengaydi, logistika tizimi 1,2 barobarga yaxshilandi. Zero, xizmatlar sohasining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining o'sishi, arzon ish o'rinlarini yaratish, bandlikni ta'minlash va kambag'allikni kamaytirishda muhim

ahamiyat kasb etadi. Xalqaro mehnat tashkiloti hisob-kitobiga ko'ra, xizmatlar sohasining 1 foizga o'sishi kambag'allikni o'rtacha 1,5 foizga qisqartiradi [11].

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar institutining 2017–2022-yillarda O'zbekistonda xizmat turlarini rivojlantirish jarayonlari tahlillariga ko'ra, 2022-yilda O'zbekistonda xizmatlar sohasi YaIMning 41,5 foizini tashkil etib, 2017–2022-yillarda sohaning real o'sish ko'rsatkichi 1,9 marotaba oshgan [12]. Agar hududlar misolida tahlil qilsak, Namangan viloyatida 2022-yilda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 14 722,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 16,6 foizga o'sgan. Qishloq joylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining jami xizmatlar hajmidagi ulushi 21 foizni tashkil etgan [13].

Xorazm viloyatida asosiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichi bo'yicha, 2022-yilda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 10303,2 mlrd so'mni tashkil qilgan holda, 2021-yilga nisbatan 114,6 foizga oshgan. 2021-yilga nisbatan viloyatda barcha xizmat turlari bo'yicha o'sish ko'rsatkichi qayd etilgan. Eng yuqori o'sish sur'ati ta'lim (129,7%), moliya (127,4%), axborot va aloqa (123,8%) xizmatlari sohalarida kuzatilgan [14].

Qashqadaryo viloyatida 2022-yil yanvar-sentabr oylaridagi xizmat ko'rsatish sohasi ko'rsatkichlari tahlil qilinsa, bu davrda viloyat miqyosida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 15945,8 mlrd so'mni tashkil qilgani holda, 2021-yilga nisbatan 114,1%ga oshgan. Xizmatlar hajmining respublika ko'rsatkichidagi ulushi 4,5%ni tashkil qilgani holda, hududlar orasida 6-o'rinni egallagan [15].

Samarqand viloyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahliliga nazar solsak, yalpi hududiy mahsulot hajmi 2022-yilda o'tgan yilga nisbatan 105,8 %ga o'sgan bo'lsa, xizmat ko'rsatish hajmi 22739,5 mlrd so'mni tashkil qilgani holda, 2021 yilga nisbatan 106,3 %ga oshgan [16].

Sohada amalga oshirilayotgan ishlar samarasi o'laroq, 2023-yilning to'qqiz oyida mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmi 5,8 foizni tashkil etgani holda xizmatlar sohasi 6,5 foizga o'sdi. Ya'ni, xizmatlar sohasi YaIMning o'sishiga nisbatan yuqoriroq bo'ldi [17].

2024-yil boshida xizmat ko'rsatish va servis sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes sub'ektlari soni qariyb 277,1 mingtani tashkil etdi. 2023-yilda kichik biznes sub'ektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 224,4 trln. so'mni (2019 yilda – 103,1 trln. so'm) va ishlab chiqarilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 47,7 % ni tashkil etdi [10].

Ta'kidlash lozimki, kelgusida ham hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish borasida muayyan chora-tadbirlar rejalashtirilgan. Xususan, "O'zbekiston-2030" strategiyasida ham bu borada aniq maqsad-vazifalar belgilangan [3]. Xususan, hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohalarni rivojlantirish orqali xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish, o'rta va yirik shaharlarda hamda aholisi 300 mingdan ko'p bo'lgan tumanlarda zamonaviy bozor xizmatlari, IT, ta'lim, tibbiyot, yuridik, san'at, turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish hamda transport xizmatlarini rivojlantirish vazifalari o'z aksini topgan.

**Xulosalar.** Mamlakatimizda xizmatlar sohasining rivojlanishi nafaqat ushbu sohani mustahkamlashga, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham multiplikativ ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib, bu jarayon respublikamizda xizmat ko'rsatish sohasining tez sur'atlarda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Hozirgi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylanib, O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining muhim yo'nalishi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Hayotimizda yangi va xilma-xil xizmat turlari ko'payib, tezkor rivojlanmoqda. Bank-moliya, turizm, sug'urta, axborot-kommunikatsiya xizmatlari kabi yo'nalishlar esa xizmatlar bozoridagi asosiy o'rinlarni egallamoqda. Eng muhim jihati, xizmatlar sohasining rivoji orqali yangi ish o'rinlari yaratilmoqda, aholi daromadlari o'smoqda, hududlar qiyofasi o'zgarib, iqtisodiyot mustahkamlanmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.08.2020 й., 03/20/635/1237-сон. <https://lex.uz/docs/4973063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son/<https://lex.uz/docs/-3107036?ONDATE=01.05.2021>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 11.09.2023 йилдаги ПФ-158-сон. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 17.03.2017 yildagi PQ-2843-son/<https://lex.uz/docs/-3142526>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 16.06.2020 yildagi PQ-4752-son/ <https://lex.uz/docs/-4857409>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 11.05.2021 yildagi PQ-5113-son/ <https://lex.uz/docs/-5421233>
7. Мирзимова Б. Хизматлар соҳаси янги босқичга қўтарилди. 11.01.2023. <https://parliament.gov.uz/oz/articles/270>



8. Mehmonxona biznesi jadal rivojlanadi. // Xorazm haqiqati. – № 102. 2018-yil 22-dekabr.
9. Хаитов А. Хизмат кўрсатиш соҳасида янгича ёндашув. <https://yuz.uz/news/xizmat-korsatish-sohasiga-yangicha-yondoshuv>
10. Хусанов М. Мамлакатимизда хизмат кўрсатиш соҳасини статистик таҳлил қилиш // "Yoshlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash - mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili" mavzusidagi konferensiya materiallari. Qo'qon, 2024. - B. 974-978.
11. Ўзбекистон янги иқтисодий ривожланиш босқичида хизматлар соҳасини жадал ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратмоқда. <https://review.uz/oz/post/ozbekiston-yangi-iqtisodiy-rivojlanish-bosqichida-xizmatlar-sohasini-jadal-rivojlantirishga-alohida-etibor-qaratmoqda>
12. Ўзбекистонда хизмат кўрсатиш соҳаси 1,9 баравар ошди. <https://kommers.uz/?p=30446>
13. Наманган вилоятининг 2022 йилги хизмат кўрсатиш соҳаси кўрсаткичлари. <https://review.uz/oz/post/namangan-viloyatining-2022-yilgi-xizmat-korsatish-sohasi-korsatkichlari>
14. Хоразм вилоятининг 2022 йил якунларидаги хизмат кўрсатиш соҳаси кўрсаткичлари. <https://review.uz/oz/post/xorazm-viloyatining-2022-yil-yakunlaridagi-xizmat-korsatish-sohasi-korsatkichlari>
15. Qashqadaryo viloyatining 2022-yil yakunlaridagi xizmat ko'rsatish sohasi ko'rsatkichlari. <https://review.uz/uz/post/qashqadaryo-viloyatining-2022-yil-yanvar-dekabr-oylaridagi-xizmat-korsatish-sohasi-korsatkichlari>
16. Суванкулов Ш. хизмат кўрсатиш соҳасида иқтисодий салоҳиятдан фойдаланишни такомиллаштириш. // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2024-yil, yanvar. – B. 486-493.
17. Худудларда хизмат кўрсатиш ҳажми 3 баравар оширилади. [https://uza.uz/oz/posts/hududlarda-xizmat-korsatish-hazhmi-3-baravarga-oshiriladi\\_549802](https://uza.uz/oz/posts/hududlarda-xizmat-korsatish-hazhmi-3-baravarga-oshiriladi_549802?q=%2Fposts%2Fhududlarda-xizmat-korsatish-hazhmi-3-baravarga-oshiriladi_549802)



UDK:94(470.6:575)+325.25

**Аскар ДЖУМАШЕВ,**

Научный сотрудник Каракалпакский научно-исследовательский институт гуманитарных наук,  
Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан

**Гулнора СЕЙДАМЕТОВА,**

Научный сотрудник Каракалпакский государственный университет им. Бердаха

Под рецензией доктора исторических наук, профессора З. Курбановой

## DEPORTATION OF FAR EASTERN KOREANS TO KARAKALPAKSTAN IN 1937-1938

Annotation

This article is devoted to a new look at the history of the deportation of Koreans to the USSR. The authors' goal is a meaningful analysis of various aspects of the reasons for the deportation of Koreans, the nature of their historical experience, and also to consider the history of deportation from a modern point of view. In accordance with the purpose of the research, the article sets the following objectives: to analyze the main existing works and archival materials on a given topic with an emphasis on modern scientific views on this problem and evaluate them. The work methodology is based on local material. Using a local approach involves focusing on the features of resettlement in a specific region, in this case Karakalpakstan. In addition, the work is based on the principles of critical interpretation of sources, systematization and comparative analysis of data. The novelty lies in the fact that it analyzes the history of the policy of deportation of Koreans to Karakalpakstan, based on the study of archival data and modern new sources. This issue requires further scrupulous development and remains open for further research.

**Key words:** Koreans, deportation, resettlement, social trauma, identity, state (national) policy, deportation.

## ДЕПОРТАЦИЯ ДАЛЬНЕВОСТОЧНЫХ КОРЕЙЦЕВ В КАРАКАЛПАКСТАН (1937-1938 ГГ.)

Аннотация

Статья посвящена новому взгляду на историю депортации корейцев в СССР. Цель авторов - содержательный анализ различных аспектов причин депортации корейцев, характера переживания ими исторического опыта, а также рассмотреть историю депортации с современной точки зрения. В соответствии с целью исследования в статье ставятся следующие задачи: проанализировать основные уже существующие работы и архивные материалы на заданную тему с упором на современные научные взгляды на указанную проблему и дать им оценку. Методология работы построена на локальном материале. Использование локального подхода предполагает концентрацию внимания на особенностях переселения в конкретный регион, в данном случае Каракалпакстан. Кроме того, работа базируется на принципах критической интерпретации источников, систематизации и сравнительном анализе данных. Новизна заключается в осуществлении анализа истории депортационной политики корейцев в Каракалпакстан, на основе изучения архивных данных и современных новых источников. Данный вопрос нуждается в дальнейшей скрупулезной разработке и остается открытым для дальнейших исследований.

**Ключевые слова:** Корейцы, депортация, переселение, социальная травма, идентичность, государственная (национальная) политика, депортация.

## 1937-1938 YILLARDA UZOQ SHARQ KOREYSLARINING QORAQALPOG'ISTONGA DEPORTATSIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqola koreyslarning SSSRga deportatsiyasi tarixiga yangicha qarashga bag'ishlangan. Mualliflarning maqsadi koreyslarni deportatsiya qilish sabablarining turli jihatlari, ularning tarixiy tajribasining mohiyatini mazmunli tahlil qilish, shuningdek, deportatsiya tarixini zamonaviy nuqtai nazardan ko'rib chiqishdir. Maqolada tadqiqot maqsadiga muvofiq quyidagi vazifalar qo'yiladi: ushbu muammo bo'yicha zamonaviy ilmiy qarashlarga urg'u bergan holda, ushbu mavzu bo'yicha mavjud asosiy asarlar va arxiv materiallarini tahlil qilish va ularga baho berish. Ish uslubiyati mahalliy materiallarga asoslangan. Mahalliy yondashuvdan foydalanish ma'lum bir hududga, bu holda Qoraqalpog'istonga ko'chirish xususiyatlariga e'tibor qaratishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, ish manbalarni tanqidiy talqin qilish, ma'lumotlarni tizimlashtirish va qiyosiy tahlil qilish tamoyillariga asoslanadi. Ishning yangiligi shundan iboratki, unda koreyslarni Qoraqalpog'istonga deportatsiya qilish siyosati tarixi arxiv ma'lumotlari va zamonaviy yangi manbalarni o'rganish asosida tahlil etilgan. Bu masala yanada puxta o'rganishni talab qiladi va keyingi tadqiqotlar uchun ochiqlicigicha qolmoqda.

**Kalit so'zlar:** Koreyslar, deportatsiya, qayta joylashtirish, ijtimoiy travma, shaxs, davlat (milliy) siyosati, deportatsiya.

Данный вопрос в течении многих лет был закрытым для исследования. Отсутствие доступа к архивным источникам не позволяло исследовать его достаточно основательно. Выходившие в свет работы опирались главным образом на мемуары. Сегодня у исследователей есть возможность изучать ранее малодоступные материалы. Мы в своей работе остановимся лишь на вопросах заселения территории Каракалпакстана корейцами и приведем документы правительства, которые имели большое значение в решении этих проблем.

Основным поводом к насильственному переселению целых народов в 30-50-е годы, судя по имеющимся современным публикациям, были: [1]

1. Наказание за шпионаж отдельных лиц, за возможное предательство;

2. За принадлежность к национальностям зарубежных капиталистических стран, с которыми может вестись война.

Среди первых были переселены советские корейцы, проживавшие на Дальнем Востоке.

Депортация корейцев из Дальневосточного края в основном была направлена в Казахстан, Узбекистан,

Каракалпакстан и, частично, в Киргизию, Астраханскую и Сталинградскую (ныне Волгоградская) области.

Переселение корейского народа началось на основе совершенно секретного постановления СНК СССР и ЦК ВКП(б) за №1428-326 сс., от 21 августа 1937 года «О выселении корейского населения из пограничных районов Дальневосточного края», подписанный В.Молотовым и И.Сталиным. Там же было указано: [2]

1. Предложить Дальневосточному Крайкому ВКП(б), Крайисполкому и Уполномоченному НКВД Дальневосточного края выселить все корейское население пограничных районов Дальневосточного края и переселить их в Южно-Казахстанскую область, в районы Аральского моря и Балхаша и УзССР.

2. К выселению приступить немедленно и закончить к 1 января 1938 года.

7. Обязать СНК Казахской и Узбекской ССР немедленно определить районы и пункты вселения и наметить мероприятия, обеспечивающие освоение на новых местах переселяемых, оказав им нужное содействие.

Первые партии переселенцев появились на территории Каракалпакстана в начале октября 1937 года. С началом заселения территории Каракалпакстана корейскими переселенцами правительством Каракалпакстана была создана чрезвычайная комиссия по устройству переселенцев. Председателем этой комиссии был назначен Д. Курбанов (он в это время был председателем СНК ККАССР). Штаб данной комиссии находился в Кунграде. Переселенцев доставляли в нашу республику водным транспортом (через Аральское море и Амударью). Расселение по плану должно было проходить по трем районам. Это Кунград, Муйнак и Ходжейли. Так как число хозяйств увеличивалось, то для дополнительного контингента переселенцев были отведены еще территории трех районов (Куйбышев, Кипчак и Шаббаз) [3].

Одним из первых документов, которые были приняты правительством Каракалпакстана, было постановление СНК ККАССР от 2 октября 1937 года [4]. На основе этого документа были отпущены денежные средства на расходы по переселению корейских хозяйств. Было выделено 50 тыс. руб., которые были переведены на специальный счет Кунградского районного финансового отдела, так как в Кунграде находился штаб правительственной комиссии.

4 октября того же года было принято постановление СНК ККАССР «Об обеспечении автотранспортом строительства для переселенцев» [5]. Весь транспорт также был направлен в Кунград в распоряжение чрезвычайной комиссии по устройству переселенцев.

Одним из очень важных документов, принятых правительством Каракалпакстана является постановление за №246 СНК ККАССР от 13 ноября 1937 года «Об открытии корейских школ в районах» [6]. На основе этого постановления Совнарком обязал председателей РИКов и заведующих Райотделом народного образования, на территории которых расселяются переселенцы, немедленно по прибытии их в районы открывать в точках расселения школы для обучения их детей.

Для разрешения на местах этого постановления был командирован в Ходжейлийский и Кунградский районы заместитель НКПроса ККАССР Власов.

17 ноября того же года Власов приезжает в Ходжейли. Из его отчета мы знаем, что дети 1-4 классов начали учебу и занимались на русском языке, а для детей старших классов еще не были отведены помещения. По Кунградскому району все школы действовали. Но несмотря на это, не совсем хорошо обстояло дело с посещаемостью в аульных школах, потому что там существовала одна школа на 4-5 колхозов. Некоторые колхозы находились на расстоянии 5-10 км. друг от друга, и дети, особенно в плохую погоду, не посещали школы.

13 ноября того же года было принято еще одно постановление СНК ККАССР за №247 «О дополнительном досрочном завозе продовольственных и промышленных товаров и хлебобудучих в районы расселения переселенцев» [7]. Решением данного постановления был утвержден план дополнительного потребления хлебобудучих для переселенцев, который выражался в 2075 тоннах, в том числе муки и пшеницы 1717 тонн и крупы - 281 тонну. Этот документ был принят на основе постановления СНК УзССР от 10 октября 1937 года за №1539 «О дополнительном завозе продовольственных и промышленных товаров в ККАССР для обеспечения переселенцев».

Еще одним документом является постановление СНК ККАССР от 13 декабря 1937 года «Об организации медицинского обслуживания переселенцев» [8]. На основе этого постановления были организованы новые медицинские пункты и расширены на несколько мест (коек - авторы.) районные больницы. Для претворения в жизнь этого документа было выделено 20 тыс. руб. Это постановление коснулось в основном Кунградский, Ходжейлийский, Муйнакский и Куйбышевский районы.

По государственному плану в Каракалпакстан в 1937 году должны были переселить корейское население в количестве 2300 семей, но в виду того, что в районе Аральского моря наступили в первой половине ноября месяца того же года сильные морозы и штормы, прекратившие тем самым навигацию, было переселено только 1383 хозяйств - это 6826 человек. Остальной подготовленный контингент переселенцев пришлось возвратит со станции Аральского моря обратно и разместить в Наманганской области Узбекистана.

В основном Каракалпакский контингент корейских переселенцев был составлен из рыболовецких хозяйств. Трудоустройство их обуславливалось рыболовецким инвентарем и вообще организацией рыбопромыслового дела. Помимо этих хозяйств, были среди них рабочие семьи с профессиями столяра, плотника, слесаря, токаря и т.д., которых не хватало в республике. Они активно включились в экономическую жизнь Каракалпакстана.

В связи с окончанием переселения корейцев в Каракалпакстан в 1937 году и расселением их на местах, правительственную комиссию по устройству переселенцев-корейцев при СНК ККАССР распустили с 15 декабря 1937 года. И возложили на Нарком земледелия ККАССР дальнейшее хозяйственное устройство переселенцев, которые будут направляться в 1938 году. Помимо этого НКЗем ККАССР должен был провести мероприятия, обеспечивающие нормальный ход весенне-посевной кампании 1938 года, в которой должны были участвовать и переселенцы.

После открытия навигации в Аральском море, последнюю партию корейских переселенцев в 180 рыболовецких хозяйств направили из Узбекистана, в Муйнакский район где они были распределены на отведенных для жительства участках.

На территории Каракалпакстана из числа корейских переселенцев были созданы следующие колхозы в районах: Муйнакском - колхоз «Коминтерн»; Кунградском - колхозы «Авангард», «Правда», им. «Блохера» («Новый быт»); Ходжейлийском - колхозы «Новый мир» и имени «Ворошилова», артель «Красная знамя»: в городе Нукусе - артели «Рыбаков и охотников», «VII съезд Советов». Приблизительно в нашей республике было размещено около 1600 корейских семей, это около 7,5 тыс. человек.

16 апреля 1938 года было принято постановление за №167 СНК ККАССР «О возврате корейским переселенцам хлебобудучих и скота, сданных ими в местах выселения» [9]. Там было указано, что в соответствии с приказом уполномоченного НКЗаготовок СССР в УзССР от 15 марта того же года за №158 произвести возврат корейским переселенцам хлебобудучих и скота против предлагаемых ими соответственно оформленных квитанций, а так же против актов на сданное зерно и рис в казну в местах выселения. Таким образом, был частично возмещен ущерб переселенцам.

Помимо выше приведенных документов, которые обсуждались правительством Каракалпакстана по данной проблеме, существует также более 10-ти документов СНК ККАССР, касающихся решения этой проблемы, которые имели большое значение в жизни переселенцев. И так, из приведенных документов мы видим, что правительство Каракалпакстана большое внимание уделяло вопросу устройства корейских переселенцев.

Юридически корейцы рассматривались до 1945 года как «административно переселенные». Затем они были превращены ведомством Л.Берия в «спецпереселенцев» с утратой прав свободного перемещения по стране. И только во второй половине 50-х годов переселенным было разрешено возвращение на Дальний Восток.

В настоящее время на территории Узбекистана и Каракалпакстана вместе с узбеками и каракалпаками живут и трудятся казахи, корейцы, русские и многие народности бывшего Союза. Только после обретения независимости Узбекистаном выпала возможность для этих народов создавать свои культурные центры, там, например, в Каракалпакстане сейчас действуют культурные центры казахов, корейцев и русских, некоторые из них имеют свои печатные органы. Это показывает миролюбивую и равноправную политику нашего государства.

Из истории известно, что помимо корейцев в нашу республику в годы войны были депортированы и эвакуированы и другие народы, такие как поляки, чеченцы, ингуши, турки-месхитинцы и многие-многие другие. Пользуясь случаем хотим предложить разработать все эти проблемы в масштабе Узбекистана, и издать книгу по истории депортации народов в нашу республику. Ведь о них в первую очередь заботился простой народ, народ Узбекистана, и эту заботу должны знать и помнить все жители ни только нашей Родины, но и те народы, которые по воле судьбы были депортированы в Узбекистан.

## ЛИТЕРАТУРА

1. Чешко С.В. Время стирать «белые пятна». Советская этнография. 1988, №6;
2. Ибрагимбеи Х.М. Сказать правду о трагедии народов. Политическое обозрение. 1989, №4;
3. Парсаданова В.С. Депортация населения из западной Украины и Западной Белоруссии в 1939-1941 гг. Новая и новейшая история. 1989, №2;
4. Бугай Н.Ф. Правда о депортации чеченского и ингушского народов. Вопросы истории. 1990, №7;
5. За что переселяли народы. Агитатор. 1989, №11;
6. К вопросу о депортации народов СССР в 39-41-х годах. История СССР. 1989, №6;
7. Погружены эшелоны и отправлены к местам поселения. История СССР. 1991.
8. 40-50-е годы: последствия депортации народов (Свидетельствуют архивы НКВД-МВД СССР). История СССР. 1992.
9. О выселении корейцев из Дальневосточного края. Отечественная история. 1992, №6;
10. Джаргасинова Р.Ш. Основные тенденции этнических процессов корейцев Средней Азии и Казахстана. Москва, 1980;
11. Югай Г.А. Советские корейцы: социально-психологический портрет своего поколения. Ташкент, 1990; и многие другие.
12. Бугай Н.Ф. О выселении корейцев из Дальневосточного края. Отечественная история. 1992, №6, с. 142-143.
13. ЦГА РКК - ф.322, оп.1, д.381, л.145.
14. Там же - л.1.
15. Там же - л.9.
16. Там же - л.144.
17. ЦГА РКК - ф.322, оп.1, д.384, л.68.
18. ЦГА РКК - ф.322, оп.1, д.475, л.144.
19. ЦГА РКК - ф.322, оп.1, д.263, л.92.





**Maftuna IBRAGIMOVA,**  
Angren Universiteti o'qituvchisi  
E-mail: [abdulazizovna1789@gmail.com](mailto:abdulazizovna1789@gmail.com)

PhD, dotsent B.Nasirov taqrizi asosida

### UZBEK KURAMA ETHNIC GROUP: ORIGINS AND HISTORICAL FORMATION - A HERMENEUTIC ANALYSIS

Annotation

This article provides scientific-historical insights into the origins and formation of the Kurama ethnic group residing in the Tashkent oasis, Ohangaron valley, and Angren city regions. General and statistical data on the Kurama ethnic group's history are presented. Historical information was drawn from the works of Uzbek, Kyrgyz, Kazakh, and Russian historians and ethnographers. Using an alternative hermeneutic approach, the statements of these authors were analyzed, and their conclusions are reflected in the article.

**Key words:** Kurama ethnic group, Angren city, Ohangaron valley, Jungar invasion, ethnos, sub-ethnic group, primary ethnic group, meta-ethnic group, Kurama dialect, composite people, Kurama uyezd, Uzbek Kuramas.

### ПРОИСХОЖДЕНИЕ И ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ УЗБЕКСКОЙ КУРАМА-ЭТНИЧЕСКОЙ ГРУППЫ: ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В статье представлены научно-исторические данные о происхождении и формировании курама-этнической группы, проживающей в регионах Ташкентского оазиса, Охангаронской долины и города Ангрена. Приведены общие и статистические данные о её истории. Историческая информация взята из работ узбекских, кыргызских, казахских и русских историков и этнографов. Посредством альтернативного герменевтического подхода были изучены их высказывания, а выводы отражены в статье.

**Ключевые слова:** Курама-этническая группа, город Ангрена, Охангаронская долина, нашествие джунгар, этнос, субэтническая группа, основная этническая группа, метаятническая группа, курама-диалект, композитный народ, курама-уезд, узбекские курамы.

### O‘ZBEK QURAMA ELATI KELIB CHIQISHI VA SHAKLLANISH TARIXI HAQIDA GERMENEVTIK TAHLIL

Аннотация

Maqolada ilmiy-tarixiy jihatdan Toshkent vohasi, Ohangaron vodiysi va Angren shaxri mintaqalarida yashovchi qurama elatining kelib chiqishi tarixi va shakllanishi haqidagi umumiy va statistik ma'lumotlar keltirilgan. Tarixiy ma'lumotlar o'zbek, qirg'iz, qozoq va rus tarixchi va etnograflarining keltirgan asarlaridan olindi. Muqobil gernevntik usulda mualliflarning gaplari o'rganilib, ular xulosalari maqolada aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** Qurama elati, Angren shahri, Ohangaron vodiysi, jung'orlar hujumi, etnos, subetnik guruh, asosiy etnik guruh, meta-etnik guruh, qurama shevasi, kompozit xalq, qurama uyezdi, o'zbek quramalari.

**Kirish.** Bugungi shuddat bilan tezlashib borayotgan zamonamizda dunyo bo'ylab turli millat va elatlar yashab kelmoqda. Ulardan ayrimlari yirik davlatlarning asl aholisi bo'lsa, boshqalari makroetnoslar doirasiga singib, yutilib ketmoqda. Albatta, ularning asosini etnos, ya'ni xalq tashkil etishi tarixiy nuqtai nazardan bizga ma'lum. Insoniyatning etnik tarkibida etnos muhim o'rin tutadi. Ushbu tuzilmaning murakkabligi boshqa etnik tuzilmalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Masalan, subetnik guruh deganda ma'lum bir hududda o'rnatilgan va madaniy va til xususiyatlari bilan bir qatorda umumiy etnik o'z-o'zini anglash elementlariga ega bo'lgan aholi tushuniladi. Subetnik guruhlari asosiy etnik jamoaga qaraganda kamroq etnik xususiyatlarga ega. Subetnikning o'ziga xosligi uning kelib chiqishi bilan bog'liq. Ayrim hollarda ular o'zlarining asosiy etnik birligini asta-sekin yo'qotgan sobiq etnik guruhlari, hozirda boshqalar bilan bir jamoada ekanliklarini tan oladigan etnik guruhlari, uchinchidan, o'ziga xos madaniy xususiyatlarga ega bo'lgan ijtimoiy jamoalarni misol qilib keltirish mumkin. Biroq, ularni ajratish mezonlari har doim xulq-atvor bilan tavsiflanadi va etnik guruhlarning ma'lum bir etnik guruhga bo'lgan munosabatini saqlab qolgan holda, atrof-muhitga unchalik o'xshamasligi seziladi. Demak, etnosning tarkibiy tashkil etilishidan kelib chiqadigan xulosa shuki, bir shaxs bir vaqtning o'zida turli darajadagi bir necha etnik jamoalarga mansubdir. Masalan, rus (asosiy etnik guruh), don kazak (subetnik guruh) va slavyan (meta-etnik guruh) hammasi o'zlarini rus deb atashlari mumkin. Shunday subetnik guruhlardan biri qurama xalqidir. Qurama aholisi asosan Toshkent viloyatining janubi-sharqiy qismidagi Ohangaron vodiysidagi Angren daryosi bo'yida to'plangan. Shuningdek, xabarchi A.Razzoqovning so'zlariga ko'ra, ular Andijon viloyatining ayrim qishlog'i, Jizzax viloyati Baxmal tumanida istiqomat qilishadi. Ularning kelib chiqishi haqida tadqiqotchilar turli fikrlarga ega[1].

Radlovning ta'kidlashicha, qurama xalqi (o'zbek — qurama; so'zma-so'z tarjima qilinganda shakllangan, yig'ilgan degan ma'noni anglatadi) o'zbek va qozoq qabila va urug'laridan kelib chiqqan, dasht

o'troqlari hisoblangan, oraliq zonada yashagan, ko'chmanchilar va sartlar yashaydigan xalqlardir. Antropologik tipiga va hayotning ayrim xususiyatlariga ko'ra, ayrim shakllanishlar qozoqlarga o'xshaydi. Hatto bu til o'z mazmuni va morfologiyasi jihatidan XX asrdan boshlab asosan qozoq tiliga juda yaqin bo'lgan til hisoblanadi. O'tgan asrning 90-yillarida Ohangaron va Angren hududlarida olib borilgan tadqiqotlardan buni yaqqol ko'rish mumkin[2].

Quramalarning kelib chiqishi haqida XVIII asr rus tadqiqotchisi I. Andreev ham o'z asarida shunday yozgan edi: "Biz bu yangi kompozit xalq haqida hech narsa deya olmaymiz. Bizga bir narsa ma'lumki, toshkentliklar ham, xachkarliklar ham, buxoroliklar ham ularni "yangi jamoa" deb tan olishadi. Bundan ko'rinib turibdiki, ular boshqa joylardan ko'chib kelganlar, ba'zilari, qochib qutulgan qaroqchilar deb hisoblashadi. Ular ko'paygani sari na qo'shini, na hukmdori bo'lgan Buxoro shaharlarini egallab oldilar. Sirdaryoga quyiladigan Chirchiq daryosining narigi tomonida Angren hududi Toshkent va Qo'qon shaharlari bilan chegaradosh. Ularning soni o'n ming kishidan oshmaydi, mollari, ekinlari yetarli. Qo'qon bey qo'li ostida Toshkentdan 50 kilometr uzoqlikda joylashgan to'qqizta shahar bo'lib, ular: 1) Pskent, bu yerda sakkiz yuz tutun; 2) Keriyuschi, qal'a hisoblangan shahar; 3) Sharukiya Khodja hokimiyatiga bo'ysunadi; 4) Bo'ka, ming tutun bor; 5) Muratali; 6) Kireyt Baksu; 7) Qoraqtay; 8) qalay shtamp; 9) Pangalar. Bu shaharlarda jamoalar qishki boshpanalarga ega bo'lgan. Yozda esa ular ekin ekish va chorva mollarini saqlash uchun shahar atrofiga ko'chib o'tadilar va o'z shaharlarida yetarlicha kuchli qo'riqchilarni saqlaydilar[1].

Qurama elati kelib chiqishi va shakllanishi hamda hududlar bo'ylab joylashuvi haqida ko'gina rus, qozoq va qirg'iz olimlari ilmiy izlanishlar olib borishgan. Aynan shunday izlanuvchilardan biri M.Terentyev o'z asarida: "Qirg'iz" (qozoq) xalqi bundan 600 yil avval Iloq vodiysi (hozirgi Ohangaron va Angren hududlar), Toshkent vohasi)ga tushib, ko'chmanchi turmush tarzini tark etib, o'troqlikka o'tgan. Ular o'troqchilik bilan shug'ullanib, xutor shaklida emas, balki

butun qishloq bo'lib joylashgan. Ular asta-sekin o'z urug'-nasabini unutib, endi "Kurama" umumiy nomiga ega bo'la boshladi.", deb yozadi. Ko'rib turganimizdek, M. Terentyev bu yerda shakllanishlarining paydo bo'lishini qozoqlarning o'troq hayotga o'tishi bilan bog'laydi. Ta'kidlanishicha, qozoqlar uzoq yillik urug'-qabila tuzilishi bilan birga ko'chish va o'troqlashish jarayonini ham yo'qotib, o'troqchilikka o'tgan, bu esa qabila nasl-nasabining yo'qolishiga, o'troq mahalliy xalq madaniyatining o'ziga singib ketishiga, tug'ilishiga sabab bo'lgan. Boshqa bir etnik jamoa – mahalliy aholi bilan qorishib ketgan va boshqa bir etnik guruhning shakllanishiga zamin yaratgan[4].

Albatta, har qanday muayyan etnik jamoaning shakllanishi biroz vaqt talab etadi. A. Maksheyev qozoqlardan tarqalgan aralash xalqning kelib chiqishi, keyinchalik sartlar va o'zbeklar bilan qorishib ketishi natijasida qo'shma xalq nomini olgani haqida yozgan tadqiqotchilardan biri. U "Turkiston o'lkasining geografik, etnografik va statistik materiallari" asarida shunday deydi: "Angren daryosi bo'yidagi aholi punktlarida quramalar yashaydi. Aytishlaricha, jamoalar bundan yuz yil avval uch yuzta ko'chmanchi qozoq urug'lari tomonidan tuzilgan. Bu qirg'izlar o'ta qashshoqlikda, ko'chib ketish imkoniyati bo'lmagan uchun sartlar yaqinidagi yoki shahar tashqarisidagi "otaxona"larga joylashib, imkon qadar dehqonchilik bilan shug'ullanadilar. Ularning sartlar va balki o'zbeklar bilan qorishishi natijasida turli xalqlar paydo bo'ldi. Buning natijasida ular "qurama" yoki birlashgan, aralashgan deb nomlangan. Mahalliy aholining so'zlariga ko'ra, oxirgi birlashish taxminan 80 yil oldin sodir bo'lgan. "Toshkentdan olgan ma'lumotlarimga ko'ra, qozoqlarning qo'shma aholisi quyidagi urug'lardan iborat: Tama – Alshin urug'i, Kerderi, Jagalbayli Kereit, Teleu, Arg'in (Qanjig'ali), Dulat (Uysin) va Bestamg'ali (Jaloyir bo'limi)", - deydi u. Ko'rib turganimizdek, Maksheyev ham o'z asarida terma jamoalarning kelib chiqishi qozoqlardan tarqalib, ularning o'zbeklar bilan o'zaro munosabati natijasida yanada shakllanganligini aytadi[5].

N. Aristov esa qo'shma etnik jamoa shakllanishining boshlanishini Buyuk yuz va XVIII asrdagi qozoqlar bilan jong'arlar tomonidan Toshkentni egallashi bilan bog'ladi. U o'z asarida shunday deydi: "... 1723-yilda Tsevan-Rabtanning hujumidan so'ng Buyuk yuz va Toshkentni u tomon burdi, nafaqat buyuk yuz qozoq, balki boshqa yuzlar ham qalmoqlar bosimidan Toshkentdan va Sirdaryodan narigi o'lkadan panoh izladilar. Chorvasidan ayrilgan kambag'allarning ko'pchiligi o'z urug'i yo'lidan yura olmay, Chirchiq va Angrenda qolib, yaylov va chorvachilik kamligidan sartlar va o'zbeklarga qo'shilib, dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Taniqli tadqiqotchi M. Tinishpaev jamoalarning kelib chiqishi haqida o'z asarida shunday deydi: "Tarixda qozoq va o'zbek degan ikki qarindosh xalqlar tilga olinadi, lekin hech qayerda jamoa xalqi tilga olinmaydi". Qozoqlar va o'zbeklar orasida alohida qabilalar mavjud: uysin, qanli, jaloyir, arg'in, keray, qipchoq, qo'nurat, nayman, alshin va boshqalar. (Qozoq) yuz, qirg' ming, keneges, barlas, durmen, barin, katagan (o'zbek) va nihoyat, qozoqlarning qipchoq, nayman, qo'nurot, jaloir qabilalarining yoriqlari o'zbeklarda, ayrim qabilalarning yoriqlari ham uchraydi. qozoqlarda o'zbeklar uchraydi. "Bir tomondan qozoqlar, ikkinchi tomondan o'zbeklar asosiy turkiy va mo'g'ul qabilalari qatoridan chiqqan bo'lib, bu davrda ham tuzilmalar qayd etilmagan". Umuman olganda, kompozitsiyaning mustaqil xalqmi, alohida turkiy yoki mo'g'ul qabilasi ekanligi aniqlanmagan. Hatto uning tarkibidagi qabilalarning asosiy qismi ham qozoq urug'lari deb ataladi. M. Tinishpaev "qurama" so'zi tarjima qilinganda qo'shma, aralash, bog'langan, qozoqlar o'rtasida shakllangan nomlardan hosil bo'lgan urug'lar haqida ma'no berishini aytadi: "Masalan, kichik yuzlikdan yetiru, yetim, qirg' urug', qirg' shata urug'i. Jamoa tarkibiga nazar tashlasak, aslida u turli qabila, turli urug' va avlodlardan tashkil topganligini ko'rish mumkin. Uli yuz, Dulat, Suyqim, Qibray urug'lari (Dulat urug'i), Jaloyir, Bolg'ali (Jaloyir avlodlari), Qanli, Shanchiqli, Sirgeli, Tutamg'ali (Sirgeli avlodlari) xonadonlari shular jumlasidandir. O'rta yuzdan: Nayman Baganali (Nayman urug'i), Arg'in Kanjig'ali (Arg'in urug'i), Achamayli (Kerey urug'i). Kichkina yuzdan: Jappas, Chumekey, Atab, Tama, Jagalbayli, Ramazon, Yetiru va boshqalar. Shunday qilib, Demak, qo'shma qozoqlar uch yuz qabiladan tashkil topgan qozoqlardir[6].

Angren daryosi deltasining statistik ma'lumotlari va iqtisodiga oid yozilgan asarda: "Qurama xalqi, nomidan ko'rinib turibdiki, turli millatlar qo'shilib tug'ilgan odamlar guruhidir. Masalan, Angrenning yuqori oqimi bo'yidagi tuzilmalar tojiklar bilan ko'proq aralashib ketgan bo'lsa, daryoning o'rta va quyi oqimidagi tuzilmalar (uning Ibelek-Mo'g'ul, Xurdon hududlari) Oqmachitdan kelganliklarini o'z xotiralarida saqlab

qolgan. "Maydantal bo'yidagi tuzilmalar o'z nomlarini qalmoqlar bilan bog'laydilar." Bu ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, qurama xalqining yangi etnik jamoa sifatida paydo bo'lishini nafaqat qozoqlarning turli qabilalarining yurishga ulgurmag'anligi, balki aralashganligi uchun ham "kompozit" deb atash mumkin.

Angren shahrida yashovchi axborotchi, Abdumalik Razzoqov mahalliy aholi orasida o'zbeklar bilan birga tojik xalqlari ko'pchilikni tashkil etishini takidlab o'tdilar. Shunday qilib, XX asr I chorakda Toshkent viloyatining Angren daryosi bo'yida joylashgan aholining 93,1 foizini etnik guruhlar tashkil etgan. Hozirgi davrda tilga olingan hudud aholisining asosiy qismini tuzilmalar tashkil etgan bo'lsa, ular avval o'zlarini "qurama" deb atagan bo'lsa, bugungi kunda o'zlarini "o'zbek-quramalari" deb atashadi.

Taniqli turkshunos olim V. Radlov ham o'z asarida shunday yozadi: "Toshkent va Xojent o'rtasida (1868-yil) kichik tatar qabilasining ko'chmanchilari bor, ular o'zlarini kombaylar deb atashadi. Ular besh urug'ga bo'lingan: jaloyir, telov, tama, jagalbayli va tarak. Aftidan, etnik jamoaning shakllanishi o'zbeklar va qozoqlarning qo'shilib ketishidan vujudga kelgan. Aytishlaricha, qozoqlar jamoani turli qabilalardan (kura — turli qismlardan iborat bo'lmog' va h.k.) tashkil etgani uchun shunday nomlangan. V. Radlovning yozishicha, Toshkent va Xo'jand oralig'ida o'zini qurama deb ataydigan o'troq tatar qabilalari unchalik katta emas. Ular besh urug'dan iborat: Jaloyir, Telov, Tama, Jag'albayli va Taraxti. 1864-yilda rus mustamlakachilari Toshkentni egallab olgandan so'ng, Rossiya tashkiliy qo'mitasi mustamlaka qilingan hudud aholisini aniqlash maqsadida birinchi marta aholini ro'yxatga olish o'tkazdi. Bu qo'mita tomonidan 1868 yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, uch pladoda: To'ytepa, Angren, Chirchiq, Qumada uezdida (1886 yildan Toshkent uyezdi deb o'zgartirilgan) birlashgan xalqlar soniga ko'ra quramalar qatoriga kiradi. Hududdagi ikkinchi eng ko'p xalqlar, masalan, qozoqlar 144 970, etniklar 77 301, o'zbeklar 34 636, tojiklar 11 634 edi[7].

Birikmalarning kelib chiqishi, nomi, joylashgan joyi va soni haqidagi ma'lumotlarni I. Zarubinning "Turkiston o'lkasi xalqlari ro'yxati" asarida topish mumkin. Angren daryosi deltasidagi tuzilmalar turkiy xalqlar ekanligi, ularni o'rganish katta qiziqish uyg'otishi ta'kidlanadi. I. Zarubin asarida: "Quramalar qozoq va o'zbek urug'larining nafaqat qon, balki ko'p hollarda ijtimoiy o'zaro ta'sir natijasida, shuningdek, boshqa qabila unsurlari bilan qo'shilishi natijasidir. Quramalarning etnik guruh sifatida paydo bo'lishi XVIII asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Hozirgi vaqtda etnografiya nuqtai nazaridan shakllanish qozoqlar va boshqa o'troq turkiy xalqlar bilan qorishish natijasida hosil bo'lgan oraliq guruhdir. Ayrim hollarda shakllanishlar qozoqlarga yaqin (yurt uylaridan foydalanish, ayollarning ochiq yuzlari), ayrim hollarda esa sartlariga yaqin[7].

Radlov va o'tgan asrning boshqa tadqiqotchilari ma'lum qo'shma urug'larni ko'rsatdilar. Lekin hozirgi zamonda urug' bo'linishi ko'p joylarda yo'qolib ketgan, ba'zi joylarda o'zini ma'lum bir urug'ga mansub deb hisoblaydiganlar bor (masalan, Yuzd), lekin bu ularning urug' ichida turmush qurishiga to'sqinlik qilmaydi, bu holat. qozoqlar orasida mavjud emas. Jamoalarda milliy ong unchalik sezilmayapti. Ular orasida "qurama" nomidan qochadigan yoki ikkinchi nom sifatida ishlatadiganlar ham bor. Shuning uchun ham Namangan viloyati Bobodarxon mahallasidagi 3 ta aholi punktida 500 nafar aholi Telov qishlog'i avlodlari o'zlarini o'zbek, turk va hatto tojik deyishadi. Shuning uchun qirg'iz (qozoq)-qurama, sart-qurama, yuz, o'zbek-yuz nomlari shu bilan izohlanadi. Bunday vaziyatda tuzilmalar soni va joylashuvini aniqlash qiyin", - deydi u. Aholi punktlari Obliq va Bo'ka, keyin Telov, Qanjig'ali va nihoyat Piskentda 64,5% gacha yashaydi.

N. Aristov asarida 1868 yilgi birinchi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra Angren posyolkasidagi uyalar soni 11043 ta, aholi soni esa 77301 tani tashkil etadi. Bu ma'lumotlar Terentyevning yuqorida keltirilgan son ko'rsatkichini ham aniqlaydi. L. Kostenko ishida 1868 yilda jamoalar 27631 fermer xo'jaligini tashkil etgani, 1877 yilda esa 31330 fermer xo'jaligini tashkil etib, 13% ga o'sganligi ko'rsatilgan. Shunda fermer xo'jaligida har bir oilaga o'rta 5 kishi to'g'ri keladi deb hisoblasak, 156 ming 650 kishi to'g'ri keladi. I. Zarubin shuni ko'rsatadiki, Xo'jandning Ural guberniyasida 9330 kishi ro'yxatga olingan, Toshkentdan tashqari umumiy soni 1917 yilda 52335 kishi, 1920 yilda esa 49697 kishi bo'lgan. Ko'rib turganimizdek, 20-asr boshidagi turli xil joriy ro'yxatga olishlarda va 1920 yildagi Butunrossiya aholini ro'yxatga olishda ularning soni deyarli uch baravar kamaydi. Agar aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, 1868 yildagi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari 1917, 1920 yillardagi ma'lumotlar bilan taqqoslanga, agar

aholini ro'yxatga olish bilan solishtirilsa, 77301 ta tuzilma (1868 yilda) va 1920 yilda. 49 697 kishi 27 000 ga kamayganini ko'rish mumkin. Lekin bu davrlarda Toshkent viloyati aholisining 45,8 foizini qozoqlar, 26,6 foizini (91632 nafarini) o'zbeklar, 15,3 foizini (52808 nafar) etnik guruhlar va boshqalar tashkil etgan xalqlardan tashkil topgan. So'zlarimizni yana bir bor isbotlab, quyidagi asar ma'lumotlarini keltiramiz: "Tuzilishlar barcha qirg'izlar (qozoqlar), o'zbeklar va ehtimol tojiklarning uch yuz nafar vakillari bilan aralashib, Toshkentning janubi-sharqiy qismidagi Angren atrofida joylashgan edi. Ro'yxatga olingan 49,7 ming aholining deyarli barchasi (eraklar ham, ayollar ham Respublika aholisining 1,1 foizini tashkil qiladi) faqat qishloq joylarda istiqomat qiladi. Ularning kamayishini ularning bir qismi o'zbek xalqiga berilganligi bilan bog'lash mumkin[8].

Xulosa qilib aytganda yuqorida tahlil qilingan ishlardagi ma'lumotlarga asoslangan holda, jumladan Aristov, Terentyev va boshqalarning asarlaridan ko'rinib turibdiki, kompozitsion aholi tarkibini jo'ng'orlar bosqiniga borib, yurishga ergasha olmagan uch yuz nafar qozoq vakillari, shuningdek, o'zbeklar, tojiklar va boshqalar tashkil etgan. turkiy xalqlardan tashkil topgan jamoalar ham bo'lganligini inkor etib bo'lmaydi. Biroq, XX asrning 80-90-yillarida Ohangaron tumani jamoalarining qozoqlarga o'xshashligi ko'proq sezildi. Chunki o'sha davrlarda olib borgan tadqiqotlariga va dala etnografik materiallarni to'plash usulidagi kuzatishlarga qaraganda ularning turmush tarzi, tili, antropologik tuzilishi o'zbek va tojik xalqlariga qaraganda qozoqlarga juda o'xshash edi. Qishloq oqsoqollarining hikoyalarga ko'ra, ayniqsa XX asrning 60-70-yillargacha terma jamoalarning tili yaxshi saqlangan. Hozir esa ayrim tadqiqotlarda qozoq va o'zbek xalqlarining o'zaro nikohi natijasida

shakllanishlar vujudga kelganligi aytiladi. Shuning uchun ular qaysi davrda paydo bo'lganligini aniq aytish qiyinroq. Binobarin, maqolada ko'rib chiqilgan kompozit xalqlar bir paytlar qozoqlar tarkibidagi urug' va qabilalar yig'indisidan (ba'zi manbalarda turli millat vakillari) shakllangan va tarixiy xususiyatiga ko'ra aralashgan ya'ni qurama nomi bilan subetnik guruhni tashkil qilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Yuqoridagi sabablarga ko'ra, bugungi kunda ularning deyarli barchasi o'zlarini o'zbeklar ichida quramalar deb hisoblaydilar. Masalan, jalayir, qurama-telov. Bu hududlarda yashovchi o'zbeklar o'zlarini qurama-tojik deb ham atashadi. Shuningdek, tadqiqotchilar tomonidan respublika bo'ylab to'plangan ayrim tadqiqotlar va dala etnografik materiallarda ma'lumot beruvchilar birlashgan aholini faqat qozoq xalqining etnik va qabilaviy tarkibidan iborat bo'lmay, balki tojik, o'zbek va boshqa xalqlarning birlashgan guruhi borligini aytadi. Shakllanishlar haqida maxsus tadqiqot ishi yozgan Fayziyev ta'biri bilan aytganda, Oxangaron tuzilmalari tarixan shakllangan etnik guruhning bir turi sifatida o'ziga xos urf-odatlariga ega. Biroq jadal urbanizatsiya natijasida milliy-mahalliy (ruhiy va mahalliy) etnik an'analar unutildi. 1926 yilgi O'zbekiston Respublikasi aholini ro'yxatga olishda jamlangan aholi respublika aholisining katta qismini tashkil etgan bo'lsa-da, 1930-yillardan boshlab hisoblarda ular ko'p ham ko'rinmaydi. Qolaversa, 80-yillargacha biz aralash xalq emas deb yurgan xalq, aslida juda qadim tarixga ega bo'lganligi va bu elatning kelib chiqishi va shakllanishi haqida turli ilmiy qarashlar mavjudligi izlanishlar natijasida ma'lum bo'ldi. Qurama elati haqida hattoki XV asrda yozilgan Xoja Axror Valiyning vaqfnoma asarida ham ma'lumotlar keltirib o'tilganligi tadqiqotlar natijasida aniqlandi.

#### ADABIYOTLAR

1. Abdumalik Razzoqov. "Ohangaron gavharlari". Toshkent-2018
2. Радлов, Василий Васильевич. Этнографический обзор тюркских племен Южной Сибири и Джунгарии / перевод с немецкого ; [сочинение] академика В. Радлова. — Томск : Типо-литография Михайлова и Макушина, 1887. — v
3. Андреев Н., "Описания среней орды киргис-кайсаков", 1785 й
4. Терентьев М.А. Статические очерки Среднеазиатской России. //«Записки Российского географического общества». TIV.—1878
5. Машкеев А.И. Географические, этнографические и статические материалы о Туркестанском крае. // «Записки Российского географического общества» по отделению статистики. Т. 2. СПб.:—1871
6. Аристов Н.А. Заметки об этническом составе тюркских племен и народностей, сведения об их численности // Живая старина. СПб., 1896. Выпуск. III-IV
7. Зарубин И.И.Список народностей Туркестанского края... // Труды по изучению племенного состава населения России и сопредельных стран. Т. I. Л.: —1925. —С.12
8. Статистико-экономический очерк Долины Р. Ангрен, 1923:



UDK: 2621

*Nodirjon QURBONOV,*  
*Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD*  
*E-mail:nodirjonqurbonov3002@gmail.com*

*TDPU dotsenti, t.f.n.H.Matyakubov taqrizi asosida*

#### HISTORY OF THE STUDY OF SEISMIC PROCESSES THREATENING THE STABILITY OF CENTRAL ASIA

Annotation

Devastating earthquakes in recent years have shown the importance of early detection and planning of seismic vulnerability and seismic hazards in large cities and settlements. In order to reduce seismic losses, scientific studies have been conducted in the countries of the world to create methods for assessing the losses that can be caused in the event of a strong earthquake in the regions considered to be seismically dangerous.

**Key words:** Earthquake, history, seismology, loss, disaster, area, plate, east, west, south, region, city.

#### ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ СЕЙСМИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ, УГРОЖАЮЩИХ СТАБИЛЬНОСТИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация

Разрушительные землетрясения последних лет показали важность раннего выявления и планирования сейсмической уязвимости и сейсмической опасности в крупных городах и населенных пунктах. В целях снижения сейсмических потерь в странах мира проводятся научные исследования по созданию методов оценки потерь, которые могут быть причинены в случае сильного землетрясения в сейсмически опасных регионах.

**Ключевые слова:** Землетрясение, история, сейсмология, ущерб, катастрофа, площадь, плита, восток, запад, юг, местность, город.

#### MARKAZIY OSIYO BARQARORLIGIGA XAVF SOLUVCHI SEYSMIK JARAYONLARNI O'RGANISH TARIXI

Annotatsiya

So'nggi yillarda yuz bergan vayronkor yer silkinishlari katta shaharlar va aholi punktlarida seysmik zaiflik va seysmik xavf-xatarlarni oldindan aniqlash va rejalashtirishni o'ta muhim ekanligini ko'rsatdi. Seysmik talofatlarni kamaytirish maqsadida dunyo mamlakatlarida seysmik xavfli deb hisoblangan hududlarda kuchli zilzila sodir bo'lganda olib kelishi mumkin bo'lgan talofatlarni baholash uslubiyotlarini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazilib kelindi.

**Kalit so'zlar:** Zilzila, tarix, seysmologiya, talofat, ofat, maydon, plita, sharq, g'arb, janub, hudud, shahar.

**Kirish.** Dunyo miqyosida zamonaviy sanoat ishlab chiqarishining o'sishi, urbanizatsiya darajasining ortishi natijasida yer ustki qatlamlariga antropogen ta'sirning kuchayishi, aholining zichlashuvi bilan bog'liq yer usti va yer osti transporti hamda kommunikatsiya tizimlarining rivojlanishi oqibatida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nohus hodisalar hamkorlikni takomillashtirishning asosiy omillaridandir.

Tarixan olib qaraganda, zilzilalar ilk bor 4 ming yil oldin qayd etila boshlangan. Biroq, zilzilalar haqida yozilgan ko'plab manbalarda 1556 yil 23 yanvar kuni Xitoyning Shansi provinsiyasida yuz bergan yer silkinishi to'g'risida ma'lumotlar kengroq berilib, uning dahshatli oqibati haqida fikr yuritilgan. Chunki, bu zilzila insoniyatga eng ko'p talofat keltirgan tabiiy ofat sifatida manbalarda uchraydi. O'shanda bu zilzila oqibatida 830 ming kishi nobud bo'lganligi haqidagi statistik ma'lumotlar yetib kelgan [1]. Insonlar o'limini ko'pligiga asosiy sabab uy-joylarning yer sharoiti va uning xususiyatlari e'tiborga olinmagan holda qurilgani edi. Shu sababli butun boshli shaharlar zilzila oqibatida suyuqlangan tuproqqa botib ketdi. Chunki aholi boshpanalarining katta qismi lyoss tuproq bag'rini kovlab barpo etilgan edi.

Shu kabi dahshatli oqibatlariga sabab bo'lgan yana bir yer silkinishi 1976 yili yana Xitoyning aholi o'ta zich yashab turgan hududlaridan biri Tanshan-Fenannda, Pekindan 130 km uzoqlikda sodir bo'ldi. Mazkur zilzila magnitudasi 7,8 ni tashkil etib, u 31 iyuldan 1 avgustga o'tar kechasi mahalliy vaqt bilan tungi soat 3 dan 42 daqiqa o'tganda yuz berdi [2]. Tunda aholi osmonda yuz bergan o'ta kuchli chaqnashdan o'yg'onib ketdi. Bu chaqnash osmonda 300 kilometr kvadrat maydonni egallab oldi. Keyin esa yer parchalanib, yuqori ko'tarilib, go'yoki ko'pchib shisha boshladi. Yer osti zarbasidan binolar, yashash uylari va sanoat inshootlari, omonat uyachalar misoli qulab tusha boshladi. Shahar batomom vayronaga aylandi. Shu kuni kechqurun soat 19 lar atrofida yuz bergan kuchli aftershokdan yarim buzilgan ko'plab binolar to'la vayronaga aylandi. Zilziladan shikastlangan va omon qolganlar boshqa shaharga ko'chirildi. Zilzilaning yoz faslida yuz berishi oqibatida shaharda ikkinchi katta xavf – epidemiyali vaziyat yomonlashib, hudud samolyotlar orqali dezinfeksiya qilingan edi [3].

So'nggi yillarda yuz bergan vayronkor yer silkinishlari katta shaharlar va aholi punktlarida seysmik zaiflik va seysmik xavf-xatarlarni oldindan aniqlash va rejalashtirishni o'ta muhim ekanligini ko'rsatdi. Seysmik talofatlarni kamaytirish maqsadida dunyo mamlakatlarining xususan, O'zbekiston, Yaponiya, Qozog'iston, Kolumbiya, Xitoy, Turkiya, Rossiya, AQSh va boshqa davlatlarda favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda harakat qilish xizmatlari tomonidan seysmik xavfli deb hisoblangan hududlardagi bino va inshootlarning zaifligini, kuchli zilzila sodir bo'lganda olib kelishi mumkin bo'lgan talofatlarni baholash uslubiyotlarini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazilib kelindi.

Jahon mamlakatlarida yer silkinishlari keltirishi mumkin bo'lgan talofatlarni baholashning birinchi muhim bosqichi jismoniy zararni baholash ekanligi belgilab olingan. Keyingi bosqichlarda bino-inshootlar va qimmatbaho buyumlarga yetkazilgan talofatlar baholanadi. Zilzilalar yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan iqtisodiy talofatlar qiymatini baholash bevosita jismoniy zarardan tashqari zarar ko'rgan hududlardagi ishlab chiqarish hamda tijorat faoliyatining izdan chiqishidan ko'rilgan zararlarni ham o'z ichiga oladi. Ijtimoiy talofatlarni esa aholining hayoti va sog'ligi, siyosiy va ruhiy holati kabi omillar tashkil etadi. Ijtimoiy talofatning eng muhim jihati seysmik jarayonlar paytida qurbon bo'lgan va turli darajada shikastlangan aholi ko'rsatkichi hisoblanadi.

XX asrda seysmologiya sohasida erishilgan yutuqlar dunyo davlatlari va aholisi uchun xavfsizlikni ta'minlashdagi muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan g'alaba sifatida e'tirof etildi. Chunki, ko'rsatilgan ayrim zilzilalar insoniyatga ko'plab yo'qotishlar olib kelgani, bunday ofatdan hech qaysi mamlakat kafolatlanmaganligini yuqori doiralar hamda ilm ahli juda yaxshi biladi. Chunki, deyarli bir xil xususiyatga ega bo'lgan tektonik plitalar ustiga bir necha davlatlar joylashgan va aynan yer plitalari hamda ularni tashkil etgan bloklar doimiy harakatda bo'lib turadi [4]. Bu joylarda aholi manzilgohlari, sanoat korxonalar, suv omborlari va boshqa turli ob'ektlar joylashganligi bilan xatarlidir.

Bundan tashqari seysmik jarayonlarni kuzatish va ularni oldindan aniqlash davlatlarning o'zaro munosabatlari hamda ularning ijtimoiy tuzumi bilan ham bog'liq. Buni SSSR misolida ko'rish mumkin. Shuni alohida qayd etish kerakki, O'zbekiston



mustaqillikgacha ham bu borada katta muvaffaqiyatlarni qo'lg'a kiritdi. Biroq, bu ilmiy kashfiyotlarga tuzum nazari bilan qarash ustunlik qildi. Chunki, ittifoq davrida fanning mafkuraviylashuvi avj olgan bo'lib, bu jarayon seysmologiya sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Jumladan, sovet davrida har qanday masalalarga partiyaning aralashuvi shunchalik kuchaygan ediki, hatto u fanning barcha sohalarini qamrab olgan edi. Har bir ma'lumot tuzumini ulug'lashi, uning manfaatlariga xizmat qilishi kerak edi. Shu sababli SSSR hududida yuz bergan ko'plab tabiiy ofatlar, ularning sabablari va oqibatlariga haqidagi ma'lumotlar ham sir tutildi yoki ular go'yoki aholiga ta'sir qilmagandek ko'rsatilar edi. Masalan, Ashxobod yer silkinishi haqida farajotiga "Pravda" gazetasi qisqa ma'lumotlar berish bilan cheklanilib, ma'lumotlarning asosiy qismi shaharga kelayotgan yordam haqida bo'lgan edi.

Shaharda yuz bergan tabiiy ofat haqida to'la tasavvurga ega bo'lish uchun shaxsan I.V.Stalinning topshirig'i bilan yuborilgan kinooperator R.Karmen vayrona shaharni bir qismi hamda odamlarning qahramonliklari va asosan aholi uchun kelayotgan yordamni suratga oldi. Biroq bu tasvirlar ham 30 yil davomida arxivda saqlanib, ekranlarga chiqarilmadi.

Oradan 25 yil o'tgandan so'ng Moskvadan Ashxobod shahriga yo'llanma bilan kelgan va shu yerda muqim yashay boshlagan respublika arxivi direktori A.V.Golovkin axborot ta'qiqlariga qaramasdan to'plangan materiallarni, jumladan, halok bo'lganlarni ilk bor e'lon qilishga erishdi. Seysmolog olimlarni arxiv materiallaridan foydalanishga chaqirdi.

SSSR davrida barcha fanlar singari seysmologiya fani ham sovet mafkurasiga ta'siri ostida ekanligini o'z davrida yozib qoldirilgan boshqa manbalar misolida ham ko'rish mumkin. Yirik seysmolog olim hisoblangan G.P. Gorshkovning "Ilmiy ateistik asarlar kutubxonasi" uchun yozgan va 1952 yilda Toshkentda chop etilgan "Er qimirlashi" kitobining xotima qismida shunday jumalarni uchratish mumkin: "Bilimlar bilan qurollangan sovet kishisi tabiat kuchlari keltirgan ofatlariga sabr-toqat qilib, ular bilan muros qilib o'tirmaydi. U ofatlarni o'rganib, ularning oqibatlariga qarshi aktiv kurash olib boradi. Kishilar yer qimirlashini oldindan aytib berishni o'rganganlaridan so'ng, u tufayli kelayotgan falokatlarini ham tamomila oldini olishga muvaffaq bo'ladilar. Fan shunga intilmoqda va u bunga erishadi" [5].

Xuddi shunday mafkuraviy ta'sir ushbu kitobda yana shunday davom etadi: "Chet ellarda 40 ga yaqin seysmik stansiya akademik Golitsin tomonidan ishlab chiqilgan rus asbob-uskunalar bilan ta'minlangan. SSSRda yer qimirlash o'chog'iga yaqin joylashgan ko'pgina seysmik stansiyalar P.M.Nikifirov, V.F.Bonchkovskiy, D.P.Kirnos va D.A.Xarinlar ixtiro qilgan yangi tur sovet asboblari bilan ta'minlangan" – deyiladi.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, XX asr 80-yillarining ikkinchi yarmiga kelib seysmologiya sohasiga bo'lgan e'tibor nihoyatda pasayib ketdi, chunki jamiyat hayotida yuzaga kelgan tanglik holati ushbu sohaga ham ta'sir qilgan edi. Shunday sharoitda ittifoq aholisini sarosimaga keltirgan yer silkinishi sodir bo'ldi. Jumladan, 1988 yil 7 dekabrda mahalliy vaqt bilan soat 11 dan 41 daqiqaga o'tganda 25 mingdan ortiq odamni hayotiga zomin bo'lgan zilzila Armanistonda yuz berdi.

Holbuki, bu paytda sobiq ittifoq miqyosida zilzilalarni oldindan aytish borasida ko'plab ilmiy va hayotiy tajribalar shakllangan edi. Xususan, geofizik tadqiqotlar geomagnit maydondagi hamda suv tarkibidagi o'zgarishlar va boshqa ko'plab ilmiy izlanishlar natijalarini bunga misol keltirish mumkin. Shunday ekan haqli savol tug'iladi, 1978 yildagi Oloy zilzilasi, 1984 yil Popdagi zilzila va boshqa yer silkinishlarini oldindan aniqlangan va juda ko'plab yo'qotishlarning oldi olingani holda, nima sababdan Armanistonda oldindan aniqlashning imkoni bo'lmadi?

O'zbekistonlik seysmolog olim akademik Q.Abdullabekov Armaniston zilzilasi sabablari va ularning oqibatlarini tahlil etar ekan, armanistonlik mutaxassislarining qolaversa u yerdagi kishilarni o'zlari sababchi ekanligini aytib, buning isboti sifatida quyidagi omillarni o'rta ta'lim: seysmik va boshqa kuzatish ishlarini yomon tashkil qilganligi, kuzatuv joylaridagi ma'lumotlarni juda kech pochta orqali 1-2 oyda yetib kelishi va kelgan ma'lumotlar vaqtida hisoblab chiqilmaganligi; seysmik rayonlashtirish xaritalarini tuzishda qo'pol xatolarga yo'l qo'yilganligi va 9-10 ballik zilzilalar sodir bo'lishi mumkin bo'lgan joylar xaritada 7-8 ball qilib ko'rsatilganligi; qurilish normalari ham qo'pol buzilganligi. Akademik so'zini davom ettirib, bu xatoliklarning hammasi birga qo'shib provard natijada yirik qurbonlar bo'lishiga olib keldi, deb xulosa qiladi [6].

Har qanday qiyinchiliklarga qaramasdan yer silkinishlari talofatlarini oldini olish maqsadida seysmolog olimlar O'zbekistonning janubiy-g'arbidagi hududlarini o'rganishni faollashtirishga kirishdi. Ma'lumki, bu hududlar Turon plitasining sharqida joylashgan bo'lib, Turkmaniston hamda Qozog'iston respublikalari seysmolog olimlari bilan yaqindan hamkorlik olib borishni taqozo etardi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyo respublikalari seysmik faol hududlarda joylashgan bo'lib, mintaqadagi seysmik jarayonlar yoki yer silkinishi bir paytda boshqa respublikalar hududlariga ham ta'sir etish xavfi yuqori hisoblanadi. Masalan, 1946 yil 3 noyabrda Qirg'iziston hududida yuz bergan Chotqol zilzilasi O'zbekiston hududining ham ancha qismiga, xususan, Toshkent shahriga ta'sir etganligini ko'rish mumkin [7]. Holbuki, zilzila markazi Toshkentdan 250 km uzoqlikda joylashgan edi.

Ushbu zilzila oqibatida Norin daryosining quyi oqimidagi To'qtag'ul rayonidan 20 km uzoqlikda yirik yer surilishi yuz berdi. Bu paytda Andijonda 7 balli tebranish sodir bo'lib bir nechta eski binolar buzildi, hatto oqayotgan daryo o'zani o'zgarib, yangi Suusamir irmog'i paydo bo'ldi.

Shuningdek, 2002 yil 3 martda Afg'onistonda yuz bergan yer silkinishi esa Shahrisabz shahrida joylashgan madaniy yodgorlik Oqsaroyga keskin ta'sir etgan edi. Oqibatda saroy devorlari bo'ylab kengligi 1-2 sm bo'lgan 4 metrdan 20 metrgacha uzunlikda yoriqlar paydo bo'ldi.

Bu kabi zilzilalarning transchegaraviy ta'siri yirik kimyoviy ishlab chiqarish sanoatlari, tabiiy ko'llar hamda ulkan suv omborlarini soz holatidan chiqarib yuborishi, gidrotexnik inshootlarni vayronaga aylantirishi mumkin. Umuman olganda, tabiiy ofatlar hamda halokatlardan aholini muhofaza qilishda hamkorlik masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli Markaziy Osiyo respublikalari bilan yondosh bo'lgan va zilzilalardan ko'p marta aziyat chekkan Pokiston va Xitoy davlatlaridagi seysmik jarayonlarga ham qisqacha to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq.

Haqiqatdan ham, Pokiston va Xitoy davlatlarida yuz bergan kuchli yer silkinishlari Markaziy Osiyo respublikalari hududlariga ham ma'lum darajada ta'sir qilganligini ko'rish mumkin. Jumladan, 2005 yil 8 oktyabrda Pokistonning shimoliy hududida yuz bergan yer silkinishi ushbu davlatning o'zida 86 ming kishining nobud bo'lishiga, 69 ming kishiga turli darajada shikast yetishiga, 4 milliondan ortiq kishining boshpanasiz qolishiga, janubiy-sharqdan qo'shni bo'lgan Hindistonda esa 1350 kishining o'limiga, 6266 kishini shikastlanishiga, Ura shahrining 80 foizi vayronaga aylanishiga, Anantnag, Baramule, Jammi va Sirinagarda 32335 ta uy-joy va binolarning buzilishiga olib kelgan edi.

Bundan tashqari zilzila kuchi Hindistonning o'ndan ortiq aholi zich yashaydigan shaharlariga ham yetib bordi. Afg'onistonda esa zilzila oqibatida bir kishi nobud bo'ldi. Zilzila intensivligi Qobulda 4 ball, Bagramda esa 3 ball darajada sezildi.

Markaziy Osiyo respublikalari orasida O'zbekiston ham xavfli seysmik faol hududda joylashgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 80 foiz hududi seysmik faol hudud hisoblanib, bu joylarda (6-9 ball) 7-9 balli zilzila bo'lish ehtimoli yuqori. N.G.Mavlyanova bergan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonning 55 foiz hududini 7 ball va undan ortiq tebranish kuchiga ega bo'lgan joylar tashkil etadi. "Zilzila hodisalari" nomi bilan "Muhofaza plyus" jurnalida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda O'zbekiston aholisini 70 foizi 7-9 ballgacha zilzila sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hududda yashaydi [8].

Seysmik jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan ikkilamchi xavflar, Markaziy Osiyoning janubida joylashgan respublikalar hududida ko'proq uchraydi. Bu respublikalar hududlarining geologik va geografik tuzilishi zilzilalar sodir bo'lishi natijasida ikkilamchi xavflar miqdorining ortishiga olib keladi. Jumladan, Qirg'iziston va Tojikiston hududlaridagi yuz bergan yer silkinishidan paydo bo'lgan suv toshqini, shuningdek, ko'plab chiqindixonalar hamda ishlab chiqarish ob'ektlari (ayniqsa, kimyoviy ob'ektlar)ning izdan chiqib ketish xavfi O'zbekiston aholisi va hududlari uchun ham eng katta xavflardan hisoblanadi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, O'zbekistondagi 120 ta shahar seysmik faol hudud tarkibiga kirib, bu hududlarda mamlakat aholisining 93 foizi istiqomat qiladi. Shuningdek, yirik ishlab chiqarish ob'ektlari ham bu hududlarda joylashgan.

Bu kabi ko'plab sabablar Markaziy Osiyo respublikalarida o'zaro hamkorlikni talab qiluvchi asosiy omillar hisoblanadi. Albatta, yer silkinishlaridan aholi va hududlarni muhofaza qilish masalasi doim har bir davlatning diqqat markazida bo'lib kelgan.



Xulosa qilib aytganda, sovet davrida seysmik jarayonlarni o'rganish masalasiga bir butun tizim sifatida yondashilgan bo'lsada, biroq ilmiy izlanishlar natijalari va kashfiyotlar ittifoqdosh respublikalarga bir xilda tatbiq etilmadi, shuningdek, sohani moliyashtirishda ham o'ziga xos mahalliy sharoitdan kelib chiqilmaganligini kuzatish mumkin. Sovet ittifoqi parchalanib ketganidan so'ng, bu masala yuzasidan har bir mamlakatda alohida yondashuv yuzaga kela boshladi.

Statistik ma'lumotlar tahlili shundan dalolat beradiki, Markaziy Osiyo respubliklarida istiqomat qilayotgan aholining 40 foizdan ortig'i zilzilabardoshlilik talablari ta'minlanmagan va zilzilalarda talofat ko'rish mumkin bo'lgan uy-joylarda yashab kelmoqda. Shuningdek, ushbu mintaqa mamlakatlari aholisi katta qismining zilzilalar to'g'risidagi bilimlarining juda pastligi, individual uy-joylar barpo etishda mahalliy materiallardan ko'proq foydalanilishi seysmik xavfni oshiruvchi omillar hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Досчанов М., Солиев Н. Зилзиладан сўнг // Муҳофаза +, 2017, № 3. - 8 б.
2. Илёсова З. Зилзиланинг ҳамроҳи // Муҳофаза +. 2010, № 10 (73). – 21 б.
3. Абдуллабеков Қ., Ильясова З. Фавқулодда вазиятлар тарихидан - зилзила. – Тошкент, 2016. – 104 б.
4. Қурбонов Б. Зилзила ва унинг турлари // Муҳофаза +. 2007, № 6. – 10 б.
5. Горшков Г.П. Ер кимираши. – Тошкент: Қизил Ўзбекистон ва Правда Востока, 1952. – 44 б.
6. Абдуллабеков Қ. Зилзиладан сақланиш мумкинми? Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 29 б.
7. Иброхимов Р. Кучли зилзилалар изидан. – Тошкент, 1982. – 27 б.
8. Тожибоева Х. Зилзила ходисалари // Муҳофаза +. 2006, № 5. – 11 б.



UDK:193.4(575.1)

*Sharofiddin MAMATOV,*  
GulDU "Tarix" kafedrasida katta o'qituvchisi  
E-mail: [mamatov0766@gmail.com](mailto:mamatov0766@gmail.com)

GulDU dotsenti, Q.Almanov taqrizi asosida

## RURAL COMMUNITIES IN THE PEOPLES OF CENTRAL ASIA IN ANCIENT TIMES, THE EARLY AND ADVANCED MIDDLE AGES

Annotation

This article analyzes the rural systems of the ancient peoples of Central Asia and the traditions associated with them, the origin and changes of titles such as "Tudun" and "Chuban". Also, the article examines the obligations of rural communities, taxes and wage system, through information in "Devonu Lug'ati-t-Turk" and documents in ancient Uyghur script. And the general characteristics of rural communities in the peoples of Central Asia in the ancient period, the early and developed middle ages are revealed.

**Key words:** Central Asia, ancient Turkic peoples, village system, nomadism, settlement, traditions, language, terms, "tudun", "chuban", "devonu lug'ati-t-turk", "terchi", "Manchu", tax, salary.

## СЕЛЬСКИЕ ОБЩИНЫ У НАРОДОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ В ДРЕВНОСТИ, РАННЕМ И СТАРШЕМ СРЕДНЕВЕКОВЬЕ

Аннотация

В данной статье анализируются сельский строй древних народов Средней Азии и связанные с ними традиции, происхождение и изменение таких титулов, как «Тудун» и «Чубан». Также в статье рассматриваются обязательства сельских общин, налоги и система оплаты труда, посредством информации в «Девону Лугати-т-Тюрк» и документов, написанных древней уйгурской письменностью. И раскрываются общие характеристики сельских общин у народов Средней Азии в древний период, раннего и развитого средневековья.

**Ключевые слова:** Средняя Азия, древнетюркские народы, сельский строй, кочевничество, расселение, традиции, язык, термины, «тудун», «чубан», «девону луг'ати-т-тюрк», «терчи», «маньчжурский», налоги, зарплата.

## QADIMGI DAVR, ILK VA RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA O'RTA OSIYO XALQLARIDA QISHLOQ JAMOALARI

Аннотация

Ushbu maqolada Markaziy Osiyo qadimgi xalqlarining qishloq tizimlari va ular bilan bog'liq an'analar, "tudun" va "chuban" kabi unvonlarning kelib chiqishi va o'zgarishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada qishloq jamoalarining majburiyatlari, soliqlar va ish haqi tizimi, "Devonu Lug'ati-t-Turk"dagi ma'lumotlar va qadimgi uyg'ur yozuvidagi hujjatlar orqali o'rganiladi. Va qadimgi davr, ilk va rivojlangan o'rta asrlarda O'rta Osiyo xalqlarida qishloq jamoalarining umumiy xarakteristikasi ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo, qadimgi turk xalqlari, qishloq tizimi, ko'chmanchilik, o'troqlashish, an'analar, til, atamalar, "tudun", "chuban", "devonu lug'ati-t-turk", "terchi", "manchu", soliq, ish haqi.

**Kirish.** Markaziy Osiyoda qishloq tizimi qadimgi turkiy xalqlarning madaniy va ijtimoiy hayotini shakllantirgan muhim omil hisoblanadi. "Devonu Lug'ati-t-Turk" kabi manbalar orqali bu tizimning xususiyatlarini, "tudun" va "chuban" kabi unvonlarning ma'nolarini va qishloq jamoalarida ish haqi va soliq tizimini o'rganish mumkin. Ushbu maqolada qadimgi turkiy xalqlarning qishloq tizimini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, bu tizimning tarixi, ijtimoiy tuzilishi va tillarga ta'siri tahlil qilinadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'rta Osiyo va unga qo'shni hududlarda bronza davriga kelganda kishilik jamiyatida yirik o'zgarishlar yuz beradi. Bu davrning ijtimoiy tarkibi endi, asosan patriarxal monogamik oilalardan iborat bo'lib, ular bronza davri ijtimoiy-iqtisodiy asosini tashkil etgan. Bu kabi o'zgarishlar natijasida qadimgi dehqonchilik jamoalarida asta-sekin xususiy mulk egalari – sharqiy eroniy tillarga xos atamalar: "kashovarlar" (mayda mulk egaligi), chorvadorlar jamoalarida esa aslzoda mulk egalari – "oriylar", hunarmandlar orasida "ozodkorlar", savdo-sotiq ahli orasida esa "g'uvakorlar" ijtimoiy tabaqasi shakllana boradi.

Tadqiqotchilarining yozishicha, "vis" jamoalarining tarkib topishini taxminan quyidagicha tasavvur etish mumkin: ya'ni har bir jamoaning o'z urug'idan ajrab chiqqan juft oilalar o'z kuchi va imkoniyatidan kelib chiqib, daryolar va soylar quyi havzalarida tegishli miqdorda yer – ekin maydonlarini o'zlashtirib, xususiy yer-mulk egasiga aylanadi[1]. Bu xususiy mulk egalari hayotda ozod, erkin dehqon jamoalarini (kashovarlar ijtimoiy tabaqasi kurtaklarini) tashkil etgan. Har bir daryo quyi havzasini o'zlashtirishda bir necha erkin va ozod jamoa a'zolari urug'-aymoqchilik an'alarini saqlagan holda, erkin dehqonlar jamoasini, ya'ni qishloq jamoalari-visni tashkil etadilar. Shunday tartibda tashkil topgan qishloq jamoasi, uning mulki ona urug'i davridagidek, endi ijtimoiy xarakterga ega emas, balki xususiy xarakterga ega bo'ladi, ya'ni "vis" jamoasida ilk bor xususiy mulk, o'zlashtirgan yangi yerga xususiy egalik qilish paydo bo'ladi. Bunday jamoalarda xususiy mulkni paydo bo'lishida erkaklarning xizmati katta bo'lgan. Endi, bolalar ham o'z otasini yaqindan tanib,

bola tarbiyasi juft oila qo'liga o'tadi, bolalar o'rtasidagi oila mulki taqsimotida otalarning roli ortib boradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning metodologiyasi analiz va sintez, tadrijiylik, tarixiy-qiyosiy, ob'ektivlik, davriy-muammoviy va retrospektiv tahlil etishga asoslanadi. Bugungi kunda dunyo fanida tarixiy tadqiqotlar bo'yicha qo'lga kiritilayotgan yutuq va yangiliklardan, ayniqsa, ko'pchilik dunyo olimlari tomonidan qabul qilingan tadqiqot usullari va yondashuvlardan imkon qadar foydalanishga harakat qilindi. Tadqiqot yondashuvlariga asoslangan holda Markaziy Osiyo qadimgi xalqlarining qishloq tizimlari va ular bilan bog'liq an'analar, "tudun" va "chuban" kabi unvonlarning kelib chiqishi va o'zgarishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada qishloq jamoalarining majburiyatlari, soliqlar va ish haqi tizimi, "Devonu Lug'ati-t-Turk"dagi ma'lumotlar va qadimgi uyg'ur yozuvidagi hujjatlar orqali o'rganiladi. Va qadimgi davr, ilk va rivojlangan o'rta asrlarda O'rta Osiyo xalqlarida qishloq jamoalarining umumiy xarakteristikasi ochib beriladi.

**Tahlil va natijalar.** Arxeologik materiallar tahliliga ko'ra, chorvadorlar jamoasida mulk egaligining paydo bo'lishi bronza davridayoq yuz bergan. Chunki, bronza davri chorvadorlari keng tarqalgan hududlardan biri janubi-sharqiy Ural tog' yonbag'irlari va shimoliy Qozog'iston cho'llari bo'lib, bu hududlarda o'rganilgan Andronovo madaniyatining Sintashta mozor qo'rg'onlaridan topilgan ashyoviy dalillar jamoa a'zolarini badavlat chorvador aslzoda harbiylarga, kambag'al avom cho'pon va xizmatkorlarga bo'linishini taqozo etadi[2].

Avesto jamiyati to'rt ijtimoiy bosqichdan iborat: patriarxal oila jamoasi – "nmana", patriarxal urug' jamoasi – "vis", qabila jamoasi – "zantu" va qabilalar ittifoqi – "daxyu". Dax'yu viloyat, mamlakat ma'nosini ham anglatgan. Oila, urug', qabila boshlig'ini anglatish uchun "pati" (ota) so'zi ishlatilgan. Demak, oila boshlig'i – "nmanapati", urug' oqsoqoli – "vispati", qabila boshlig'i – "zantupati", mamlakat sardori – "dax'yupati" deb yuritilgan. Mamlakatni idora qilgan shaxs "kavi", ya'ni diniy, dunyoviy

hokimiyat egasi bo'lib, uning harbiy sarkardalik mavqeini ifodalash uchun "sastar" so'zi ishlatilgan. Sastar bir vaqtni o'zida da'yu poytaxtining hokimi bo'lgan, mamlakat harbiy holatda bo'lgan kezlarda uning zimmasiga harbiy qo'mondonlik vazifasi yuklatilgan. Avestoda yozilishicha, sastar dax'yu okruglaridan birini boshqarishi ham mumkin bo'lgan[3].

Ko'p tadqiqotchilar tomonidan shubha ostiga olingan Ktesiy ma'lumotlari arxeologik tadqiqotlarda o'z tasdig'ini topmoqda. Jumladan, A.Asqarovning yozishicha, hozirgi kunda Baqtriya tuprog'ida miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmiga oid 240 dan ortiq qishloq-qo'rg'onlar, qal'alar va shahar qoldiqlari topib o'rganilgan. Birgina Surxon vohasida joylashgan Kuchuktepa, Pshaktepa, Beshqo'ton, Talashkan, Jondavlat, Bandixon, Bo'yrachi, Qizilcha, Obishir, Sho'rtepa kabi yodgorliklarni eslash yetarli bo'lib, ular mudofaa devorlari, mudofaa burjlari bilan mustahkamlangan qal'alar va qo'rg'onlardir[4]. Qadimgi aholi u davrlarda sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan. Uy qurilishi, diniy va dunyoviy monumental binolar qurilishi, ko'p tarmoqli hunarmandchilik va savdo-sotiq, ayniqsa, uning kulolchilik, metallurgiya, zargarlik, to'qimachilik va ko'pchilik sohalari Baqtriyada yuksak darajada rivojlanganligidan guvohlik beradi.

Avesto tili bilan aytganda, Sopollitepani 8ta "nmana"larni birlashtirgan "vis" sifatida tasavvur etish mumkin. Har bir urug' jamoasining, ya'ni katta patriarxal oilaning patriarxi – nmanapatnisi, ularni birlashtirgan visni (qishloq urug'- jamoasining) vispatisi bo'lgan. Har bir patriarxal uy-joy komplekslari ko'p xonali uylardan (mo'rili o'choq, dahliz, sandalli yotoqxona, oilaviy altar, g'alla ombori, to'qimachilik dastgohiga mo'ljallangan keng va uzun xona) tashkil topgan bo'lib, bunday katta patriarxal urug' jamoalari Sopollitepa nmanalarini tashkil etgan.

Turkiy xalqlarda aholi maskanlari – ovul, qishloq va shaharlar bilan bog'liq atamalar eroniy xalqlar, shu jumladan, sug'diylarga xos atamalardan anchagina farq qilgan. Ilk va rivojlangan o'rta asrlarda turkiylarga xos aholi maskanlarining yirik bir qismini ko'chmanchilar ovullari tashkil etgan bo'lsa-da, turkiylarning sezilarli bir qismi o'troq yashab, o'z qishloqlariga ega bo'lganini tasdiqlaydigan yozma ma'lumotlar uchrashi bundan darak beradi. Masalan, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'ati-turk" (Turkiy so'zlar devoni) asarida (XI asr) "tuzun" (tudun) atamasiga izoh berar ekan, uni "qishloq keksasi, oqsoqoli, suv taqsimlovchi, mirobi" degan ochiqlama keltirib o'tadi[5]. Bundan ko'rinadiki, turkiy xalqlar orasida ko'proq so'nggi o'rta asrlar va XX asr boshlarida keng qo'llanilgan "oqsoqol" so'zi qadimgi turkchada "tuzun" yoki "tudun" deb ishlatilgan va ushbu unvonga ega kishi turk qishloqlarining bosh vazifadorlaridan biri bo'lgan. Ayniqsa, yoshi ulug' inson sifatida "tuzun"lar qishloq oqsoqoli bo'lish bilan birga ekin-tikin qilishlari uchun aholini suv bilan ta'minlaydigan "mirob" vazifasini ham bajargani Mahmud Qoshg'ariy keltirib o'tgan ushbu ma'lumotdan ko'rinib turibdi.

Aslida xitoy, sug'diy, qadimgi turk, yunon, arab va fors tilidagi ilk o'rta va rivojlangan o'rta asrlarga tegishli yozma manbalarda "tudun" ko'rinishida tilga olingan atama Turk xoqonligi (552-744) boshqaruvida "bo'ysundirilgan o'lkalarni xoqon nomidan boshqaruvchi – noib", "vassal hukmdorliklarning mahalliy boshqaruvchilari ustidan nazorat qiluvchi, soliq va o'lponlar yig'inini tashkil etuvchi amaldor"lar uchun qo'llanilgan. Masalan, VII – VIII asrlar oralig'ida Choch (Toshkent) hukmdorligi boshqaruvida 4 nafar "tudun" unvonli amaldor bo'lgani xitoy yilnomalari orqali ma'lum. Shuningdek, 720- yillarga tegishli Mug' tog'i sug'diy hujjatlaridan biri A-14 raqamli hujjatdan "tudun" unvonli shaxsning Chochdagi asosiy boshqaruvchisi bo'lgani anglashiladi[6]. Bundan tashqari, VII – VIII asrlarga tegishli Choch tangalarida sug'diy yozuvda "Choch hukmdori tudun" so'zlarining uchrashi[7] Turk xoqonligi tarkibida bo'lgan ushbu hukmdorlikda "tudun"lar boshqaruvi mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Abu Rayhon Beruniyning "Osor ul-boqiyva" asarida "tudun" islomdan oldingi Shosh hukmdorlarining unvoni sifatida keltirilishi[8] ham ushbu atama ilk o'rta asrlarda ancha yuqori mavqega ega amaldorlar, hatto hukmdorlar uchun ishlatilgan unvon bo'lganini ko'rsatadi. "Devonu lug'ati-turk"da esa "tuzun" (tudun) "qishloq oqsoqoli, mirob" deb tilga olinishi oradan besh yuz yil o'tgach ushbu unvonning birmuncha o'zgarishga uchragan va endilikda bu atama qishloq boshqaruvchisi darajasiga tushgan, deb qarashga imkon beradi.

Qadimgi turklarga xos qishloq tizimi bilan bog'liq yana bir so'z "chuban" (cho'pon) atamasidir. "Devonu lug'ati-turk"da "chuban" so'ziga "qishloq oqsoqolining yordamchisi" deb izoh berilgan[9]. Ko'rinishidan bu atama "tuzun"dan birmuncha quyi

turgan bo'lib, Mahmud Qoshg'ariy har ikkala so'zni asarining yaqin sahifalarida tilga olishi va ularga farqli ma'nolar berishi bu fikrimizni tasdiqlaydi: "tuzun - qishloq keksasi, oqsoqoli, suv taqsimlovchi, mirobi" va "chuban - qishloq oqsoqolining yordamchisi".

"Tudun" atamasi kabi "chuban" atamasining kelib chiqishi Turk xoqonligi davriga borib taqalib, ilk ma'nosi birmuncha keng bo'lgan. Masalan, ilk o'rta asrlarga tegishli xitoy yilnomalarida "chuban" (cho'pon) so'zi xoqonlikning boshqaruvida xos unvonlardan biri sifatida uchrab, ulardan anglashilicha, G'arbiy Turk xoqonligining ikkala tayanch qanoti – har biri 5 tadan yirik turkiy urug'ni o'z ichiga olgan Dulu va Nushibi qabilalar ittifoqidagi urug' boshliqlari ega bo'lgan unvonlardan biri "chuban" bo'lgan. So'1 qanotni tashkil etgan 5 ittifoqchi Dulu urug'idan beshinchi urug'ining boshlig'i Shunishi chuban chjo (\*Sunguz? cho'pon-cho'r) degan unvonga ega bo'lganidek, o'ng qanotni tashkil etgan 5 ittifoqchi urug'dan iborat Nushibi qabilalar ittifoqining beshinchi urug'i boshlig'i Geshu chuban sigin (\*Qo'shu cho'pon-erkin) unvoni bilan ish yuritgan[10]. Bundan ko'rinadiki, Turk xoqonligi davrida "cho'pon" atamasi xoqonlik boshqaruv tizimiga xos muayyan bir unvon bo'lgan bo'lsa, rivojlangan o'rta asrlarga kelib, bu unvon o'zining oldingi mavqeini yo'qotib, "qishloq oqsoqolining yordamchisi" darajasiga tushgan.

Rivojlangan o'rta asrlarga kelib qadimgi turklarda qishloq tizimi ancha takomillashib ketganini tasdiqlaydigan yozma ma'lumotlar uchrab, ular orasida Mahmud Qoshg'ariy keltirib o'tilgan quyidagi dalillar diqqatni o'ziga tortadi: "chatba – ariq qazishga, to'g'on bo'g'ishga chiqmaganlardan qishloq oqsoqoli oladigan soliq (chigilcha)"[11]. Ushbu ma'lumotdan ko'rinadiki, qadimgi turk qishloq jamoasining majburiyatlaridan biri vaqti-vaqti bilan ariq qazish, to'g'onlarni bo'g'ish kabi vazifalardan iborat bo'lgan.

Qadimgi turk jamiyatida soliqlar bilan birga mehnatga yarasha haq to'lash tizimi ham yo'lga qo'yilgan. Qadimgi uyg'ur, aniqrog'i, eski turk yozuvidagi turli yuridik hujjatlarda va turli lug'atlarda uchraydigan ayrim atamalar bundan darak beradi. Masalan, "Devonu lug'ati-turk"da "terchi – muzd, ish haqi oluvchi", "manchu – faqat kosiblarning ish haqi, boshqalarniki emas" mazmunidagi ma'lumotlar uchraydi[12]. Bundan ko'rinadiki, qadimgi turklar xo'jalik hayotida ish haqi berishning ham turlari mavjud bo'lib, ular kasb-korga ko'ra farqlangan holatlarga ham duch kelingan.

Yuqorida qadimgi turklarning ko'chmanchi toifalarida muayyan aholi guruhi yashaydigan joy sifatida "ovul"lar haqida qisqacha aytib o'tildi. "Urug'doshlar jamoasi" ma'nosidagi qadimgi turkcha "o'g'ush" (oila, urug') so'zi bilan aloqador "ovul" atamasiga aloqador bir qator so'z va iboralar yozma manbalarda saqlanib qolgan. Aholining bunday birlashmalarining eng oliy ko'rinishi "el" (davlat) edi. O'rxun-Enasoy bitiktoshlaridan ma'lum bo'lishicha, qadimgi turklarda «davlat» ma'nosida «el» atamasi qo'llanilgan[13]. Xoqonlikdagi qabilalar ittifoqi – turk qara qamag' budun "Turk (xoqonligi) fuqarosi" bud (qabila) va o'g'ush (urug')lardan tashkil topgan bo'lib, siyosiy jihatdan «el»ga uyushgan edi. Qabila-urug' uyushmasi (budun) va harbiy-ma'muriy tashkilot (el) puxta va mustahkam ijtimoiy munosabatlar bilan o'zaro bir-birini to'ldirardi. O'rxun bitiktoshlaridan birida uchraydigan ibora bilan aytganda xoqon «el (davlat) tutib turgan va xalqni boshqarar»[14] edi.

"El"ning eng kichik ma'muriy bo'linishi bo'lgan ko'chmanchilar ovuli o'tovlardan, boshqacha qilib aytganda "keraga" uylardan tashkil topgan edi. Bu borada Mahmud Qoshg'ariy keltirgan quyidagi ma'lumot diqqatga sazovordir: "Keragu – chodir. Turkmanlar tilida. Lekin ko'chmanchilar nazdida bu qishki uydur. Maqolda shunday kelgan: ko'k kirdi, keragu yazti - mehnat va mashaqqat ko'rdi-yu o'tovini orqalab oldi"[15]. Turkiy xalqlarda "keraga" so'zi ko'pincha o'tovning bir qismiga, uning butlovchi qismlaridan biri – o'tovning gardishga o'xshash devoriga nisbatan aytilsa-da, ilk va rivojlangan o'rta asrlarda bu so'z ko'proq "o'tov, chodir" ma'nolarini bildirgan. Jumladan, qadimgi turk bitiktoshlarida "kidiz keragulik budun" so'zlari uchrab, lug'aviy jihatdan "kigiz va keragalik xalq", ya'ni "kigizli va o'tovli" uylarda yashovchi aholi – ko'chmanchi hayot kechiruvchilar degan ma'noni bildirgan[16].

Xitoy manbalarida Turk xoqonligining asosiy kuchini tashkil etuvchi turkiy qabilalarning ko'pchiligi kigiz chodirlarda yashovchi, yaylov va suvli joylarni qidirib ko'chib yuruvchi, go'sht ko'p iste'mol qiladigan va qimiz ichadigan ko'chmanchi chorvadorlar sifatida tasvirlanib, bosh mashg'ulotlari chorva boqish va ovchilik ekanligiga urg'u beriladi[17].

**Xulosa va takliflar.** Xullas, Markaziy Osiyoning qadimgi aholisi orasida mavjud bo'lgan qishloq tizimi va u bilan bog'liq an'analar bilan tanishib chiqish shuni ko'rsatadiki, mintaqaning ham

sharqiy eroniy, ham turkiy aholisi o'zining muayyan tizimlariga ega bo'lganlar. Buni qishloqlar va ular bilan bog'liq atamalarining har ikkala xalq tilida o'ziga xoslik kasb etgani va bir-biridan anchagina farq qiladigan so'zlar ishlatilgani tasdiqlab turibdi. Muhimi shundaki,

turkiy xalqlar ko'chmanchilikdan o'troqlikka o'tish jarayonida o'z tillariga xos atamalar yaratganliklari va qishloq tizimida yot atamalardan deyarli foydalanmaganliklari ko'zga tashlanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: O'zbekiston, 2015. – Б. 77-79.
2. Гениинг В.Ф., Зданович Г.Б., Гениинг Б.В., Синташта. Археологические памятники арийских племен Урало-Казахстанских степей. Челябинск., 1992; Зданович Д.Г. Могильник большекараганский (Аркаим) и мир древних индоевропейцев Урало-Казахстанских степей, Челябинск, 1995; Зданович Г.Б. Батанина И.М. «Страна городов» - укрепленные поселения эпохи бронзы XVIII-XVI вв. до н.э. на Южном Урале. Челябинск, 1995; Зданович Г.Б. Бронзовый век Урало-Казахстанских степей. Свердловский, 1988.
3. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: O'zbekliston, 2015. – Б. 78-79.
4. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Б. 109.
5. Кошгарий, Маҳмуд. Туркий сўзлар девони (Девону-луғот ит-турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. 3 томлик. – Ташкент: Фан, 1960–1963. 1- том. – Б. 38.
6. Согдийские документы с горы Муг. Чтение, Перевод. Комментарий. Вып. II. Юридические документы и письма / Чтение, перевод и комментарий В.А. Лившица. М., 1962. – С. 79.
7. Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса VI–VIII вв. – Ташкент, 2007. – С. 52-63.
8. Абу Райхан Бируни. Памятники минувших поколений / Перевод с арабского и примечания М.А. Салье // Бируни. Избранные произведения. Т. 1. – Ташкент, 1957. – С. 111.
9. Кошгарий, Маҳмуд. Туркий сўзлар девони (Девону-луғот ит-турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. 3 томлик. – Т.: Фан, 1960–1963. 1- том. – Б. 382.
10. Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. М.- Л., 1950-1953. Том I. – С. 289.
11. Кошгарий, Маҳмуд. Туркий сўзлар девони (Девону-луғот ит-турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. 3 томлик. – Тошкент: Фан, 1960–1963. 1- том. – Б. 393.
12. Кошгарий, Маҳмуд. Туркий сўзлар девони (Девону-луғот ит-турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. 3 томлик. – Тошкент: Фан, 1960–1963. 1- том. – Б. 394-395.
13. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент, 1982. – Б. 71, 77, 101–103, 126, 129.
14. Марков Г. Е. Кочевники Азии. – М.: Изд-во Московского университета, 1976. – С. 47–48.
15. Кошгарий, Маҳмуд. Туркий сўзлар девони (Девону-луғот ит-турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. 3 томлик. – Т.: Фан, 1960–1963. 1- том. – Б. 418.
16. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент, 1982.
17. Liu Mau-Tsai. Çin kaynaklarına göre Doğu Türkleri. Çeviri E. Kayaoğlu, D. Banoğlu. – İstanbul, 2006. – S. 20.



UDK:0:9(58)338:297.930.(584.4)

*Shahodat MATYAKUBOVA,*  
*Urganch Ranch texnologiyalar universiteti o'qituvchisi*  
*E-mail: hamdamtarix@gmail.com*

*Urganch davlat universiteti professori K.Sabirov taqrizi asosida*

## THE DESCRIPTION OF THE KHOREZM STATE IN WRITTEN SOURCES FROM THE 5TH-8TH CENTURIES AND ISSUES OF ITS INTERPRETATION

Annotation

The article analyzes the accounts of the Khorezm state in written sources from the 5th-8th centuries and the issues surrounding their interpretation in various sources.

**Key words:** Khorezm, Afrighids, "Khvalis," Chagan, "Shaoshifin," HAEE, reverse, "Khan Dynasty," "Great Yuezhi," "Zhao-wu," Kushania.

## ОПИСАНИЕ ХОРЕЗМСКОГО ГОСУДАРСТВА V-VIII ВЕКОВ В ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКАХ И ВОПРОСЫ ЕГО ИНТЕРПРЕТАЦИИ

Аннотация

В статье анализируются описания государства Хорезм V-VIII веков в письменных источниках и проблемы их интерпретации в различных источниках.

**Ключевые слова:** Хорезм, Афригиды, "Хвалис," Чаган, "Шаошифин," ХАЭЭ, реверс, "Дом Кан," "Большие юэцжи," "Чжао-ву," Кушания.

## V-VIII ASRLARDA XORAZM DAVLATINING YOZMA MANBALARDAGI BAYONI VA UNING INTERPRETATSIYASI MASALALARI.

Annotatsiya

Maqolada V-VIII asrlarda Xorazm davlatining yozma manbalardagi bayoni va uning turli manbalarda sharhlash masalalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Xorazm, Afrig'iylar, "Xvalis", Chag'on, "Shaoshifin", XAEE, revers, "Kan xonadoni", "Katta yuechjilar", "Chjao-vu", Kushoniya.

**Kirish.** Mil. avv I mingyillikning birinchi yarmida, aniqrog'i mil. avv VII asrlardayoq O'zbekiston hududida davlatchilik asoslari qadimgi Xorazmda qaror topgan. Ushbu haqiqatni, faqat o'zbek xalqi bilan bog'lanmagan holda, chet ellik olimlar ham tan olganlar. Ular qatoriga biz V.Makvart, S.Tolstov, Kisseling, I.Dyakonov, M.Vorobyova, B.Vaynberg va boshqa olimlarni kiritishimiz mumkin [1]. Xorazm vohasi shunday xosiyatli bir yurtki, uning har qanday odamni ham o'ziga tortadigan beqiyos sehri, jozibasi bor. Chunki, Xorazm deganda, jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, milliy davlatchiligimizning tamal toshi qo'yilgan betakror bir o'lka ko'z oldimizga keladi [2]. Xorazm davlatining milodiy V-VIII asrlari tarixi muammoli davrlardan biri hisoblanadi. Bu davr haqida ma'lum bir yozma manbalarda ma'lumotlar saqlanib qolgan bo'lsada, ular yetarlicha emas, chunki arablar bosqini davrida ularning aksariyat qismi yo'q qilingan. Shu sababdan bu davrga oid mavjud yozma manbalarni tahlil qilsak, ular turli tillarda, ya'ni yunon, xitoy, fors, arman, arab manbalari, shuningdek, mahalliy tilda yozilgan manbalarda ham saqlanib qolgan. Saqlanib qolgan yozma manbalarni tahlil qilish ilk o'rtalarda Xorazm davlatida kechgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy turmush tarzini baholashga imkon beradi. Bu tahlilda arxeologik tadqiqot ishlarining ham ahamiyati katta. Maqolada V-VIII asrlarda Xorazm davlati tarixining yozma manbalarda aks etishi tahlil qilinadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Xorazm davlatining V-VIII asrlarda arxeologik, epigrafik, numizmatik va shu davrda yashab o'tgan tarixshunoslar asarlari asosida olib borilgan olimlar faoliyatlarini natijasida yozilgan adabiyotlarda qayd qilingan tarixiy ma'lumotlar tahlil qilingan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqola umumlashtirish, tarixiylik, qiyosiy – mantiqiy tahlil, xronologik izchillik, asoslash, arxeologiya, numizmatika, manbashunoslik fanlari natijalaridan foydalanish tamoyillari asosida yoritilgan.

**Tahlil va natijalar.** Xorazm davlatining milodiy V-VI asrlarga oid yozma manbalarda deyarli ma'lumotlar saqlanmagan. Bu davr tarixi arxeologik va numizmatik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotchilar tomonidan Xitoy manbalarining tahlil qilinishi natijasida o'sha davrda Xorazmda hukmron bo'lgan sulola vakillari haqida ma'lumotlar aniqlangan. Xitoy manbalarida "Xorazm" – "Xosyun", "Xolisimi" tarzda berilgan. Xitoy manbalaridan "Bey-shi"-Shimoliy sulola tarixi, "Suy-shu" - Suy

sulolasi tarixi va "Tan-shu"-Tan sulolasi tarixida O'rta Osiyodagi barcha davlatlar va ularning mulklari haqida ma'lumotlar berilgan. Ularning nomlari sanab o'tilgan. Xorazm, ya'ni Xolisimi chekka hudud tarzda talqin qilingan. Tadqiqotchilar xitoy yozma manbalaridagi ma'lumotlarni tahlil qilib, ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo hududida shakllangan davlatlarni bir urug'ga mansub sulola uzoq vaqt boshqargan degan xulosani berishgan. Bu ma'lumotni "Tan-shu" yilnomasi asosida I.Bichurin quyidagicha bergan: "An (Buxoro), Sao (Kabudon), Shi (Choch), Mi (Maymurg'), Xe (Kushoniya/Kattaqo'rg'on), Xosyun (Xorazm), Shishi (Kesh). Bu sulolalarning hammasi Chjao'vu deb ataladi [3]. Bu ma'lumotlarni talqin qilgan tadqiqotchilar ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo hududida mavjud bo'lgan hokimlarni bir-biriga qarindosh bo'lgan etnik kelib chiqishi umumiy bo'lgan sulolalar boshqargan degan xulosaga kelganlar. Ular, ya'ni yuechjilar sulolasining nomini saqlab qolganlar. O'rta Osiyoga kirib kelgan yuechjilar - dayuechji - "katta yuechjilar", Sharqiy Turkistonda qolgan qismi "kichik yuechjilar" deb atashgan. Yuechjilar turkiy qabilalar bo'lib, rus manbalarida ularni "toxtarlar" deb atashgan. A.Otaxo'jaev tadqiqotida chjouvu (chjao-u) larni Kan xonadoni vakillari deb ko'rsatib, ulardan Samarqand ixshidlari sulolasi, Buxoro, Xorazm, Kushoniya, Marv kabi mulklarning hukmdorlari yetishib chiqqan. Bu sulolaning 22 vakili 400 yil davomida Buxoroni, Kan sulolasining Samarqand tarmog'i esa milodning I asridan Kushoniya, Ishtixon, Kesh, Naxshab, Ustrushona, Choch, Xorazm, Farg'ona va Amudaryo janubidagi mulklarni boshqargan. Sug'dcha bu xonadon yn kwtr'k – "Kan xonadoni", deb atalib, "Bey shi", "Suy shu", "Tan shu"larga ko'ra, ular G'arbiy Turk xoqonligi sulolalari bilan qarindosh bo'lgan hamda O'rta Osiyo mahalliy aholisi orasida assimilyatsiyalashib, sharqiy eroniy (sug'diy) muhit ta'siriga tushgan [4]. "Chjao-vu" so'zini ba'zi olimlar boshqacha talqin qilishadi, ya'ni bu turkiylarda hokim, ya'ni "yabg'u" degan ma'noni beradi degan fikrni berishadi [5]. Sh.Kamoliddinov ham shu masalani tahlil qilib, u ham bu urug'ning alohida tarmoqlari Samarqand, Buxoro, Kushon, Ishtixon, Kesh, Naxshab, Ustrushona va Shoshni boshqargan degan fikrni beradi. Bu urug'ning hukmronlik davri kushonlar davriga borib taqalishini alohida ta'kidlaydi. Xitoy yozma manbalarida bu hukmron xonadon yuechji oilasidan boshlangan, ular dastlab Silyan-Shan tog'ining shimoliy tomonidagi Chjao-vu shahrida istiqomat qilganlar. Xunlardan yengilgach, Tyan-Shan tog'ini kechib o'tib, g'arb tomonga ketishdi va u yerda ko'p hukmdor xonadonlarga ajralgan



holda, o'zlarining podsholigini tashkil qilishdi, ular o'zlarining kelib chiqishiga qarab, Chjao-vu deb nomlashgan [6]. Bu fikrni numizmatik materiallar ham tasdiqlaydi. Barcha hududlardan topilgan tangalaridagi tamg'alar bir-biriga o'xshash. Sug'dda to'rtta yirik urug' bo'lib, ularning tangalardagi tamg'alari kushon tangalaridagi tamg'alarga o'xshaydi [5].

Vizantiya imperiyasida hujjatlar yunon yozuvi va tilida yuritilgan. Vizantiya manbalarida Turk xoqonligi bilan olib borilgan elchilik munosabatlari haqida yozib qoldirilgan. 568 yilda Turk xoqonligi Vizantiyaga o'z elchisini yuborib, bosib olgan hududlari haqida ma'lumot bergan va ular bilan elchilik munosabatlarini o'rnatganlar. 570 yillarda Vizantiya elchilari Turk xoqonligiga tashrif buyurishgan. Ular Turk xoqonligidan unga qaram bo'lgan davlatlardan ham elchilarni yuborishni so'raganlar. Shunda Turk xoqoni faqat "Xvalis"liklarga elchi yuborishga ruxsat berganligini aytgan. Tadqiqotchilar fikricha "Xvalis" bu Xorazm davlati bo'lib, u Turk xoqonligiga rasman bo'ysungan, davlatni erkin boshqargan. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asrida VIII asrda Xorazm tangalari Buxoroning mahalliy tangalarini ham siqib chiqargan deb yozib qoldirgan.

Ilk o'rta asrlar manbalari orasidan arab yozma manbalarida Xorazmning arablar tomonidan bosib olinishi jarayoni bo'yicha ko'proq ma'lumotlar mavjud. Bular At-Tabariy, Narshaxiy, Maqsidiy asarlarida mavjud. Ularda Qutayba ibn Muslim tomonidan Xorazmning egallanish jarayonlari bayon qilingan. At-Tabariy asarida 712 yilda Qutaybaga qarshi jang qilgan Xorazmshoh ismi Chag'on bo'lgan deb ko'rsatilgan. Uning ukasi Xurzod bilan qarama – qarshiliklari haqida ham yozib qoldirgan. Aynan shu Xorazm davlatidagi siyosiy kurash davlatning zaiflashuviga va arablarga qaram bo'lib qolishiga olib kelgan. XIII asr tarixchisi Ibn al Asir "93 (712) yilda Qutayba va xorazmshoh bir-biri bilan sulh tuzdilar, bunga xorazmshohning zaiflashgani sabab bo'ldi" deb ko'rsatgan [7]. At-Tabariyda davlatda sodir bo'lgan voqealar ham bayon qilingan. Xurzod Chag'onning odamlari ustidan zo'rvonlik qilib, qimmatbaho narsalari tortib olganliklaridan shikoyat qiladilar. Chag'on esa, Xurzodga qarshi kurashishga kuchini yetmasligini aytadi. Ukasi Xurzodga qarshi kurashish uchun u yashirincha Qutayba ibn Muslim bilan muzokara olib boradi. Chag'on Qutaybaga itoat etishni va katta boylik va'da qilgan. Shundan keyin Qutayba o'zini Sug'dga yurish boshlashga ahd qilganligi haqida ovoza tarqatgan. Ibn al Asir asarida undan keyingi voqealar bayoni bor. Xurzod bu xabarni eshitgach, tinchlanib, odamlarini uy-uyiga tarqatib yuborgan: "Bu yil Qutayba Sug'dga yurish qilarkan, biz xotirjam o'z ishimiz bilan mashg'ul bo'laylik" deb aytgan. Qutayba esa, kutilmaganda mingta otlig askar bilan Chag'on yoniga, Fil shahriga kelgan. Xorazmliklar arablarni ko'rib, cho'chiydilar va Xurzodni yordamga chaqiradilar. Xurzod arablarning kirib kelishida Chag'onning ishtiroki borligini angelaydi. Xurzod imkon boricha qo'shin to'plab, Qutayba bilan jang qiladi. Xurzod Qutaybaga asir bo'lib qoladi. Xorazmshoh Chag'on Xurzodni o'ldirib, uning odamlarini jazolashga ham yordam berishni so'ragan. So'ngra Xorazmga tez-tez hujum qilib turgan Hamjird shahri hokimi bilan kurashishga ham yordam berishini so'ragan. Ibn al-Asir yozishicha, Qutayba Xorazmni butunlay bosib olishga qaror qilgan. 712 yilda Xorazm hududida o'z hukmronligini o'rnatgan. Qutayba ibn Muslim 712 yilda Xorazmni bosib olgach, Xorazmshohga pul va mol-mulkdan tashqari 10 ming ba'zi manbalarda 100 ming odamni qul sifatida berish talabini qo'ygan [8]. Qutayba Xorazmda o'z noibi o'rnatib, qaytib ketgach, u yerda yana g'alayonlar boshlangan. Shundan keyin Qutayba qayta Xorazmga Mug'ayra bin Abdulla boshchiligida katta qo'shinini yuborgan. Mug'ayra Xorazmni qayta bosib olib, ko'p kishilarni qirib tashlagan, ko'plarini asir olgan, qolganlari jizya to'lashga rozi bo'lgan. Xorazmshoh Chag'on Qutayba huzuriga qochib kelgan, Qutayba uni Nishopurga hokim qilib tayinlagan [7].

Belazuriyidagi ma'lumotga ko'ra, boshqacha fikr berilgan. Qutayba Xorazmga yurishidan keyin taxtga Chag'onni qo'yib ketadi. Bundan norozi bo'lgan xorazmliklar uni o'ldirganlar. Qutayba esa, taxtga Chag'onning o'g'li Askajamuqni qo'yib, uning sulolasini saqlab qolgan. Ular Xorazm davlati boshqaruvida nomigagina shoh nomi bilan yurishgan. Aslida hokimiyatni xalifalikning Xuroson noibi tomonidan amirlar boshqargan. Askajamuq Katda o'tirgan bo'lsa, noib dastlab Mizdaqonda, keyinchalik Gurganchda o'tirgan.

Abu Tohir Tortusiy asarida Abu Muslim haqida gapirib, xorazmshohning topshirig'iga muvofiq uning jiyani va o'g'li boshchilik qilgan xorazmliklar armiyasi Abu Muslimning asosiy tayanchi bo'lganligi yozib qoldirgan. Bu ma'lumot xorazmliklarning arablar hukmronligiga qarshi harakatda bo'lganligini ko'ramiz.

Ummaviylarga qarshi kurashgan Abu Muslimni qo'llab quvvatlaganlar. Undan keyingi davrlarga oid yozma manbalardagi ma'lumotlar topilmagan.


Xitoy yilnomasida 751 yilda Xorazm hokimi Shaoshifin Xitoy imperatori saroyiga o'z elchilarini yuborganligi haqida ma'lumot bor. "Shaoshifin" nomi Abu Rayxon Beruniy asarida Shovshafar deb ko'rsatilgan. 762 yilda esa, Baolin hukmronlik qilgan vaqtda ikkinchi elchi keldi deb yozib qoldirilgan. Tadqiqotchilar fikricha, bu davrda Xorazmda afrig'iyalar sulolasi hukmronlik qilgan [9].

Xorazm vohasidan ilk o'rta asrlarga oid yodgorliklardan topilgan tangalardagi yozuvlar ham lingvistlar tomonidan o'qilgan va yozma manbalardagi ma'lumotlar bilan solishtirilgan. VIII asrning o'rtalarga oid bo'lgan tangada kursiv yozuvi asosida yozilgan so'zni to'liq o'qish imkoni bo'lgan. Tadqiqotchilar uni "Shaushafar" deb o'qishgan. Bu Beruniy asaridagi va xitoy yozma manbasidagi berilgan ismga mos bo'lgan [10]. Milodiy VI asrning oxirida Abu Rayhon Beruniy ma'lumoti bo'yicha, Shaush hukmronlik qilgan deb ko'rsatilgan. Shu davrga oid tangalarni o'rgangan tadqiqotchilar uni "Suyavush" formatida o'qishgan [10].

Milodiy VII asrning birinchi yarmiga oid kumush tangalarda kursiv yozuv bo'lmaganligi sababli XX asrning 60-yillarida podsholarning ismini o'qish munozarali bo'lib qolgan. Mis tangalarda esa, faqat "hurmatli Xorazm shohi" so'zini o'qish imkoni bo'lgan. S.P.Tolstov boshchiligida ekspeditsiya a'zolari tomonidan qadimgi va ilk o'rta asrlarga oid topilgan tangalar tahlili natijasida Xorazmning oromiy yozuv asosida shakllangan alifboini tuzib chiqishgan. Shu alifbo asosida kumush kosalaridagi yozuvlarni ham o'qish imkoni tug'ilgan. Bu o'sha davr Xorazmning qadimgi va ilk o'rta asrlar davri tarixini o'rganishdagi eng katta yutuq'i hisoblangan.

Xorazmda arablar bosqinidan oldin hukmronlik qilgan podshoning ismi "Askajamuq" bo'lgan [11]. Tadqiqotchilar bu ismni tahlil qilib, O'rta Osiyoning boshqa hududlarida ham shunday ismli shaxslar va shu nomda urug' borligi, bu xitoy manbalarida ham tilga olinganligini e'tiborga olib, ilk o'rta asrlarda katta yerlarning egalari bo'lishgan degan xulosani berishgan [12]. Xitoy manbalarida bu nom "chjao-vu" deb berilgan.

Turk xoqonligi davriga kelib, ba'zi hududlardagi hokimlar Ashina sulolasi vakillari bilan almashingan. Bu urug'ga oid hukmdorlar saroylarda yashaganlar. A.M.Belinskiy fikricha, ularning ham an'analari kushonlarga borib taqaladi [13]. V-VI asrlarga oid tangalarning old tomonida podsho soqolsiz tasvirlangan, uning orqa

tomonida  shaklidagi tamga bosilgan. Bu tamga eftaliylarning tamgasiga o'xshash bo'lib, S.P.Tolstov va boshqa tadqiqotchilarning fikricha, eftalitlarga va kushonlarga o'sha davrdagi Xorazm shohlari qarindosh bo'lgan deb ko'rsatishgan [10]. N.Veselovkiy ham eftalitlar davlatining shakllanishida Xorazm ta'siri bo'lgan degan g'oyani ilgari surgan [14]. Kerder shahri kidariylarning qarorgohi bo'lganligi, Kerder degan nom kidariylar tomonidan berilganligini ko'rsatgan. Shu bilan birga Muqaddasiyda ikkita Kerder haqida ma'lumot berganligini aytib o'tgan. Birinchi Kerder Amudaryoning o'ng tomonida joylashgan, ikkinchi Kerder chap qirg'og'ida joylashgan bo'lib, Kederan Kas deb atalgan. Shu bilan birga qirg'izlarda ham kerder nomli urug' bo'lgan. Tangalardagi tamg'alarining o'xshashligi ilk o'rta asrdagi xorazmshohlarning eftaliylar sulolasi tarkibiga kirganligini asoslashga imkon beradi.

1937 yilda XAEYE tomonidan o'ng qirg'oq Xorazm hududidan III-VIII asrlarga oid 150 ga yaqin tangalar topilgan. Tangalarning asosiy qismi misdan bo'lib, ular mahalliy iste'mol uchun Xorazmning o'zida zarb qilingan.

Tangalarni o'rganish asosida tadqiqotchilar quyidagi xulosalarni berishgan:

Xorazm tangalaridagi tamg'alarni o'rganish Abu Rayxon Beruniy tomonidan ko'rsatilgan xorazmshohlardan asosan bir sulolaning humronligi uzluksiz davom etganligini yozib qoldirgan ma'lumotlari to'g'ri ekanligini asosladi. Bu nafaqat tangalar asosida, balki arab manbalari asosida ham o'z isbotini topgan. Afrig'iyalar davrida ular butun Xorazm vohasini boshqarganlar. Xorazm vohasida davlat boshqaruvi Sug'd davlati boshqaruvidan farq qilgan. Xorazmda shahar-davlatlarning konfederatsiyasi asosida boshqarilgan, davlat yagona davlat sifatida doimo manbalarga tilga olingan [10]. Xitoy yozma manbalarida shu tarzda berilgan.

Tangalarning ishlanish uslubi va ulardagi tamg'alarni o'rganish asosida Xorazmda hukmron bo'lgan sulolaning kelib chiqishi yuechjilar bilan bog'liq bo'lgan. Afrig'iyalar tamg'alari mil.

avv. I asrga va milodiy eraning dastlabki asrlaridagi Kushonlarning tamg'alariga o'xshash bo'lgan.


Kosalaridagi tasvirlar Xorazm va Baqtriya o'rtasida mustahkam aloqalar borligini ko'rsatgan.

Xorazmning III-VIII asrlarga oid tangalarining va Xorazm kumush kosalarining Prikamedan topilishi Xorazmning sharqiy Yevropa bilan ham iqtisodiy aloqalar olib borganligini ko'rsatadi.

Xorazm tangalarida VIII asrgacha qadimgi tasvirning saqlanib qolishi ilk o'rta asrlarda ham Xorazm o'zining qadimiy urf odat va an'analarini saqlab qolganligini ko'rsatadi. O'sha davrda Eron sosoniylari tasiriga tushmasdan, o'zining qadimiy urf odat va an'analariga sodiqligicha qolgan.

Qadimgi Xorazm yozuvi milodiy VIII asrgacha yetib kelgan. Xorazmliklar oromiy yozuvini Markaziy Osiyodagi ko'chmanchi qabilalarga yetkazishda oraliq masofani egallashgan.

Teshikqal'aning xronologiyasini tadqiqotchilar numizmatik manbalar asosida aniqlashgan. Uning ikkinchi qurilish bosqichida ikkita hukmdor davrida faoliyat olib borilgan degan xulosaga kelishgan. Ikkita hukmdorga oid tangalar topilgan. Tangalardan birida hukmdor zinasimon tishli tojda tasvirlangan. Tanganing reversida Shaushafar shoh ismi yozilgan. Shaushafar VIII asrning birinchi yarmida hukmronlik qilgan. Reversning markazida chavandoz rasmi tushirilgan, chap tomonida Afrig'iylar sulolasiga oid oddiy tamg'a tushirilgan. Ikkinchi tangada ham tasvirlar bir xil, ya'ni hukmdor zinasimon tishli tojda aks ettirilgan, lekin hukmdorning tashqi ko'rinishi oldingi tangadagi tasvirdan farq qiladi. Tanganing orqa

tomonida  shu shakldagi tamg'a bosilgan, uning atrofidagi yozuvlarni esa, tadqiqotchilar tomonidan o'qilmagan, chunki yozuv nihoyatda yomon saqlangan. S.P.Tolstov bu tangani VIII asr oxirida hukmronlik qilgan Abdulloh bo'lishi mumkin degan g'oyani ilgari suradi [9].

Xorazmning X asrga oid ma'lumotlari arab va eronlik geograflar Ibn Rusta, Al Istaxriy, Ibn Xavqal, Maqdisiy, "Hudud-al Olam" asarlarida geografik ma'lumotlar berilgan. Amudaryo irmoqlari, undan chiqarilgan kanallar, ularning atrofidagi shaharlar, kanallar, yo'llar, xalqning turmush tarzi va madaniyati haqida ham ma'lumotlar berilgan.

IX-X asrlarga oid arab manbalarida arablar bosqini davrida ko'plab qo'rg'onlar bo'lganligi ko'rsatilgan. Yozma manbada ular "xisn" va "qasr" tarzda ifodalashgan. Ular shaharlar atrofida tarqoq holda joylashgan. Ular bir-biridan 200 m masofada joylashgan va 34 km<sup>2</sup> maydonni egallagan. Har bir qo'rg'onning atrofi devor bilan o'rab olingan. Arab tarixchisi Al-Maqdisiyning ma'lumotiga ko'ra Mizdakhon atrofida ilk o'rta asrlarda 12 mingta qo'rg'onlar bo'lgan [15].

Ilk o'rta asrlar boshqa hududlarda ham shunday ko'p sonli qasr-ko'shklar bo'lganligi haqidagi ma'lumotlar yozma manbalarda yozib qoldirilgan. Jumladan, Istaxriy Buxoro atrofidagi ariqlar bo'ylab to'rt mingga yaqin qo'rg'onlar bo'lgan deb ko'rsatsa, Narshaxiy arablar tomonidan ko'chirib yuborilgan kushon savdogarlari Buxoro atrofida 700 ta qo'rg'on qurganliklari yozgan. Yoqubiy Ustrushonada 400 ga yaqin qo'rg'onlar bo'lganligi haqida ma'lumot bergan. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida bunday qo'rg'onlar haqida to'liq ma'lumot berilgan.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin.

Xorazmning ilk o'rta asrlardagi tarixiga oid yozma manbalarning aksariyati Xorazmni arablar tomonidan bosib olingan vaqtda yo'q qilingan. O'tmish tarixning shu tariqa butunlay yo'q qilinishi ko'plab voqealarning izsiz yo'qolishiga olib kelgan. Shu sababli Xorazm tarixining islomgacha bo'lgan davrini ko'proq darajada numizmatik, arxeologik, epigrafik manbalar asosida o'rganishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tarixiy manbalar asosidagi ma'lumotlarga ko'ra V-VIII asrlarda Xorazmda Afrig'iylar sulolasi hukmdorlari "xorazmshoh" unvonida hukmronlik qilishgan.

Afrig'iylar davlati davrida Xorazmda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, etnik jarayonlar rivojlanib, aholining vujudga kelgan madaniyatida o'z aksini topdi. Bu davrda Xorazmda ayniqsa dehqonchilik, hunarmandchilik yuqori darajada rivojlandi.

Xorazm shaharlarining muhim savdo yo'llarida joylashganligi, davlat iqtisodiy qudratini yuksaltirgan omillaridan biriga aylangan.

Arablar bosqiniga Xorazm madaniyati hech qanday tashqi ta'sirga uchramagan va o'z qiyofasini saqlab qolgan.

#### ADABIYOTLAR

- Ziyo A. O'zbek davlatchiligi tarixi – Toshkent.; "Sharq", 2000.
- Mirziyoyev Sh. Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi. 14.10.2017.
- Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Том II. – М. – Л.: Изд-во АН СССР. 1950.
- Отаҳўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-сўғд муносабатлари. Монография. –Тошкент. ART-FLEX, 2010.
- Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. М.: Наука, 1970. -С. 33, 36; Малявкин А.Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии. -Новосибирск: Наука СО, 1989.
- Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена.
- Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи (Қадимги замонлардан хозиргача). – Тошкент: Фан, 1959.
- История ат-Табари / Пер. с араб. В.И. Беляева с допол. О.Г. Большакова, А.Б. Халидова. – Ташкент: Фан, 1987.
- Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко – археологического исследования. – Москва: МГУ, 1948.
- Толстов С.П. Монеты шахов древнего Хорезма и древнехорезмийский алфавит.//Вестник древней истории. 1938, № 4.
- Бируни Абу Рейхан. Памятники минувших поколений/Избранные произведения. I. Ташкент: Изд-во АН УзССР. 1957.
- Абу Бакр Мухаммад ибн Джафар ан-Наршахи. Тарих-и Бухара. История Бухары. Перевод, комментарии и примечания Ш. С. Камолиддина. Археолого-топографический комментарий Е. Г. Некрасовой. — Ташкент: SMIA-SIA.
- Беленицкий А.М. Среднеазиатское искусство предарабского времени и его связь с Кушанами//Центральная Азия в Кушанскую эпоху. Т. II. М.: ГРВЛ. 1975.
- Веселовский Н. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве. -СПб.1887.
- Ягодин В.Н. Ходжайов. Т.К. Некрополь древнего Миздакхана. – Ташкент: Фан, 1970.



UDK:930.1:913.1

*Abduqaxxor MAXMUDOV,*  
Namangan muhandislik-texnologiya instituti o'qituvchisi  
E-mail: [abdqaxxormaxmudov.2018@mail.com](mailto:abdqaxxormaxmudov.2018@mail.com)

NamDU dotsenti, PhD Y.Ortiqov taqrizi asosida

### FARG'ONA VODIYSI PICHQOCHILIK MARKAZLARI TURIZM TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI

Annotatsiya

Mazkur maqolada turizm taraqqiyotida Farg'ona vodiysining Chust, Shahrixon, Qo'qon, Andijon kabi pichoq milliy pichoqchilik markazlari faoliyati, ustalar tomonidan sayyohlar ehtiyojiga qarab tayyorlanadigan pichoq turlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek milliy pichoqlarga talabni oshirish maqsadida qadimda mavjud bo'lgan va keyinchalik yo'qolib ketgan uslublar qayta tiklangani xususida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Milliy pichoqchilik, dudama, dandon sopli, kerki sopli, qayqi, tol bargi, mardona, to'g'ri, kezlik, qozoqcha, rufta pichoq, suviner pichoqlar.

### THE ROLE OF FERGANA VALLEY KNIFEMAKING CENTERS IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM

Annotation

This article provides information on the activities of the national knife-making centers of the Fergana Valley, such as Chust, Shahrikhan, Koqan, Andijan, and the types of knives prepared by the masters according to the needs of tourists. Also, in order to increase the demand for national knives, there was talk about the restoration of styles that existed in ancient times and then disappeared.

**Key words:** National knives, dudama, tooth-handled, kerky-handled, kyqi, willow leaf, straight, kezlik, Kazakh, rufta knife, souvenir knives.

### РОЛЬ ЦЕНТРОВ НОЖЕСТРОЕНИЯ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ В РАЗВИТИИ ТУРИЗМА

Аннотация

В данной статье представлена информация о деятельности национальных центров ножевого изготовления Ферганской долины, таких как Чуст, Шахрихан, Кокан, Андижан, а также виды ножей, изготавливаемых мастерами в соответствии с потребностями туристов. Также с целью повышения спроса на национальные ножи было упомянуто, о возрождении существовавших в древности, а затем исчезнувшие стили и техника.

**Ключевые слова:** Национальные ножи, дудам, зубчатая рукоять, керкийская рукоятка, кыки, ивовый лист, мardona, прямой, кезлик, казахский, нож руфта, сувенирные ножи.

**Kirish.** Bugungi kunda xorijiy sayyohlarning yurtimizga qiziqishi yuqori darajada bo'lib, o'z o'rnida turizmning muhim yo'nalishlari hisoblangan ziyorat turizmi va etnoturizmning yanada rivojlantirishni talab etadi. "O'zbekiston dunyo xalqlari uchun ochiq" shiori asosida qadimiy shaharlarimizda "ochiq eshiklar siyosati" olib borilayotganligi xalqaro turizmning taraqqiy etishiga sabab bo'lmoqda[1]. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda e'tibor beradigan jihatlari mavjud. Bunda birinchi navbatda xorijiy davlatlardan keluvchi sayyohlarning yoshi va jinsiga qarab ularni dam olishi hamda sayohatini tashkilining oqilona tizimining zarurligidir. Sababi, yosh sayyohlar vaqtlarini mazmuni o'tkazishda dam olish maskanlariga, tarixiy shahar va arxeologik obidalar bo'ylab sayohat xush ko'rsa, katta yoshdagi sayyohlarga esa tabiat qo'nyida dam olish hamda arxeologik yodgorliklarni ko'rish, milliy hunarmandchilik mahsulotlarni xarid qilish, ulardan zavq olishga e'tibor qaratadi[2]. Odatda, milliy qadriyatlar va an'analar targ'ibotida etnoturizmning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan hunarmandchilik turizmi muhim ahamiyatga ega. Chunki, hunarmandchilik sohasini yuksaltirmay turib, turizm sohasini to'laqonli rivojlantirish mumkin emas [3].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbekistonda xususan Farg'ona vodiysida turizm rivojlanishi tarixiga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan T.Safarov, G'.Haydarov, M.Ortiqova, M.Mansurovlar o'zlarining asarlarida turizm tarixi va uning rivojlanishida milliy hunarmandchilikning tutgan o'rni xususida fikrlar berib o'tilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Xalqimiz o'zlarining pichoqchilik san'ati tarixida yirik bosqichlarni bosib o'tgan bo'lib, har bosqich o'ziga xos mintaqaviy xususiyatlar bilan farqlangan [4]. Har bir hududda mavjud pichoqchilik turlari o'ziga xos uslublar bilan ajralib turgan. Shu orqali nom qozonib, odamlarda qiziqish uyg'otadi. Masalan, Chust, Shahrixon, Qorasuv, Qo'qon va Andijon pichoqlari mashhur bo'lib, tayyorlangan mahsulotlarini zamon talabiga moslab, milliylik ruhini aks ettirib, mahalliy hamda xorijiy fuqarolarga taqdim etilmoqda.

Hunarmandchilik turizmning o'ziga xos taraflaridan biri shundaki, O'zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar hunarmandchilik

markazlariga tashrif buyurganda tayyor mahsulotlarni emas, balki ushbu mahsulotlarning tayyorlanish uslubini o'z ko'zi bilan ko'rish, qo'l mehnati jarayonini kuzatishga ham qiziqadilar. Shuni inobatga olib, Farg'ona vodiysining Rishton, Andijon, Marg'ilon, Qo'qon, Chust va Shahrixon kabi hunarmandchilik markazlarida usta hunarmandlar xonadonida uy muzeylari tashkil etilgan[5]. Masalan, hozirgi kunda vodiydagi pichoqchilik markazlarida ham 10 ga yaqin uy muzeylari tashkil etilgan bo'lib, bu yerga tashrif buyurgan mehmonlar uchun pichoq tayyorlash bo'yicha master-klasslar ko'rsatib berish yo'lga qo'yilgan.

**Tahlil va natijalar.** Turizmni rivojlanishida milliy pichoqchilikning ahamiyatini o'ttirish maqsadida sayyohlar talabiga moslab mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Bunda ustalar pichoqlarni 4 turga ajratib tayyorlash maqsadga muvofiq deb qaraydi:

1. Uy-ro'zg'orda ishlatiladigan pichoq turlari. Bularga "to'g'ri pichoq", "kezlik pichoq", "mardona pichoq", "qayqi", "tol bargi", "qozoqcha", "rufta pichoq"lar kiradi;

2. Sovg'a sifatida tayyorlanadigan noyob pichoqlar turlarini yasash. Bularga eng qadimdan yasab kelingan "kerka sopli" va "dandon sopli" pichoqlar, "damashq pichoq", "dudama pichoq"lar kiradi;

3. Suvener sifatida tayyorlanadigan pichoqlar. Odatda, bunday pichoqlarning tig' qismi charxlanmay tayyorlanadi. Suvener pichoqlar tayyorlashda ustalar tomonidan milliy pichoqlar bilan birga qadimiy qilich va xanjarlar ham tayyorlanadi;

4. Tabiat turizmi davomida foydalaniladigan maxsus pichoqlar. Ushbu turdagi mahsulotlar milliy pichoqchilikdagi yangi yo'nalish hisoblanadi. Ushbu turdagi pichoqlar tog' yonbag'irlari, shahar va qishloqlardan chekka hududlarga dam olishga chiqqan sayyohlar uchun qulaydir. Maxsus teri qinlar tikilib, bir vaqtning o'zida ov pichog'i, chopqi, maxsus sixlari joylanadi. Bu esa sayyohlar o'rtasida eng xaridorgir mahsulot hisoblanadi[6].

Vodiya turizmni rivojlanishida milliy pichoqchilikning o'rni o'ttirishda qinning ahamiyatiga katta e'tibor berilgan. Qadimdan qinning poynagi kumush, tilla kabi metallardan tayyorlangan va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. Bu kabi pichoq

qinlari istalgan odamni o'ziga jalb etishi mumkin. Hozirgi kunda ham sayyohlarga tayyorlanadigan suvenir pichoqlar uchun maxsus qin va pichoqdonlar yasash yo'lga qo'yilgan. Chunki, bunday mahsulotlarga bo'lgan talab doimo yuqoridir[7]. Tayyorlangan qinlar va pichoqdonlar tashqi tomonini bezatishda milliy naqshlardan keng foydalanish xaridorlarning o'ziga jalb qiladi. Shuningdek, pichoq qinlariga rangli toshlar qadalishi natijasida xaridorning unga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi, bu esa o'ziga xos marketingdir[8].

Bugungi kunda sayyohlarni aksessuar buyum sifatida qadrlanadigan pichoqchilikning vodiya Chust, Shahrixon, Qorasuv, Andijon va Qo'qon markazlari mavjud. Qorasuv pichoqchilik maktabi peshqadam ustasi Hamidullo Asqarov tomonidan yasalgan milliy pichoqlar xorijiy mamlakatlar, xususan, Rossiya, Ispaniya, Fransiya, Angliya, Isroil va Malayziyaga eksport qilinmoqda. Bundan tashqari vodiya pichoqchilik markazlarida tayyorlangan milliy pichoqlar turizm markazlari sanalgan Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xorazm hududlariga ham aksessuar sifatida hunarmandchilik majmualarida sotish yo'lga qo'yilgan[9].

Pichoqchilik markazlarida tayyorlangan milliy pichoqlarga yoziladigan maxsus yozuvlar sayyohlarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Milliy pichoqlarga "CHUST", Shahrixon yozuvlari bilan birga "CHUSTdan esdalik" yoki "Shahrixondan sovg'a" kabi yozuvlar ham yozish orqali pichoqlarni xaridorgirligi ta'minlanmoqda. Bundan tashqari, mahalliy va xorijiy sayyohlar ismi hamda sharifini yozib berish yo'lga qo'yilgan. Sovg'a sifatida olingan pichoqlar xorijiy, xususan, sayyohlar tashrif buyurgan davlatlarning rasmiy tillarida yozib berish orqali mehmonlarni mahsulotga bo'lgan talablarini oshirmoqda.

Bugungi kunda turizmni rivojlanishida pichoqchilik maktablarining o'rni ortib bormoqda. Farg'ona vodiysi pichoqchilik markazlari, xususan, Chust va Shahrixon sifat belgisi ostida 100 dan ortiq pichoq turlari mavjud. Masalan, Shahrixon pichoqchilik maktabining vakili Rahmatxo'ja Alixo'jayev sohani rivojlantirib, yangi bosqichga olib chiqdi. Peshqadam usta "yorma kumush sardasta", "suqma chelmexa" dastali, "qozoqcha", "damashq", "tolbargi", "qayqi"[10] kabi milliy pichoqlari bilan Isroil, Chexiya, Fransiya hamda Tojikistonda tashkil etilgan xalqaro tanlovlarda qatnashib faxrli o'rnlarni qo'lga kiritdi. Shuningdek, 2014-yilda ustaning xonadonida uy mehmonxonasi va muzey tashkil etilishi natijasida sayyohlar uchun mahsulot tayyorlash bo'yicha master-klavslar o'tib berish yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, Chust pichoqchilik maktabining peshqadam pichoqchi ustalaridan biri Rahimjon Ubaydulluyev ham uy muzeyi tashkil etgan bo'lib, bugungi kunda ko'plab mahalliy va xorijiy sayyohlarga milliy pichoqlar tayyorlab berish bilan birga AQSH, Angliya, BAA, Saudiya Arabistoni, Xitoy va Yaponiyaga eksport qilib kelmoqda[11].

Shahrixon pichoqchilik maktabi vakili, usta Rahmatxo'ja Alixo'jayev tomonidan tayyorlangan mahsulotlar Rossiya, Angliya, Isroil, Malayziya, AQSHga eksport qilinmoqda. Shuningdek, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xorazm kabi turistik markazlarda ham aksessuar sifatida hunarmandchilik majmualarida sotish yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, shahrixonlik hunarmand Bahodir Aliyev uy muzeyi va sayyohlar uchun mehmonxona tashkil etish natijasida usta tayyorlagan milliy pichoqlar, suvenir xanjar, qilich hamda qinlar tayyorlash jarayonlari bilan sayyohlarni tanishtirish yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, usta maktabi vakillari tomonidan "Damashq po'lati"ni qayta ishlash texnologiyasining o'zlashtirishi natijasida usta mahsulotlari va ish jarayonini ko'rish maqsadida xorijiy davlatlardan ham muntazam sayyohlar kelmoqda. Sayyoh va soha vakillarini

"Damashq qilichi" nomi bilan mashhur asli qadimiy Axsikentda tayyorlangan qilichlarni qanday yasalishi jarayonlari qiziqtirib kelmoqda.

Sov'ngi yillarda turizmga sayyohlarni mumkin qadar O'zbekistonning diqqatga sazovor joylariga olib borish yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston, xususan Farg'ona vodiysiga tashrif buyurgan sayyohlar pichoqchilik markazlari faoliyati, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarining yasash jarayoni bilan qiziqadi. Sayyohlik tashkilotlari tomonidan Chust - Shahrixon - Qorasuv - Qo'qon shaharlari bo'ylab 3 kunlik turpaketlar tashkil etilgan. Buning natijasida vodiya pichoqchilik ustalarining faoliyati bilan sayyohlarni tanishtirish yo'lga qo'yilgan[12].

Chust shahri "Ochiq osmon ostidagi temirchilik muzeyi" sifatida milliy pichoqlari bilan mashhur bo'lib, bu yerda tayyorlangan mahsulotlar xorijga, xususan Hindiston, AQSH, Turkiya, Polsha, Arab davlatlarida o'tkazilgan xalqaro ko'rgazmalarida namoyish etilgan. "Chust" va "Shahrixon" tamg'asi suvenir sifatida har oy 100-150 ming dona pichoq ishlab chiqariladi. Dandon sopli, kerka sopli, kumush gulbandli pichoqlar sayyohlar tomonidan sovg'a sifatida xarid qilinmoqda.

Masalan, chustlik usta Sodiq Mamajonov tomonidan milliy uslublarga tayangan holda 30 xil pichoq, suvenir qilich va xanjar tayyorlanib, hunarmandchilik turizmining yorqin brendi sifatida ham e'tirof etilmoqda. Sodiq Mamajonov va uning shogirdlari tomonidan Chust pichoqchilik maktabi an'alarini targ'ib qilish maqsadida uy muzeyi tashkil etilganligi sayyohlarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Ustaxonada usta tomonidan sayyohlar uchun muntazam master-klavslar tashkil etib kelinmoqda[13].

Hozirgi kunda turizmni rivojlantirishda milliy pichoqchilik san'atini saqlab qolish muhim ahamiyatga ega. Chunki, sanoat mahsulotlari mahalliy hunarmandlar faoliyatiga salbiy ta'sir etuvchi omil hisoblanadi. Pichoqchilik hunarmandchiligini tarixiy an'alarini tiklash, uning barqarorligini saqlash uchun birinchi navbatda, turizmni sohasini rivojlantirish lozim. Turizm taraqqiyoti natijasida uzoq yillik milliy madaniy meros an'analari va qadriyatlarini saqlab qolish hamda taraqqiyotiga zamin yaratish mumkin. Hunarmandchilik turizmni rivojlantirishdan ko'zlangan asosiy maqsad, turistik resurs sifatida milliy pichoqchilik san'atini kelajak avlod manfaatlarini ko'zlangan holda asrab qolishdan iborat.

**Xulosa va takliflar.** Vodiya pichoqlari jozibadorligi, shaklining soddaligi, silliqliqligi va pishiq-puxtaligi bilan xorijiy sayyohlarning qiziqishlariga sabab bo'lmoqda. Pichoqchilik maktabi an'alarini saqlab qolish maqsadida yirik hunarmandchilik markazi sanalgan Chustda "Chust pichoqlari" muzeyini tashkil etish konsepsiyasi va loyihasi ishlab chiqildi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 26-27-iyun kunlari Namangan viloyatiga qilingan tashriflari chog'ida "Chust pichoqlari" muzeyi konsepsiyasi taklif sifatida namoyish etildi. O'z navbatida, ushbu taklif davlatimiz rahbari tomonidan ma'qullandi va hozirda bu boradagi amaliy ishlar boshlab yuborildi. "Chust pichoqlari" muzeyini tashkil etilishining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, u Namangan viloyatining turizm salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rmda shuni ta'kidlash kerakki, turizm tarixiy-madaniy jarayonlar umuminsoniy sivilizatsiyalarni shakllantirish, etnos va xalqlarning o'zaro aloqalarini o'rnatish, bir-birining madaniyatini o'rganishini ta'minlash omilidir. Shu o'rinda, hunarmandchilik turizmni rivojlanishi yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi farovonligini oshirishda muhim omildir. Hunarmandchilik turizmni rivojlanishi tarmoqqa oid urf-odat, an'alar va mahsulot tayyorlash texnologiyalarini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Эргашев У. Наманган вилоятида туризм тарихи // НамДУ илмий ахборотномаси. – 2018. – №4. – Б. 65.
2. Ҳамитнуров Ф. Т. Фаргона водийсининг туризм салоҳияти / Сборник материалов международной конференции "перспективы интенсивного подхода к инновационному развитию". – Наманган, 2018. – Б. 6.
3. Сафарова Т. Этномаданий туризмни ривожлантиришнинг ижтимоий-маданий омиллари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2022. – Б. 30.
4. Ҳайдаров Ф. Ўзбекистонда миллий анъанавий санъатнинг совет ва мустанкилик даврида ривожланиши тарихи (Фаргона водийси хунармандчилиги мисолида). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2011. – Б. 24.
5. Сафаров Б. Туризмни инновацион ривожлантириш истиқболлари // Туризм маърифий интеллектуал газетаси. – 2017. – №11. – Б. 4.
6. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Chust shahri Dehqon bozori. 2021-yil.
7. Жумаев А. Туризм соҳасини ривожлантиришда миллий хунармандчилик ўрни // Экономика. Научно-аналитический электронный журнал. – 2022. – Вып. 2. – Б. 125.
8. Dala yozuvlari Andijon viloyati Shaxrixon shaxri Temirto'pi maxallasi. 2021-yil.



9. Ортикова М. Хунармандлар шахри. – Тошкент: Заркалам, 2006. – Б. 32.
10. Кушбакова А. М., Индиаминов С. И. Узбекские национальные ножи (история, виды и конструктивные особенности в аспекте судебно - медицинской экспертизы) // Вестник врача. – 2021. – №2. – С. 71.
11. Нурматов М.Ш. Ўзбекистонда миллий хунармандчилик ва туризмни ривожлантиришнинг ижтимоий-географик хусусиятлари (Фарғона минтақаси мисолида). – Тошкент: Фан, 2013. – 111 б.
12. Мансуров М. Фарғона водийсида туризмнинг ривожланиш жараёнлари ва ҳолати (1980–2018 й.й.) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация – Тошкент, 2020.– Б.109.
13. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Qo'qon shahri. 2022-yil.





*Sherzod MA'RUF OV,*  
*Guliston davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi*  
*E-mail: Sherzodmarufov1@gmail.com*

*PhD, dotsent B.Nasirov taqrizi asosida*

#### SIRDARYO VILOYATI HUDUDIDAGI MANZILGOHLARNING O'RTA ASRLARDAGI MODDIY MADANIYATI XUSUSIDA YANGICHA QARASHLAR

Аннотация

Hozirgi Sirdaryo viloyati hududlari o'rtasida Shimoliy Ustrushona tarkibida bo'lgan. Geografik nuqtai nazardan shimoliy Ustrushona, deb atalayotgan Ustrushonaning shimoliy qismi, Shahristonsoyning quyi oqimi, Xo'jamushkentsoy havzalari va hududning tekislik cho'l qismi (Mirzacho'l) arxeologik jihatdan hozirga qadar eng kam o'rganilgan madaniy voha sifatida qolmoqda. Vohalanki, qadimdan bir qancha madaniy o'lkalari chorrahasida joylashgan o'lka xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyati o'ziga xos serqirra va boy bo'lib kelgan. Bu o'lkada asosiy arxeologik tadqiqotlar XX asrning 40-50-yillaridan boshlanib, hozirga qadar davom etib kelmoqda. Ushbu maqolamizda Viloyat hududidagi bir qancha manzilgohlarni arxeologik va yozma manbalar asosida tahlil qilish orqali yangi fikrlarni bildirib o'tmoqchimiz. Shu paytgacha viloyat hududidagi manzilgohlarda ilmiy izlanish olib borgan bir qator olimlarimiz bu hududlar o'rtasida asrlarda faqat Ustrushona tarkibida bo'lganliklari xususida fikr bildirishardi. Ammo so'ngi tadqiqotlar shuni ko'rsatayotki viloyat hududidagi va unga yondosh bir qancha manzilgohlar Choch hokimligi tasarrufida bo'lgan bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** Kultepa, Eski Xovos, Qo'shtepa, Sabat, Haydarobod, Shahristonsoy, Ibn Xavkal, Arxeologlar, karvon saroy qoldiqlari, ashyoviy dalillar, naqshin va usti qizil, idishlar majmuasi, "Katta yo'l", "Yo'llar va mamlakatlar" asari, "Zafarnoma".

#### НОВЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА СРЕДНЕВЕКОВУЮ МАТЕРИАЛЬНУЮ КУЛЬТУРУ МЕСТА СЫРДАРЫНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

Территории нынешней Сырдарьинской области в средние века входили в состав Северной Уструшоны. С географической точки зрения наименее изученными с археологической точки зрения культурными оазисами остаются северная часть Уструшоны, так называемая Северная Уструшона, низовья Шахристаной, Ходжамушкендой котловин и равнинная пустынная часть региона (Мирзачоль). Вид. Однако с древнейших времен материальная и духовная культура народов страны, расположенной на стыке нескольких культурных стран, была уникальной и богатой. Основные археологические исследования в этой стране начались в 40-50-х годах 20 века и продолжают до сих пор. В этой статье мы хотели бы представить новые идеи, проанализировав несколько поселений региона на основе археологических и письменных источников. До сих пор ряд наших ученых, проводивших научные исследования на поселениях региона, высказывали мнение, что эти территории были лишь частью Уструшоны в средние века. Однако недавние исследования показывают, что несколько населенных пунктов в регионе и прилегающих к нему районах могли находиться под юрисдикцией мухафазы Чоч.

**Ключевые слова:** Култепа, Эски Хавос, Коштепа, Sabat, Хайдаробад, Шахристаной, Ибн Хавкал, Археологи, остатки караван-сарая, вещественные доказательства, узор и красный верх, набор посуды, «Шоссе», «Дороги и страны», «Заварнама».

#### NEW VIEWS ON THE MEDIEVAL MATERIAL CULTURE OF THE LOCATIONS IN SIRDARYA REGION

Annotation

The territories of the present Syrdarya region were part of Northern Ustrushona in the Middle Ages. From a geographical point of view, the northern part of Ustrushona, the so-called northern Ustrushona, the lower reaches of Shahristanoi, Khojamushkentsoi basins and the plain desert part of the region (Mirzachol) remain the least studied cultural oasis from an archaeological point of view. However, since ancient times, the material and spiritual culture of the peoples of the country, located at the crossroads of several cultural countries, has been unique and rich. The main archaeological research in this country began in the 40s and 50s of the 20th century and continues until now. In this article, we would like to present new ideas by analyzing several settlements in the region based on archaeological and written sources. Until now, a number of our scientists, who conducted scientific research in the settlements in the region, expressed their opinion that these areas were only part of Ustrushona in the Middle Ages. However, recent studies show that several settlements in the region and adjacent to it may have been under the jurisdiction of the Choch governorate.

**Key words:** Kultepa, Eski Khavos, Koshtepa, Sabat, Hyderabad, Shahristonsoy, Ibn Havkal, Archaeologists, remains of the caravanserai, physical evidence, pattern and red top, set of dishes, "Highway", "Roads and countries", "Zafarnama".

**Kirish.** Mustaqillikka erishganimizdan so'ng barcha sohalar qatori tarix faniga ham e'tibor o'zgacha ahamiyat kasb eta boshladi. Yurtimizning tarixi Samarqand, Buxoro, Farg'ona hududlarida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida bir necha ming yoshga qadimiyroq ekanligi isbotlandi. Lekin bir hudud borki tarixchi olimlarimizning e'tiboridan chetda qolib kelmoqda. Bu Sirdaryo viloyati hisoblanib nafaqat xalqimiz aholisi balki keng jamoatchilik ham bu viloyat tarixini nari borsa XX asrning 50-yillariga borib taqaladi deb hisoblashadi. Biz bu ilmiy izlanishlarimiz orqali viloyatning tarixini qadimiylikda Samarqand, Buxoro, Choch mintaqalaridan qolishmasligini isbotlashga harakat qilmoqdamiz.

O'rganilganlik darajasi: Umuman olganda, yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda hozirgi Sirdaryo viloyati hududlarida o'troq va ko'chmanchi aholiga oid yodgorliklar XX asrning 40-chi yillaridan o'rganila boshlandi. 1970-90-chi yillarda shimoli-g'arbiy Ustrushona hududida O'zR FA Arxeologiya Instituti ilmiy xodimlari A.E. Berdimurodov, S.R.Raximov, U.A.Alimov, M.X.Pardaev, A.A.Gritsina, L.M.Sverchkov va boshqalar tadqiqotlar olib borishdi.

Mustaqillikdan keyin bu hududlarni o'rganish yangicha ahamiyat kasb eta boshladi. Arxeologik va yozma materiallarni tahlili natijasida bir guruh olimlar A.A.Gritsina, S.S.Qudratov, O'.Erbutayeva, B.To'ychiboyev, O.Mamirov va boshqalar o'zlarining izlanishlarida viloyat tarixini yoritishga katta hissa qo'shishmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada tarixiylik, obyektivlik, tizimlilik kabi asosiy metodologik tamoyillardan foydalanilgan holda, Sirdaryo viloyati hududidagi manzilgohlar arxeologik va yozma manbalar asosida tarixiylik nuqtai nazaridan ilmiy tahlil etildi.

**Tadqiqot va natijalar.** O'lka hududida ilk o'rtasida asrlar (V-VIII asrlar)ga oid yuzdan ziyod yodgorliklar aniqlanib, xaritada tushirilgan. [1] Hududda o'rganilgan Mink manzilgohi, Kultepa, Eski Xovos, Qo'rg'ontepa (Zomin) shahristonlari, Qo'shtepa yodgorliklari ilk o'rtasida asrlar o'lka moddiy madaniyatining ko'plab muammoviy masalalari haqida qimmatli ma'lumotlar beruvchi noyob yodgorliklar hisoblanadi [2].

O'lka hududidagi ilk o'rta asrlar davridagi eng yirik yodgorlik - Qo'shtepa sanaladi. Uning hususiyati shuki, u yonatrofdagi hududdan ariq va devor bilan himoya qilingan arkdan iborat. Arkni ikkita tepalik tashkil etadi. Shahriston va uning yonidagi aholi manzilgohi katta hududni egallagan. Qal'a va atrofdagi qishloqlar, saroylar Tag'obsoy bo'yida joylashgan. Qazish ishlari natijalariga ko'ra u arablar bosqini oldidan aholi tomonidan tashlab ketilgan bo'lgan. Buning sababi suv resurslarining o'zgarishi yoki siyosiy voqealar bo'lgan bo'lishi mumkin. Bunday katta shahar va atrofdagi qishloqlar uchun Tag'obsoy suvi yetmasdi ham. Qadimgi va o'rta asrlarga oid suv inshootlari tarixi bilan shug'ullangan A.I.Bilalov fikricha, Tag'obsoyga Shahriston suvlari ham quyilib, poytaxt Bunjikat va uning atrofidagi qishloqlarni ham suv bilan ta'minlagan. Bu soyni suvi Qo'shtepa shahristoniga Balandchaqir qishlog'i orqali hozir ham ishlab turadigan kanallar tizimi orqali o'tkazilgan bo'lishi mumkin.

Mazkur suv manbalari atrofida arxeologik yodgorliklarning ko'pligi bu yerda Ustrushonaning rustaklari(rayonlari)dan biri bo'lganligidan dalolat beradi. Taxminan, bu Varkin rustagi bo'lishi mumkin, lekin u haqda yozma manbalarda ma'lumotlar uchramaydi, faqatgina uning nomi eslatib o'tiladi, xolos. Bu nomga yaqin nomlar hozirgacha qishloq va kanal Varkin nomi bilan saqlanib kelmoqda. Shunday ekan, Qo'shtepa shahristonida mazkur rustakning, ya'ni Varkin rustakining markazi joylashgan bo'lishi mumkin. Keyinchalik uning aholisi janubga siljigan.

O'lka hududidagi ilk o'rta asrlarga oid yana bir yirik yodgorlik bu Savot rustakining markazi deb e'tirof etilayotgan Kultepa yodgorligi xisoblanadi. Kultepaning ark va shahriston qismida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida kumush tangalar va zargarlik buyumlaridan iborat bo'lgan xazina topilgan. Taniqli olim, akademik, E. V. Rtveladzening aniqlashicha, tangalar sosoniylar podshosi Peroz (459-484 yy) tomonidan zarb etilgan bo'lib, podsho efitalilarga to'laydigan o'lpinning bir qismi bo'lgan bo'lishi mumkin. Demakki, Kultepa V asrdayoq yirik shahar maqomiga ega bo'lgan.

Rivojlangan o'rta asrlarda ya'ni X-XV asrlarda Ustrushona xududi 18 rustakka bo'lingan, ularning yarmi shimoliy qismda joylashgan edi. Har bir yirik rustakning markazi o'sha nom bilan nomlangan shahar bo'lgan. Arab geograflari bir qator shaharlar nomlarini keltirishadi. Istaxriy bo'yicha Ustrushonada 10 ta shahar bo'lgan. Demak, bu yerdagi urbanizatsiya ko'rsatkichi yuqori bo'lmagan. Qiyoslash uchun shuni aytish mumkinki, Chochda 40 ta shahar, Farg'onada esa - 39 ta shahar bo'lgan.

Bu o'rinda, mashhur sharqshunos olim, V.V.Bartoldning «Ustrushonaning shahar hayoti kam rivojlangan edi», degan fikri to'g'ri bo'lib chiqmoqda. O'lkaning iqtisodiy salohiyati ham yuqori bo'lmagan. Bu haqda xiroj solig'ining hajmi dalolat beradi. Bu xiroj Xuroson hokimi Abu-l Abbos Abdulloh ibn Tohirga IX asrning birinchi yarmida to'langan edi. Unda Ustrushona uchun u 50 ming dirxam hajmida belgilangan holda, Choch(qadimgi Toshkent vohasi) uchun - 607100, Xo'jand uchun -100 000, Farg'ona uchun - 280 ming dirxam bo'lgan.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarining qo'shni o'lkalarga chiqarilishi bu yerda sun'iy sug'orishga asoslangan dehonchilik madaniyati rivojlanganini ko'rsatadi. A.I.Bilalovning tadqiqotlariga ko'ra ushbu davrda Ustrushonada 3 mingdan ziyod irrigatsiya inshootlari ishlab turib, ular 200 ming gektardan ko'proq yerni sug'organ.

Shaharlar, asosan karvon savdo yo'llarida joylashgan. Masalan, Zomin Ustrushonaning ikkinchi shahri bo'lib, shu nomdagi rustakning markazi ham bo'lgan. Unda ko'plab bozorlar, karvonsaroylar, masjidlar mavjud bo'lgan. Bundan tashqari u ikkita sertqatnov yo'lining ortasida joylashgan: Xovos yo'li (Xavkal) va Xo'jand hamda Farg'ona orqali Xitoyga olib boradigan yo'l bo'yida.

Rivojlangan o'rta asrlarda Sirdaryo hududida arab geograflari tomonidan eslatib o'tilgan ikkita manzilgoh bor. Bu Sabat va Xovosdir.

Ilk o'rta asrlarda manbalarda tilga olingan Sabat rivojlangan o'rta asrlarda oldingi o'rmdan bir oz shimoliy - g'arbda joylashadi. Bu davrda Sabat o'z nomidagi rustakning markazi bo'lgan. Ibn Xo'rdobeh ma'lumotlariga ko'ra, u Zominan ikki farsah narifoqda joylashgan. Istaxriy bo'yicha esa - uch farsah narida. Geograflarning bir qismi Sabatni Ustrushona shaharlaridan biri deyishsa (Istaxriy, Xavkal, Yoqut), ayrimlari (Muqaddasiy va Qudamiy) uni katta qishloq bo'lgan deb hisoblashadi.

Kultepa yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida uni o'rta asrlar Sabati ekanligi aniqlandi. Sabatning Kultepa

o'rnida joylashganligi bu hududdagi o'rta asrdagi yo'lni to'g'rilaydi. Aks holda, karvonlar shimolga burilishga, Savat cho'lga kirib ketishga va shundan so'ng yana "katta yo'lga" qaytishga majbur bo'lardilar. Sabatning Kultepa o'rnida bo'lganligi Bunjikatning Shahriston qishlog'i o'rnida bo'lganligini ham asoslaydi. Chunki, Istaxriyning yozishicha, "Ustrushonaning bosh shahri va Sabat oralig'i... uch farsax" bo'lgan. Kultepadan janubi-sharqda aynan Shahriston joylashgandir.

Sabatning uch yo'l chorrahasida joylashganligi sababli, akademik, A.R.Muhammadjonov tomonidan bildirilgan «Sabat» so'zining etimologiyasi to'g'ri bo'lib chiqadi. Ma'lumki, olimimiz uni «Sebat», ya'ni «uch karvon-saroy» deb izohlagan edilar.

Sabat shahrining janubiy qismida joylashgan shahriston hududi 10 gektardan kam bo'lmagan maydonga ega bo'lgan. Arkdan janubi-g'arbda hunarmandlar kvartali bo'lgan, bu yerda ko'plab kulolchilik buyumlari qoldiqlari va sopol pishirishga mo'ljallangan xumdonlar topilgan.

Somoniylar davrida (X- XI asr)gi Sabat ilk o'rta asr davridagi Sabatdan shimoliy- g'arbda joylashgan. Yangi arkning maydoni 0,25 gektar, balandligi 7 metr bo'lgan. Qazish ishlari natijasida bu yerda hashamatli imorat ochilgan, undan topilgan tanga va sopol buyumlar nusxalari X-XI asr boshlariga to'g'ri keladi. Mazkur imorat bundan ertaroq qurilgan memorchilik inshooti devorlari ustida qurilgan.

Sabat XI asr o'rtalarida tashlandiqqa aylandi, XII-XIII asrlar boshida esa bu yerda qoraxoniylar davriga oid qabriston joylashgan. Bu qabriston shaharni ikki qismga ajratadi. "Eski" (ilk o'rta asrlar va somoniylar davridagi) shahar tashlandiq bo'lib, "yangi" (qoraxoniylar davridagi) shahar soy bo'ylab shimol tomon rivojlana borgan. Arxeologlar tomonidan o'rganilgan hashamatli me'morchilik, zindon, yuqori sifatli idishlar qoldiqlari bu yerda qoraxoniylar davrida Sabatning hokimlari yashagan saroy majmuasi bo'lganligidan dalolat beradi. Shaharning shimoliy qismida "II" shaklidagi tepalik bor. Uning tagida karvon saroy qoldiqlari bo'lishi mumkin. Bu yerda paxsa va xom g'ishtdan qurilgan imorat ochilgan bo'lib, yong'in tufayli yog'och ustunlari kuyib ketib, xarobaga aylangan. Topilgan ashyoviy dalillar XII-XIII asr boshi bilan belgilanadi.

Bevosita Xovos to'g'risidagi yozma manbalar ma'lumotlari IX asrga to'g'ri keladi. Ibn Xordadbek o'zining mashhur "Yo'llar va mamlakatlar" asarining alohida "Zominan Farg'onaga yo'l" bobida "Zominan Xovosgacha 7 farsox va Xovosdan "Shosh daryosi" sohillarigacha 9 farsox deb ko'rsatadi. So'ngra ko'priq orqali Benaket(Shohruhiya)ga o'tiladi deb yozadi[6]. Boshqa bir arab geografi Qudama (X asrning birinchi yarmi) ma'lumotlari bo'yicha Zominan Xovosgacha 6 farsox yo'l bo'lsa, "... Xovosdan Shosh daryosi (Sirdaryo) kechuvigacha 5 farsox. Bu kechuvdan Benaketgacha 4 farsox[7]. Ibn Rusta (X asrning birinchi yarmi) bo'yicha Zominan Xovosgacha bir kunlik yo'l[8]. Al-Istaxriy (X asr) bo'yicha esa, "Zominan Xovos yo'li orqali Farg'ona yo'lidan chapga Kurqatgacha 13 farsox". "Kimki Xovos orqali Zominan Xo'jandga bormoqchi bo'lsa, u Kurqat orqali o'tadi" deb Ibn Xavkal (X asr) ham ma'lumot beradi[9].

XI asr boshlarida Xovos Somoniylar sulolasining so'nggi vakili Muntasir (Abu Ibrohim Ismoil ibn Nuh) va qoraxoniylar davlati iloi q'rtasidagi jang tafsilotlari munosabati bilan tilga olinadi[10]. Yoqutning (XIII asr) ma'lumoti bo'yicha: "Xovos- bu Ustrushonadagi qishloq"[11]. As-Somoniy (XII asr) Xovosning qishloq nomi yozilishining Xavus shaklini keltiradi[12]. Keyingi manbalarda yuqoridagi ma'lumotlar kam to'ldiriladi. Abul-Fid (XIV asr) Ibn Xordadbek ma'lumotlarini "Xovosdan Xuskat (hozirgi Sayxunobod tumani Nurota qishlog'i o'rnidagi Xushket shahri) gacha dasht bo'ylab 7 farsox" deb to'ldiradi.

Temuriylar davri tarixchisi Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asarida ham Xovos tilga olinadi. Jumladan, uning ma'lumotiga ko'ra, Amir Temur Xovosda bo'lgan. Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asarining qimmatli tomoni shundaki, u 1404 yilda Sohibqironning hayotligida yozilgan. Yana Nizomiddin Shomiy boshqa manbalarda bo'lmagan juda ko'p ma'lumotlarni ikirchikirlarigacha ko'rsatadi. Jumladan, u Amir Temurning Xovos atrofida 1367-1368 yillar amir Xusayn (1346-1358 yillar) bilan urushlaridan birini tasvirlaydi.

**Xulosa.** Akademik V.V. Bartoldning ta'kidlashicha, o'sha davrlar Amir Temur uchun og'ir vaqtlar bo'lgan. 1366 va 1370 yillarda Amir Temur amir Husaynga qarshi urush holatida bo'lsa, bir vaqtlar uning dushmanlari bilan yaqinlashib, o'z ittifoqchilariga qarshi kurashib yurdi. Shomiy ma'lumotlari bo'yicha, 1366 yilda navbatdagi kelishmovchiliklar chog'ida Amir Temur Hisor hokimi amir Kayxusrav bilan yaqinlashadi. Toshkentdan ikki ming nafar mo'g'ul

askarlari bilan kelgan Kayxusrav Amir Temurga qo'shiladi. Bu vaqtda Amir Temur Xovosda bo'lgan. Amir Husayning maqsadi nihoyatda jiddiy bo'lgan: u o'z amirlari Muso, Shayx Muxammad, O'ljoytu, Jahonshoh va boshqa eng yaxshi sarkardalari boshchiligida son jihatdan ancha katta qo'shinni Amir Temurga qarshi yuboradi. Bu qo'shin Samarqanddan Jizzaxgacha bo'lgan hududlarni bosib oladi. Shomiyning aytishicha, Amir Temur Kayxusrav bilan kelishib, 500 suvoriy bilan o'z uslubi bo'yicha, Xovosdan chiqib, to'satdan amir Husayning lashkarboshisi Jahonshoh qo'shiniga hujum qiladi va uni

tarqatib yuboradi. Husayn sarkardalari bu Amir Temurning avangard qo'shini, asosiy kuchlar hali orqada deb o'ylab, tum-taraqay qochadilar[13]. Voqealar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu jang Jizzax va Xovos oralig'ida bo'lgan. Mirzacho'lining keng yerlari esa, yirik suvoriy janglari uchun juda qullay hisoblangan.

Xovosni qishloq tarzida bir necha bor Bobir Mirzo (XVI asr) ham tilga oladi. Jumladan, uning ma'lumoti bo'yicha, "Umar shayx Sulton Ahmad Mirzo bilan Shohruxiya va O'ratepa oralig'idagi Xovos qishlog'idagi jangda mag'lub bo'lgan[11].

#### ADABIYOTLAR

1. Аминжанова М. Археологическая разведка в Зааминском районе. // ИМКУ. Вып.8. –Т.: Фан.1969. С.137-142., Грицина А.А. Северная Уструшана в середине 1 тысячелетия до н.э. - начале XIII в н.э. АКД. 1990. С.23
2. Грицина А.А. Северная Уструшана в середине 1 тысячелетия до н.э. - начале XIII в н.э. АКД. -Самарканд, 1990, Сверчков Л.М. Поселение Мык – источник по истории средневековой истории Уструшаны. АКД. Самарканд. 1991., Древний Заамин / – Т. 1994.
3. Хордадбех. Книга путей и стран. Перевод с арабского, комментарии, исследование, указатели и карты Н. Велихановой. Баку,1986, 64 б; Истахри. Китаб Масалик ал-мамалик//Материалы по истории киргизов и Киргизии. Вып.1.М., 1973, 21 б.
4. Бартольд В.В. история культурной жизни Туркестана. Л., 1927, 227 б.
5. Грицина А.А. Уструшанские были. Ташкент,2000, 214-223 б б.
6. Бетгер Е.К. Извлечения из книги "Пути и страны" Абу-л Касыма ибн Хаукаля // Труды САГУ. Ахеология Средней Азии. Ташкент,1957,21 б.
7. Негматов Н.Н. Уструшана в древности и раннем средневековье. Душанбе,1957.
8. Solijon Kudratov, Sherzod Marufov. ANCIENT WATERWORKS IN MIRZACHUL. Look to the past. 2021, vol. 4, issue 11, pp.97-101
9. Кудратов С. Сардобалар ўлкаси.Ташкент,Фан, 2001.



Shaxnoza MIRZAMIDINOVA,  
Angren universiteti o'qituvchisi

PhD, dotsent G.Sayidaiyeva taqrizi asosida

### PROMOTION OF THEATRICAL ART BY KOKAND JADIDS IN THE EARLY 20TH CENTURY AND ITS EDUCATIONAL SIGNIFICANCE

Annotation

The late 19th and early 20th centuries hold a special significance in the history of our homeland. During this period, a powerful movement emerged under the name of Jadidism, aimed at awakening our nation socially, politically, and spiritually. The primary idea and mission of our Jadid ancestors were to bring true freedom to a people condemned to slavery and to illuminate the darkness of ignorance with the light of education and enlightenment. This is confirmed by the words of Abdulla Avloni, a great representative of the Jadid movement and an educator, who spoke about the efforts to "enlighten the common people and open their eyes."

**Key words:** Turkestan, Jadidism, culture and enlightenment, colonial policy, political ideology, language, history, press, theater, dramaturgy, plays.

### ПРОДВИЖЕНИЕ ТЕАТРАЛЬНОГО ИСКУССТВА КОКАНДСКИМИ ДЖАДИДАМИ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА И ЕГО ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация

Конец XIX и начало XX века являются особо значимым периодом в истории нашего края. Именно в это время под названием джадидизм возникло мощное движение, направленное на пробуждение нашего народа в социальном, политическом и духовном аспектах. Основной идеей и миссией джадидов было вывести народ, обречённый на рабство, к истинной свободе и принести свет знаний и просвещения поколению, оставшемуся во тьме неграмотности. Это подтверждают слова великого представителя джадидского движения и просветителя Абдуллы Авлони, который говорил о попытках "просветить простой народ и открыть ему глаза."

**Ключевые слова:** Туркестан, джадидизм, культура и просвещение, колониальная политика, политическая идеология, язык, история, печать, театр, драматургия, пьесы.

### XX ASR BOSHLARIDA QO'QON JADIDLARI TOMONIDAN TEATR SAN'ATINING TARG'IB QILINISHI VA UNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Аннотatsiya

Yurtimiz tarixida XIX asr oxiri va XX asr boshlari alohida ahamiyatga ega bir davr hisoblanadi. Chunki bu davrda millatimizni ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan uyg'otishga qaratilgan jadidchilik nomi ostida katta kuch harakatga keldi. Jadid bobolarimizning eng muhim g'oyasi va vasifasi qullikka mahkum bo'lgan xalqni chin ma'noda hurlikka olib chiqish, savodsizlik zulmatida qolgan avlodga ilm-ma'rifat yosini yetkazish edi. Buni jadidchilik harakatining buyuk namoyandasi, ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "qora xalqni oqartirmoq va ko'zin ochmoq chorasiga" kirishilgani haqida aytgan gaplari ham tasdiqlaydi.

**Kalit so'zlar:** Turkiston, jadidchilik, madaniyat va ma'rifat, mustamlakachilik siyosati, siyosiy mafkura, til, tarix, matbuot, teatr, dramaturgiya, pyesa.

**Kirish.** XX asr boshlarida Turkiston jadidlari madaniyat va ma'rifati ijtimoiy taraqqiyotning bosh omili deb hisobladilar. O'lka XX asrga mustamlaka xalqning og'ir iqtisodiy ahvoli, jahonning taraqqiy etgan mamlakatlaridan iqtisodiy jihatdan ortda qolishi, madaniy qoloqlik, ijtimoiy ongdagi turg'unlik kabi illatlar bilan qadam qo'ygani edi. Mustamlaka sharoitida, hukmron siyosiy mafkura doirasida qoloqlikdan qutulishning yagona yo'li madaniy yo'nalish orqali taraqqiy etish mumkinligini tushungan ziyolilar, eng avvalo, madaniy va maishiy hayotdagi qoloqlikni tugatish, milliy ongni isloh etishda til, tarix, matbuot, an'anaviy madaniyatni dunyo madaniyati tizimida qayta ko'rib chiqish zaruriyatini olib chiqdilar. Jumladan, o'zbek teatr san'ati va dramaturgiyasining yuzaga kelishi va rivojida jadidlarning o'rni va xizmati beqiyosdir.

Bu ulkan tarixiy voqea ta'sirida o'zbek teatr san'atiga asos solindi va dastlabki o'zbek dramalari yaratildi. Hozirgi kunga qadar jadidlar tomonidan yaratilgan "Padarkush", "Abulfayzxon", "Halima" va "Boy ila xizmatchi" kabi dramalar o'zbek teatrlari sahnasidan tushmay kelayotganligi bejiz emas, albatta. Jadidlar tom ma'nodagi ma'rifat va ma'naviyat targ'ibotchilari sifatida bu maqsadning xalq orasida tezroq yoyilishida teatr san'atidan foydalanish lozimligini eng maqbul tanlov deb bildilar va ular bu borada adashmagan edilar. Xonliklar davridagi og'ir va qoloq hayot iskanjasidan, qolaversa, chor hukumati istibdodidan qutulishning yagona najot yo'li faqatgina ilm-ma'rifat yo'li ekanligini to'g'ri anglab yetgan ajdodlarimiz shu yo'lda mardonavor harakat qildilar va shu yo'lda qurbon bo'ldilar.

Ayniqsa, jadidchilik harakati tarixida Qo'qon zaminidan yetishib chiqqan taraqqiyparvarlarning o'rni va ro'li alohida diqqatga sazovordir.

XX asr boshlarida qo'qonlik taraqqiyparvarlar xalqni ilm-ma'rifatga ko'proq jalb etish va ularga islohot dasturlarini oson hamda

keng miqyosli tarzda yetkazish maqsadida teatr san'atiga ham katta e'tibor qaratdilar. Nega deganda "...savodsiz, olamdan xabarsiz, quroli yo'q xalq mustamlakachilarga qarshi kurasholmas edi. Jadidlar o'z maqsadlariga erishish uchun, avvalo, avom xalqqa ma'rifat berib, uning ko'zini ochishlari, uni kurashga oltantirishlari kerak edi"[1]. Bu borada shubhasiz, teatr qudratli vosita hisoblangan. Buni o'z vaqtda Qo'qon jadidlari ham yaxshi anglab yetganlar.

Atoqli jadid teatrshunoslaridan Mijonbuzruk Solihov: "...turli mamlakat tarixida teatru hayotining inkishofi va tugallanishi ikki yo'l bilan bo'lib kelgan. Buning biri eskidan u mamlakatda mavjud bo'lgan xalq sahna o'yunlarining tadrj bilan takomil etib o'sish yo'li; ikkinchisi esa boshqa bir mamlakatda o'sib tiplashgan teatrdan o'rnatib olib va uni taqlid bilan o'z hayotiga solishtiruv va o'zlashtiruv yo'lidir"[2] deb yozgan edi.

Butun Turkiston milliy teatri singari Qo'qon teatri ham birinchi yo'lni tanlab tezlik bilan rivojlanib bordi. Ya'ni, qo'qonlik jadidlar hududda teatrn rivojlantirish ishida mamlakatda mavjud bo'lgan xalq sahna o'yinlariga suyandilar. Qayd etish joizki, Qo'qonda bu borada boy tajriba mavjud edi.

Xususan, tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, Qo'qonda Xudoyorxon hukmdorlik qilgan davrda, saroyda 30 kishidan iborat aktyorlar truppassi, 60 kishilik raqs truppassi va 75 kishidan iborat xalq cholg'u asboblari ansambli faoliyat ko'rsatib kelgan. Saroy truppassi tarkibida xalq teatri va dramaturgiyasining namoyondalari Bidiyorshum, truppaning rahbari, mashhur aktyor Zokir eshon, iste'dodli san'atkorlardan Rizo qiziq, Sa'di Mahsum, Normat qiziq, Boymurot qiziq, Mo'min qishloqi, Baxrom qiziq, Usmon qiziq, Ro'zi gov, Baxtiyor qiziq, Shomat qiziq, Davlat qiziq, Mulla Hoshim, Usmon qiziq, Xolmat qiziq, Kalsariq qiziq, Ovliyoxon qiziq, Muzrat masxara, To'la masxara, Quvvat kalta, Boltaqluv masxara, Matyoqub



ko'r kabi elu xalq orasida tanilgan va shuhrat qozongan zamonaning mashhur san'atkorlar yetishib chiqqan va ijod qilgan edilar[3].

Ayniqsa, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" pyesasi ziyolilari va xalqida katta ta'assurot qoldirgan. Behbudiyning ushbu asari 1914-yilning 27-fevralida Toshkentdagi "Kolizey" teatr binosida tamoshabinlar e'tiboriga havola etilgan bo'lib, qisqa fursatda uning dong'i butun Turkiston bo'ylab yoyilgan.

Behbudiyning "Padarkush" pyesasi Toshkent va Samarqand shaharlarida sahnaga qo'yilganidan biroz vaqt o'tib Qo'qonda ham o'ynaldi. Ushbu asarning Qo'qon shahrida qo'yilishida samarqandlik boy ayni paytda Qo'qonda istiqomat qilayotgan Akobir Shomansurov katta rol o'ynadi. Shuningdek, Akobir Shomansurov "Padarkush"ni Qo'qon sahnalarida o'ynalishi uchun general-gubernatoridan rasmiy ruhsat olish ishiga ham bosh bo'ldi[4]. Bu haqida Samarqandda Behbudiyning muharrirligida nashr etiladigan "Oyina" jurnalining 1914-yilning 17-sonida quyidagi xabar maqola bosilgan: "Qo'qonda maktablar naf'i uchun "Padarkush" fojiasini 24-fevralda (1914-yil) Sahnag'a qo'yimoq uchun Qo'qonda taraqqiyparvar yoshlar g'ayrat etibdirlar. Qo'qonda turuvchi janobi samarqandlik Akobir Shoxmansur o'g'li, baland darajalik Farg'ona voliysidan ruxsat olibdur. Samarqand ko'ngillilaridan bir necha Qo'qong'a borib yetishmagan keraklik shaxslarni qo'qonlik birodarlardan tayyorlab "Padarkush" fojiasini sahnag'a qo'yimoqchidurlar"[5].

Qo'yilgan teatr spektaklining hisobotlariga ko'ra Samarqanddan Qo'qonga borgan 10 kishiga 305 so'm miqdorida harajat qilingan. Miyonbuzruk Solihovning bergan ma'lumotlariga qaraganda Samarqanddan Qo'qonga borgan 10 kishining ichida Behbudi, Abdulla Badriy, Hoji Muin, Rabbimqul, Abdusalom boyvachcha, Mardonqul, Akobir Shomansurov kabi kishilar bor edi[6].

Shubhasiz, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" asari Miyonbuzruk Solihovning to'g'ri baho berganidek o'zbek teatr sohasida chindan ham boshlang'ich ochiq bir burilish, o'zidan keying yaratilgan qator dramaturgiya doir asarlarga mustahkam poydevor va ilhom manbaya bo'lib xizmat qildi. "Padarkush"ning Turkistonda ko'rsatgan ulkan ta'siri va muvaffaqiyatli namoyishlaridan so'ng Abdurauf Shohidiyning "Mahramlar", Nusratulla Qudratulla o'g'lining "To'y", Abdulla Badriyning "Juvonmarg", "Ahmoq", Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov", Hoji Muinning "Eski maktab yangi maktab", "Ko'knori", "Mazluma xotun", "Juvonbozlik qurboni", "Qozi ila muallim", Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Zaharli hayot yohud ishq qurbonlari" (1916-yil), "Ilm hidoyati", "Mulla Nurmuhhammadning kufr xatosi", Abdulla Avloniyning "Advokatlik osonmi" kabi qator sahna asarlari yaratildi.

Yuqoridagilardan Abdurauf Shohidiyning "Mahramlar" nomli sahna asari 3 pardadan iborat bo'lib, 1911-yilda Namangandagi "Is'hoqiya" matbaasida bosilgan. Ushbu asar 1915-yilda mahalliy o'zbek havaskorlari tomonidan Qo'qonda sahnalashtirilib, spektakl sifatida xalqqa namoyish etilgan.

Qo'qondagi shakllanib kelayotgan teatr san'atiga hissa qo'shgan ma'rifatparvar, ijodkorlardan biri Hamza Hakimzoda Niyoziydir.

Hamza Hakimzoda Niyoziy XX asr ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar zamonida yashab, ijod qildi. Ana shunday o'zgarishli hayot, milliy uyg'onish va bu uyg'onishni bostirishga urinishlar, millat erki va taqdirining xavf ostida qolishi Hamza ijodining asl g'oyasini, mohiyatini belgilaydi. Shuni aytishimiz mumkinki, ma'rifatparvarlik, xotin-qizlar erki, Turkiston birligi g'oyalari Hamza uchun asosiy g'oya bo'lib qolaverdi. Bu g'oyalar faqatgina Hamza dramaturgiyasining asl mohiyatini emas, balki she'riyatning ham, publitsistikasining ham asl mohiyatini tashkil qiladi. "So'zdan, tuyg'udan u qoloqlik, qullik, g'aflet va jaholatga qarshi qurol sifatida foydalangandi. Haq-huquqlari poymol etilgan, kuni tunidan qora va fayzsiz mazlum ommaning holidan Hamza qadar ezilib, hasratga cho'mgan shoir kamdir. Vatani ko'nglida yig'lagan va faryod chekkan shoirlardan bittasi Hamzadir", degan edi adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul.

Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Ilm hidoyati" nomli sahna asari ham o'z paytida qo'qonlik ziyolilarning e'tirofiga sazovor bo'lib,

sahnaga qo'yilganda yig'ilganlarning katta olqishiga sazovor bo'lgan edi. Hamzaning ushbu asari 1916-yilda yozilgan bo'lib, unda otasi tomonidan bir baqqolga shogirdlikka berilgan bolaning baqqollikdan qochib, o'qib boy bo'lgani va otasini ham boy qilganligi tasvirlangan. Muallif o'zining ushbu asari orqali moddiy turmush dunyosiga g'arq bo'lib ketayotgan hamda o'zlarining kundalik ro'zg'orlari uchun bolalarini o'qitmasdan yoshligidanoq yugurdaklikka berib yuborayotgan qo'qonlik ota-onalarga xitob qilgan holda bolalarini o'qitishga, sifatli ta'lim olgan bola bir kun kelib o'zini ham ota-onasini ham boy qilishini ko'rsatib bergan.

Hamzaning "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" dramasiyaga olib chiqilishidan bosh maqsad-XX asrdagi o'zbek xalqining ijtimoiy ahvolini, ayniqsa, yosh avlodning hayotini, o'sha davr tuzumining insonlar hayotiga ta'sirini obrazlar orqali xalqqa ko'rsatib berishdan iboratdir.

Hamza bir maqolasida shunday fikrlarni keltirib o'tgan: "Agar bu ahvolda yashayversak, bir muddatdan so'ng bu bid'atlar orasida bir millat tug'ilib butun islom faqat ismi bor, jismi yo'q bir holg'a kelib qolur. O'zimizning bid'atlariga muhtalo bo'lg'onimiz yetar, o'zimizdan keyingi avlodlarimizning xurshid saodatlarin zavolga yetkurmeylik va hozirdan bu dardlarning davosiga kirishib, chorasini izlayluk...Buning kabi bid'at va majusiyat odatlarni yo'q qilmak uchun yolg'iz ikki kalima so'zni yaxshi tushunmak lozim: o'qimoq va o'qimoq".Hamza ta'kidlagan mana shu ikki kalima so'z hozirgi kunda ham yoshlarimiz uchun dasturilamal bo'lib xizmat qilishi lozim.

Bir jihatni e'tiborga olmoq lozimki, 1917-yilgi fevral inqilobigacha o'zbek havaskorlari tomonidan, ozarbayjon va tatarlarning yordamida sahnalashtirilgan pyesalarning takror-takror sahnaga qo'yilishi, haqiqatdan ham XX asr boshlaridagi teatr san'atining ulkan madaniy jonlanishidan nishona edi. Biroq, yuqorida nomlari zikr etilgan teatr asarlari o'z-o'zidan osonlikcha sahnaga olib chiqilmagan. Bu xususda teatr arbobi hamda o'sha dolg'ali yillarning bevosita guvohi bo'lmish Miyonbuzruk Solihov quyidagicha hikoya qiladi: "Nikolay podsholik mustamlaka apparatining qarashi Turkistondagi bu jonlanishga asosan dushmancha edi. U apparat o'z siyosatini biroz yumshatib, teatr qo'yushg'a quhsat bergan esada, bu sohani o'zining qattiq kontrolidan tashqarida ham qo'yimas edi. Biroq pyesa qo'yulmoq bo'lganda, muzofot gubernatoriga ariza berib, maxsus ruhsat olish majburiy edi. O'ynalishga bir marotaba ruhsat bo'lgan pyesa yana qaytadan qo'yulmoq bo'lganda ham yangidan ruhsat olish kerak bo'lurdi. Bu ruhsat olish masalasi osonlik bilan bo'lalurg'on oddiy muammolardan emasdi. Balki, bir qancha darajani o'tmagi lozim bo'lg'on chigal bir masala edi"[7]. Pyesani sahnalashtirish uchun ruhsat olish jarayonida byurokratik talab sifatida sahna asarini rus tiliga tarjima qilish ham lozim bo'lgan. Bundan tashqari spetakl qo'yilishi uchun ruhsat berishga mas'ul bo'lgan shaxs o'zining moddiy manfaatlarini ko'zlab pora so'rar, hatto pora asar qo'yilishidan tushgan pulning 50% dan ortiqroqni ham tashkil qilgan. Ana shunday og'ir buyurokratik talab va poraxo'rliklar sabab ham Behbudiyning "Padarkush" asari yozilganidan ikki yil o'tibgina sahnaga olib chiqilishiga ruhsat etilgan. O'z vaqtida Akmal Ikromov bu to'g'ridagi umumiy manzarani tasvirlab: "Inqilobdan burun har qanday shaharda milliy spetaklning qo'yulishi nodir hodisalardan sanalardi" deb, to'g'ri baho bergan edi. Qolaversa, Chor imperiyasi ma'murlarining sahna asarlariga nisbatan qo'ygan byurokratik talablari teatr afishalarida ham yaqqol namoyon bo'lgan. Masalan, har bir teatr afishasida "Hokimlarning ijozatlari ilan" yohud "Hokimlarning ruhsati bilan" so'zlari katta harflar bilan yozib qo'yilar edi. O'sha davrlarda bu so'zlar yozilmagan teatr afishalari nihoyatda oz bo'lgan[8].

Yuqoridagi dalillardan yaqqol ko'rinib turibdiki, Chor imperiyasining Turkistondagi ma'murlari milliy teatring xalqning ko'zini ochish, tafakkurini qayta shakllantirishdagi kuchini o'zlari uchun katta dushman deb bilganlar. Chindan ham, jadidlar xususan qo'qonlik taraqqiyparvarlar tomonidan yaratilib sahnaga olib chiqilgan spektakllar XX asr boshlaridagi Qo'qon xalqining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy tafakkur tarzini rivojlantirishga katta hissa qo'shdi.

#### ADABIYOTLAR

1. Rahmonov M. Hamza: O'zbek davlat akademik drama teatri tarixi. I kitob. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 2001. – B. 10.
2. Solihov Miyonbuzruk. O'zbek teatr tarixi uchun materiallar. –T.: Toshkent. Ўздаврnashr. 1935. – B. 19.
3. Mirzahamdamova D. Qo'qon xonligida milliy xalq tomosha san'ati va teatring shakllanishi // Central Asian Academic Journal Of Scientific Research. ISSN: 2181-2489 VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2022. – P. 480.
4. Solihov Miyonbuzruk. O'zbek teatr tarixi uchun materiallar. –T.: Toshkent. O'zdvamnashr. 1935. – B. 72.

5. "Oyina" jurnali. 1914-yil 17-son.
6. Solihov Miyonbuzruk. O'zbek teatr tarixi uchun materiallar. –T.: Toshkent. O'zdavnashr. 1935. – B. 72.
7. Solihov Miyonbuzruk. O'zbek teatr tarixi uchun materiallar. –T.: Toshkent. O'zdavnashr. 1935. – B. 85.
8. Solihov Miyonbuzruk. O'zbek teatr tarixi uchun materiallar. –T.: Toshkent. O'zdavnashr. 1935. – B. 86.



UDK: 950:930.2(045)

Asror PARDAYEV,  
Qarshi davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi  
E-mail: asrorpardayev1980@gmail.com

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti mudiri PhD G'.Karomov taqrizi asosida

### 1985-2021 YILLARDA QASHQADARYO VOHASI AHOLISINING KUNDALIK HAYOTI VA IJTIMOYIY TURMUSH SHAROITI MAVZUSINING MANBASHUNOSLIGI

Аннотация

Ma'lumki, Mustaqillik yillarida fuqarolarning turmush sharoitini yaxshilash maqsadida avvalo hayot ta'minoti uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish jumladan, aholini yangi ish o'rinlari, uy-joy, sog'liqni saqlash, maishiy xizmat ob'yektlari, maktablar, bolalar bog'chasi va boshqalar bilan ta'minlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Ushbu maqolada Qashqadaryo vohasi aholisining kundalik hayoti va ijtimoiy turmush sharoiti mavzusining manbaaviy asoslari tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, Qashqadaryo vohasi, arxiv hujjatlari, statistik to'plam, kundalik hayot, davriy matbuot, ijtimoiy turmush, demografik jarayon, aholi bandligi, kichik biznes, mehnat resurslari.

### ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ ТЕМЫ БЫТА И СОЦИАЛЬНЫХ УСЛОВИЙ ЖИЗНИ ЖИТЕЛЕЙ КАШКАДАРЬИНСКОГО ОАЗИСА В 1985-2021 ГГ

Аннотация

Как известно, в целях улучшения условий жизни граждан за годы независимости была проведена значительная работа по созданию необходимых условий для жизнеобеспечения, в том числе по обеспечению населения новыми рабочими местами, жильем, объектами здравоохранения, бытового обслуживания, школами, детскими садами и т.д. В данной статье анализируются исходные основы темы быта и социальных условий жизни жителей Кашкадарьинского оазиса.

**Ключевые слова:** Узбекистан, кашкадарьинский оазис, архивные документы, статистический сборник, быт, периодическая печать, социальная жизнь, демографический процесс, занятость населения, малый бизнес, трудовые ресурсы.

### THE SOURCE OF THE TOPIC OF EVERYDAY LIFE AND SOCIAL LIVING CONDITIONS OF THE INHABITANTS OF THE KASHKADARYA OASIS IN 1985-2021

Annotation

As you know, in order to improve the living conditions of citizens in the years of Independence, significant work was carried out primarily on creating the necessary conditions for the provision of life, including providing the population with new jobs, housing, health, household service facilities, schools, kindergartens, etc. This article analyzes the source material of the topic of everyday life and social living conditions of the population of the Kashkadarya Oasis.

**Key words:** Uzbekistan, Kashkadarya Oasis, archival documents, statistical collection, daily life, periodical press, social living, demographic process, employment of the population, small business, labor resources.

**Kirish.** O'zbekiston tarix fani oldiga qo'yilayotgan dolzarb vazifalarni hal qilish uchun jahon tarixshunosligidagi yangi yo'nalishlarni o'rganish muhimdir. Shunday yangi yo'nalishlardan biri «kundalik hayot tarixi» yo'nalishi bo'lib, uning predmeti inson kundalik hayotini turli tarixiy-madaniy, siyosiy, etnik va konfessional kontekstda o'rganishdir.

Shu ma'noda 1985-2021 yillardagi Qashqadaryo vohasi aholisining kundalik hayoti va ijtimoiy turmush sharoitini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** 1985-2021 yillarida Qashqadaryo vohasi aholisining kundalik hayoti va ijtimoiy turmush sharoiti mavzusining mohiyatini ochib berishda manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan tadqiqot mavzusining manbaviy asosini shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Arxiv hujjatlari va materiallari.
2. Statistik to'plamlar.
3. Nashr qilingan hujjat va materiallar to'plamlari.
4. Davriy matbuot materiallari.
5. Dala etnografik materiallar.

Xususan, O'zbekiston Milliy arxivi (O'ZR MA) da saqlanayotgan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi (M-7-fond), O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi (M-26-fond), O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi (M-38-fond), O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (M-130-fond) lardan foydalanildi. M-26-fondga O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sohasida amalga oshirilgan ishlar, viloyat va tumanlardagi maktablarning ahvoli, jumladan, Qashqadaryo viloyatida 1991 yilda Qarshi pedagogika va Shahrisabz pedagogika bilim yurti bitiruvchilarining soni, ularning ishga joylashuvi, maktablarda o'qitilayotgan chet tili fanlari va ulardagi o'qituvchilar soni haqida batafsil ma'lumot berilgan[1].

Qashqadaryo viloyat davlat arxiviga tegishli O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi Qashqadaryo viloyat xokimligi madaniyat ishlari boshqarmasi (S-390-fond), (M-687-fond), Viloyat ijtimoiy ta'minot bo'limi (142-fond), Qashqadaryo oblast ijroi qo'mitasi sog'liqni saqlash boshqarmasi (S-193-fond), Qashqadaryo viloyat halq ta'limi boshqarmasi (S-249-fond), (M-703-fond), Viloyat statistika boshqarmasi (285-fond), Qashqadaryo viloyat madaniyat va sport ishlari boshqarmasi (567-fond), Viloyat o'rta maxsus ta'lim boshqarmasi (728-fond), Qarshi davlat universiteti (683-fond), Qarshi muxandislik iqtisodiyot instituti (538-fond), Toshkent axbobrot texnologiyalar instituti (658-fond) larida saqlanayotgan sohaga oid xujjatlar va materiallardan foydalanildi[2].

Jumladan, M-687-fondga saqlanayotgan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi Qashqadaryo viloyat xokimligi madaniyat ishlari boshqarmasining xujjatlarida viloyatdagi aholining madaniy dam olishi uchun xizmat qilayotgan kutubxonalar, madaniyat saroylari, kungilochar bog'lar hamda viloyat miqosida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar ilk marotaba muomalaga kiritildi.

Bundan tashqari, S-193-fondga tegishli Qashqadaryo oblast ijroi qo'mitasi sog'liqni saqlash boshqarmasining 1986-1990 yillardagi sohaga oid hisobotlar, viloyatdagi kasalliklar buyicha barcha tumanlarda o'tkazilgan tadbirlar, boshqarma kengash qarorlariga doir ma'lumotlardan tadqiqotni yoritishda keng foydalanildi.

Shuningdek, M-703-fondga saqlanayotgan Qashqadaryo viloyat halq ta'limi boshqarmasiga tegishli xujjatlarida mustaqillik yillarda umumiy o'rta ta'lim tizimida amalga oshirilgan ishlar, maktablarning ahvoli, boshqarma tomonidan o'tkazilgan majlis qarorlari tahlil qilindi.

Muammoni o'rganish jarayonida, Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivida saqlanayotgan Qashqadaryo oblast komiteti (1-

fond), Chiroqchi rayon komiteti (5-fond), Yakkabog' rayon komiteti (8-fond), Kitob rayon komiteti (17-fond), Nishon rayon komiteti (604-fond), Muborak shahar komiteti (767-fond), Qashqadaryo viloyat hokimligi (829-fond), G'uzor tumani hokimligi (845-fond), Qarshi tumani hokimligi (846-fond), Qarshi shahar hokimligi (852-fond), Qamashi tumani hokimligi (850-fond), Koson tumani hokimligi (851-fond), Chiroqchi tumani hokimligi (853-fond), Shahrisabz tumani hokimligi (856-fond), Yakkabog' tumani hokimligi (857-fond), Muborak tumani hokimligi (858-fond), Nishon tumani hokimligi (859-fond), Kitob tumani hokimligi (860-fondlar) da saqlanayotgan xujjatlardan tadqiqotni yoritishda xizmat qiladigan juda qimmatli ma'lumotlar olindi[2].

Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivida saqlanayotgan 1-fondga saqlanayotgan xujjatlarda 1985-1991 yillarga oid Qashqadaryo oblast komitetining o'tkazgan majlis bayonnomalari, sog'liqni saqlash, ta'lim, uy-joy qurilish sohasi, ijtimoiy masalalar va tumanlardagi qishloq xo'jaligidagi holatlar buyicha xujjatlar muammoni o'rganishda muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, viloyat hokimligi arxivida saqlanayotgan 5,8,17, 604 va 767-fondlarda 1985-1991 yillarga tegishli rayon partiya komitetlarining yig'ilish bayonnomalari, qarorlaridan ham tadqiqotni yoritishda foydalanildi.

Bundan tashqari, Qashqadaryo viloyati va tuman hokimliklarining mustaqillik davriga oid 829, 845, 846, 850, 851, 852, 853, 856, 857, 859, 860-fondlarida saqlanayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohaga oid xujjatlar mazkur muammoni talqin qilishda muhim o'rin tutadi[2].

Muammoni tadqiq qilish jarayonida ikkinchi guruhga kiritilgan turli yillarda nashr qilingan statistik to'plamlardan ham keng foydalanildi. Jumladan, 1989 yilda Moskvada nashr qilingan "Naseleniya SSSR 1988" nomli statistik to'plam, 1995 yilda nashr etilgan O'zbekiston v sifraz kratkiy statisticheskey sbornik, 2008, 2014, 2015, 2016, 2018, 2019, 2021 yillarda nashr etilgan O'zbekiston respublikasining yillik statistik to'plamlari, 2016-2019 yillarda O'zbekistonda mehnat va bandlik, Qashqadaryo viloyatining 2021-yil yanvar-dekabr statistik axborotnomasi, 2017-2021 yillardagi O'zbekiston demografik yillik to'plamlaridagi ma'lumotlardan foydalanildi[2].

Ushbu statistik to'plamlarda viloyatning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari, aholining demografik ko'rsatkichlari, to'g'rilash, o'lim va aholining tabiiy ko'payishi, go'daklar o'limi va sabablari, mehnat resurslari va va aholi bandligi masalalari, aholining turmush darajasi va daromadlari, maktabgacha va umumta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari, ulardagi tarbiyalanuvchilar va o'quvchilar soni, sog'liqni saqlash tizimidagi asosiy ko'rsatkichlar haqidagi ma'lumotlar olindi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotni yozishda birinchi guruhga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi, Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, viloyat va tumanlar arxivlarida saqlanayotgan fondlardagi materiallardan keng foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Bundan tashqari, tadqiqotni yoritishda uchinchi guruhga tegishli 1999-2022 yillarda nashr qilingan Qashqadaryo viloyatini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy pasportlarida juda qimmatli ma'lumotlardan foydalanildi. Ushbu pasportlarda viloyatning hududiy tarkibi, viloyat aholisining joylashishi, mahalliy byudjetning bajarilishi, demografik holat, aholining tabiiy o'zgarishi, mehnat resurslari, ijtimoiy infratuzilma, iqtisodiyotda band bo'lgan

aholi, viloyat bo'yicha barcha sohada ishlovchilarning o'rtacha ish haqi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, viloyat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kichik biznesning salmog'i, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish haqidagi ma'lumotlar ilk marotaba tahlil qilindi

Shuningdek, 2016 yilda "O'zbekiston" nashriyotida nashr qilingan "Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ma'lumotlar bazasi" deb nomlangan fundamental nashrda viloyat va tumanlar umumiy ma'lumotlar, qisqacha tarixi, viloyat va tumanlar aholisining soni va tarkibi, ijtimoiy-iqtisodiy sohada amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma'lumotlar tadqiq etildi.

Qashqadaryo vohasi aholisining kundalik hayoti va ijtimoiy turmush sharoiti mavzusini yoritishda viloyat va tumanlarning davriy nashrlari hisoblangan "Qashqadaryo haqiqati" (viloyat nashri), "Kommunizm alangasi", "Istiqbol", "Naxshab" (Qarshi tumani), "Kommunizm uchun", "Qamashi haqiqati" (Qamashi tumani), "Sharq Yulduzi", "Koson" (Koson tumani), "Yangi xayot", "G'uzor" (G'uzor tumani), "Dehqonobod ovozi" (Dehqonobod tumani), "Olg'a", "Chiroqchi" (Chiroqchi tumani), "Kesh" (Shahrisabz tumani), "Avangard" (Yakkabog') tumani, "Shonli yul", "Mirishkor mash'ali" (Mirishkor tumani), "G'alaba", "Kitob tongi" (Kitob tumani), "Leninchi", "Sadoqat" (Kasbi tumani), "Do'stlik bayrog'i", Muborak hayoti (Muborak tumani) gazetalardan dissertatsiya uchun muhim materiallar olindi[2].

Dala etnografik materiallar manbalarning to'rtinchi guruhiga kiritilib, unda asosan, viloyatning deyarli barcha tumanlaridan og'zaki tarix ma'lumotlarini axborotchilar bilan muallif tomonidan bevosita suhbat natijasida olingan ma'lumotlar va jamiyatning barcha jabhalarida mehnat qilayotgan 400 kishidan olingan ijtimoiy-so'rovnoma natijalari ilmiy muomalaga kiritilgan.

Jumladan, Kitob tumani, Hazrati Bashir qishlog'idan Norov Nomoz, Yakkabog' tumani, Kalta qul qishlog'idan Normonov Hamza, Qamashi tumani, Changakbuloq qishlog'idan Nomozov Shoyim, Dehqonobod tumani, Tarqoqchug'oy qishlog'idan Ibragimov Ziyodulla, Qamashi tumani, Mirzadala qishlog'idan Paradev Abdujabbor, Chiroqchi tumani, Paxtaobod qishlog'idan Qodirov Og'abek, Koson tumani, Guliston qishlog'idan Omonniyozov Ro'ziqul, Muborak tumani, Qarliq qishlog'idan Xo'jamurodov Xusan, G'uzor tumani, Dashtobod qishlog'idan To'rxonov Ibroxim, Mirishkor tumani, Elobod qishlog'idan Aliqulov Sheralilar bilan muallifning suhbatida Qashqadaryo vohasi aholisining yuqori va quyi zonalarning kundalik hamda xo'jalik hayotidagi o'ziga xos xususiyatlar, hududlardagi ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarining ahvoli haqida, Yakkabog' tumani, Serob qishlog'idan To'xtayev Quvvatali, Kitob tumani, Jilisuvi qishlog'idan Doniyorov Jumanazar, Dexqonobod tumani, Oqrobdan qishlog'idan Abdiyev Boybo'ri, G'uzor tumani, Dashtobod qishlog'idan Qulboyev Sherali, Nishon tumani, 23 savxozdan Egamberdiyev Muzaffarlar bilan suhbatda esa, asosan mehnat migratsiyasi haqidagi ma'lumotlar yozib olingan.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, Shu tariqa, tadqiqot ishini yozishda arxiv hujjatlari, rasmiy hujjatlar va materiallar, statistik to'plamlar, davriy matbuot materiallari, og'zaki tarix ma'lumotlari muhim manba vazifasini o'tab, ularning aksariyatidagi hali keng jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan juda ko'plab yangi ma'lumotlar to'planib, ilmiy muomalaga kiritildi.

## ADABIYOTLAR

1. ЎзР МА. 26-фонд, 1-рўйхат, 300-иш, 2-варақ; 400-иш, 2,3-варақ, 458-иш, 25, 26, 29-варақлар.
2. Qashqadaryo viloyati hokimligi arxivi:
3. 5-жамғарма Чирокчи район комитети
4. 8-жамғарма Яккабоғ район комитети
5. 17-жамғарма Китоб район комитети
6. 604-жамғарма Нишон район комитети
7. 767-жамғарма Муборак шаҳар комитети
8. 829-жамғарма Қашқадарё вилоят ҳокимлиги
9. 845-жамғарма Ғузор тумани ҳокимлиги
10. 846-жамғарма Қарши тумани ҳокимлиги
11. 850-жамғарма Қамаш тумани ҳокимлиги
12. 851-жамғарма Косон тумани ҳокимлиги
13. 853-жамғарма Чирокчи тумани ҳокимлиги
14. 857-жамғарма Яккабоғ тумани ҳокимлиги
15. 858-жамғарма Муборак тумани ҳокимлиги
16. 859-жамғарма Нишон тумани ҳокимлиги
17. 860-жамғарма Китоб тумани ҳокимлиги
18. 614-жамғарма – Ўзбекистон Маҳалла хайрия жамғармаси, Қашқадарё вилоят маҳалла бўлими



19. 687-Ўзбекистон Республикаси Маданият ишлари вазирлиги Қашқадарё вилоят =оқимлиги маданият ишлари бошқармаси
20. “Халқ сўзи”.
21. “Қашқадарё ҳақиқати” (вилоят нашри).



UDK: 94(575.1) : 61(091)

*Ruxiddin PATXIDDINOV,*  
NamMTI katta o'qituvchisi, PhD  
E-mail: ruxiddinpatxiddinov@gmail.com

NamDU professori, A.Rasulov taqrizi asosida

## TURKISTON ASSRDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINING TASHKIL ETILISHI TARIXIDAN (FARG'ONA VILOYATI MISOLIDA)

Annotatsiya

Maqolada Oktyabr davlat to'ntarishidan Turkiston sog'liqni saqlash tizimida yuz bergan o'zgarishlar tahlil etilgan. Bu davrda yuz bergan ocharchilik, yuqumli kasalliklarning kuchayishi, tibbiyot xodimlari, inventarlari va dori-darmon yetishmovchiligi sharoitida sog'liqni saqlash tizimining holati o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Sog'liqni saqlash komissarligi, epidemiyalar, ocharchilik, kasalxona, ambulatoriya.

## FROM THE HISTORY OF THE ORGANIZATION OF THE HEALTH CARE SYSTEM IN THE TURKESTAN ASSR

Annotation

This article analyzes the changes that have occurred in the healthcare system of Turkestan since the October coup d'état. The state of the health care system was studied in the context of famine, increase of infectious diseases, lack of medical personnel, inventories and medicines during this period.

**Key words:** Health commissariat, epidemics, famine, hospital, outpatient clinic.

## ИЗ ИСТОРИИ ОРГАНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ В ТУРКЕСТАНСКАЯ АССР

Аннотация

В данной статье анализируются изменения, произошедшие в системе здравоохранения Туркестана после октябрьского государственного переворота. Изучено состояние системы здравоохранения в условиях голода, роста инфекционных заболеваний, нехватки медицинского персонала, инвентаря и медикаментов в этот период.

**Ключевые слова:** Наркомат здравоохранения, эпидемии, голод, больница, амбулатория.

**Kirish.** 1917-yil Fevral inqilobi va 1917-yil Oktyabr davlat to'ntarishi Turkiston o'lkasiga ham o'z ta'sirini o'tkazib, Rossiya mustamlakachilik siyosatining yangi davrini boshlab berdi. Fevral inqilobidan so'ng Rossiyada hokimiyat Muvaqqat hukumat qo'liga o'tdi. Muvaqqat hukumat tomonidan 1917-yil 7-aprelda tasdiqlangan Turkiston qo'mitasi Turkiston o'lkasidagi mustamlakachilik siyosatini davom ettirdi. Turkiston qo'mitasi boshqaruvi davrida Turkiston o'lkasi sog'liqni saqlash tizimi o'zgarishsiz qoldirildi. Ammo Oktyabr to'ntarishidan so'ng, sog'liqni saqlash tizimida katta o'zgarishlar ro'y berdi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Turkiston ASSRda sog'liqni saqlash tizimining yo'lga qo'yilishining turli masalalari sovet davrida A.I.Pokrovskiy, G.I.Dembo, L.F.Paradoksov, I.K.Seyfulmulyukov, I.Pogosyans, V.Bolkunov hamda mustaqillik yillarida M.Maxmudov, G.Mo'minova, S.B.Shadmanova, G'.Karomovlarning tadqiqotlarida yoritilgan. Sovet davrida yaratilgan adabiyotlarda masalaga hukmron mafkura nuqtayi nazaridan yondashilgan bo'lib, bu davrda yuz bergan ocharchilik va epidemiyalarning kuchayishi bilan bog'liq muammolarga yetarli e'tibor berilmagan. Mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlarda esa, Turkiston o'lkasi tibbiyoti tarixining turli jihatlarida ancha keng yoritila boshlandi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda tarixiylik va xolislik tamoyillari asosida qiyosiy, muammoli, tizimli va miqdoriy tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** 1917-yil Oktyabr davlat to'ntarishidan so'ng, 1917-yil 1-noyabrda Toshkentda ham sovet hokimiyati o'rnatildi. Siyosiy to'ntarishdan ko'p o'tmay bo'lib o'tgan Turkiston o'lka sovetlarining III qurultoyida F.Kolesov boshchiligida Turkiston xalq komissarlari soveti (XKS) tuzildi. Turkiston XKS tarkibida sog'liqni saqlash xalq komissari (SSXX) etib N.F.Barankin tayinlandi. Oradan bir hafta o'tib, N.Barankin o'z xohishi bilan iste'foga chiqdi. Uning o'rniga, K. Uspenskiy tayinlandi. Sog'liqni saqlash xalq komissarligini 1918-yil apreldan 1918-yil oktyabrga qadar S.Tursunxo'jayev, 1918-yil oktyabrdan 1918-yil dekabr boshlarigacha T.Risqulov, biroq muddat G.Trofimov, 1918-yil dekabridan 1919-yil dekabrighacha I.Orlov, 1919-yil dekabridan 1920-yil 9-yanvargacha S.D.Asfendiyorov, qisqa muddat K.Geller, S.Dashev, 1920-yil iyulidan yana S.Asfendiyorov, 1922-1923-yil aprelogacha L.Gelfgot, 1923-yil apreldan 1924-yilgacha uchinchi marta S.Asfendiyorov

boshqardi[1]. Sog'liqni saqlash tizimidagi rahbar kadrlarning qo'nimsizligi, o'lkada tibbiyot ishini yo'lga qo'yishga salbiy ta'sir o'tkazdi. Rahbar kadrlarning tez-tez almashinuviga o'lkadagi og'ir inqiroz va siyosiy kurashlar sabab bo'ldi.

Sobiq SSSRning birinchi sog'liqni saqlash komissari lavozimida ishlagan Semashko o'z maqolasida: "Sovet tibbiyotining asosi – barcha uchun malakali, bepul tibbiy xizmat ko'rsatishdir" deb qayd etib o'tgan edi[2]. Sovet hukumati sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishga harakat qilib, o'lkadagi barcha sog'liqni saqlash va veterinariya ishlarini Turkiston SSXX qo'lida to'plashga harakat qildi. 1918-yil 18-iyulda Turkiston XKS tomonidan imzolangan hujjatga ko'ra, amalda 4 qism: harbiy-sanitar, harbiy-xalq, temir yo'l, shahar-qishloq tibbiyot muassasalariga bo'linib ketgan sog'liqni saqlash va veterinariya ishlarini Turkiston SSXXga bo'ysundirildi[3]. Ammo bu jarayon juda sekin amalga oshirildi va to'la amalga oshmadi. Xususan, 1919-yil 7-iyunda Turkiston XKS qarori bilan Aloqa yo'llar komissarligi ixtiyorida barcha tibbiy-sanitariya ishlarini barcha xodimlari, inventar, bino va hujjatlari bilan Turkiston SSXX ixtiyoriga o'tkazildi[4]. Shuningdek, Turkiston frontining sanitariya qismi tuzilib, Sog'liqni saqlash xalq komissarligidan alohida faoliyat olib borgan.

Turkiston SSXX faoliyati davomida bir necha marta qayta tashkil etildi. Dastlab, komissarlik tarkibida 10 ta bo'lim va 27 ta bo'linma tashkil etilib, ularga 195 nafar shtat birligi ajratildi. Shuningdek, xuddi shu tartibda 63 nafar shtat birligidan iborat viloyat sog'liqni saqlash boshqarmalari, 26 nafar shtat birligidan iborat uyezd sog'liqni saqlash bo'limlari tashkil etildi[5]. Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmalariga 63 ta shtat ajratilgan bo'lsa-da, amalda 10-12 kishi ishlagan. Uyezdlarda ham ajratilgan 26 shtat birligi o'rniga 3-4 kishi ishlagan. Faqatgina Marv va Toshkent uyezdlarida 10-12 kishi faoliyat ko'rsatgan. 1921-yil dekabrda Turkiston SSXX qayta tashkil etilib, xodimlar soni 138 taga kamaytirildi va 5 ta bo'linma tugatilib, o'rniga inspektorlar tayinlandi. Viloyat va uyezd sog'liqni saqlash boshqarmalarida ham xodimlar soni mos ravishda 35 va 16 taga kamaytirildi. 1921-yil 1-aprelda Turkiston SSXX tarkibidagi bo'limlar 6 taga, xodimlar 70 nafarga kamaytirildi[6].

Sovet hukumati sog'liqni saqlash bo'limlari to'la tartibda ishlashini ta'minlay olmadi. 1923-yil boshida Farg'ona viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasining shtat birligi 35 kishidan iborat bo'lsa-da, amalda 30 kishi ishlagan. Yil davomida qisqarishga uchrab,

1923-yil oktyabrda kelib 11 kishi qoldi. Sog'liqni saqlash tizimida boshqaruv xodimlarining yetarli emasligiga asosan, malakali tibbiy xodimlarning yetishmasligi sabab bo'lgan. Ayniqsa, uyezd sog'liqni saqlash bo'limlarida ahvol og'ir bo'lgan. Uyezd sog'liqni saqlash bo'limlari o'z boshqaruv apparatining yordamga muhtojligi va tartibsizligi natijasida faoliyatini to'la yo'lga qo'ya olmagan. Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi bilan aloqalar juda past darajada bo'lgan: boshqarma tomonidan chiqarilgan qarorlar, ayniqsa dorixonalar faoliyatiga oid qarorlar hayotga tatbiq etilmagan. Statistika umuman yuritilmagan. Ko'p hollarda sog'liqni saqlash ishlari faqatgina shaharlarning o'zigagina tatbiq etilgan. Sog'liqni saqlash bo'limlarining byudjet hisobiga o'tkazilishi uyezd sog'liqni saqlash bo'limlari va xizmatchilarning sabrini to'ldirgan.

Masalan, Namanganda 1923-yil 5-oktyabrda kelib, yanvar oyidan boshlangan tibbiyot xodimlarining maoshidagi qarzdorlik kerakli vedomostlarning tayyorlanmagani tufayli to'lanmay qolgan. 1-iyulga qadar Sog'liqni saqlash bo'limlariga jo'natilgan 5,5 milliard rubl mablag' kerakli hujjat ishlari bajarilmagani tufayli bankda 1,5 hafta qolib ketgan. 1-iyuldan 1-oktyabrda qadar bo'lgan qarzdorlik ham xuddi shu sabablarga ko'ra kechikkan. Sog'liqni saqlash tizimining mahalliy byudjet hisobiga o'tkazilishi uyezd sog'liqni saqlash bo'limlari faoliyatini yanada qiyinlashtirgan[7].

Farg'ona viloyatida tibbiyot xodimlarining yetishmasligi Birinchi jahon urushi (1914-1918) tufayli shifokorlarning harbiy xizmatga chaqirilishi va moliyaviy muammolar tufayli boshlangan edi. Masalan, 1918-yil aprelda Chust shahridan Farg'ona viloyat sovetiga yozilgan xatdan ma'lum bo'lishicha, 1917-yil dekabrda Chust shahar shifokori Geyshtor maosh berilmagani tufayli ishdan ketib qolgan. Uning o'rniga tayinlangan tajribasiz feldsher Balux ham ayni shu sababdan ishga kelmay qo'ngan. Chust shahar kasalxonasida dori-darmon va inventarlar deyarli yo'q edi[8]. 1918-yil avgust oyida Izboskan, Jalolobod va Qo'rg'ontepa uchastka kasalxonalari ham shifokorlar yo'qligi tufayli bir yildan beri feldsherlar tomonidan boshqarilgan[9]. Muvaqqat byudjet hukumat, keyinchalik Sovet hukumati tibbiy kadrlar yetishmasligini Turkiston o'lkasiga jo'natilgan harbiy asirlar orasidan tibbiy xodimlarni ishga yollash harakat qildi. Xususan, 1917-yil 25-martda Turkiston harbiy okrugi Intendantni buyrug'i bilan harbiy asirga tushgan sanitarlar nafaqa bilan ta'minlanib, kichik sanitar darajasiga tenglashtirildi[10]. Turkiston SSSX 1919-yil 14-aprelda sobiq harbiy asir bo'lgan shifokorlarning ro'yxatini "Izvestiya" gazetasida chop etib, barcha dorixonalarga ularning retseptlariga asosan dori-darmon berilishi mumkinligi to'g'risida qaror chiqardi[11]. Ammo, chet ellik shifokorlarning o'z vataniga reevakuatsiya qilinishi va epidemiyalar natijasida tibbiy xodimlarning vafot etishi tufayli tibbiy kadrlar yetishmovchiligi kuchaygan. Agar tibbiy xodimlar kasal bo'lib qolsa, ularni almashtirish uchun zaxira kadrlar mavjud bo'lmagan. Tibbiy xodimlarning ishlash sharoitlari juda og'irligi, moddiy ta'minoti yetarli bo'lmagani natijasida epidemiyalar davrida tibbiyot xodimlarining 25 foizi vafot etdi[12]. Masalan, Turkiston o'lkasida sodir bo'lgan terlama epidemiyalari davrida tibbiyot xodimlarining 50 foizi shu kasallikka yo'liqib, ularning 25 foizi vafot etdi. Boshqa kasbdagi bemorlarda o'lim darajasi 8-9 foizni tashkil etgan holda, tibbiyot xodimlari orasida o'lim holatlarining yuqoriligi, ularning moddiy ta'minoti past bo'lganidan dalolat beradi[13]. Namangan uyezd-shahar sog'liqni saqlash boshqarmasining 1920-yil 20-sentyabrda hisobotiga ko'ra, Namangan shahridagi kasalxona va ambulatoriyalarda 6 nafar shifokor va 6 nafar tibbiy yordamchilar xizmat qilgan. Shaharda xizmat qilgan chet el fuqarosi bo'lgan 2 nafar shifokorlarning o'z vataniga qaytishi tufayli ularning o'rniga shifokor zarur bo'lgan[14].

Farg'ona viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasining 1921-yil 2-avgustdagi Turkiston sog'liqni saqlash xalq komissarligiga yozgan xatidan ma'lum bo'lishicha, viloyatdan chet el shifokorlarining chiqib ketishi va bir qancha tibbiyot xodimlarining o'limi tufayli bir nechta shifoxonalar shifokorsiz qolib ketgan. Xususan, Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan 32 ta kasalxona va 28 ta ambulatoriyalarda faqatgina 16 nafar shifokor faoliyat olib borgan. Shifokorlar va tajribali tibbiy yordamchilarning yetishmovchiligi tufayli, aholiga tibbiy yordam ko'rsatish harbiy davrda ta'lim olgan tajribasiz tibbiy yordamchilar qo'liga o'tdi va bu asta-sekinlik bilan ambulator punktlar va hatto kasalxonalarining faoliyatini to'xtatib qolishiga sabab bo'ldi. Qizilqiya, Chimyon, Sulyukta, Santo kabi yirik korxonalariga tegishli kasalxonalarda xam shifokorlar qolmagan. Qo'qon shahridagi 110 o'rinli jarrohlikka ixtisoslashtirilgan kasalxonada ham faqatgina bir nafar shifokor va ikki nafar tibbiy yordamchi bor edi, xolos. Birgina shifokor ham boshliq, ham maslahatchi, ham ordinator vazifalarini bajarishiga to'g'ri kelgan. Farg'ona viloyat sog'liqni

saqlash boshqarmasi ko'p marta shifokorlar yuborishini so'rab murojaat qilgan bo'lsa-da, Turkiston sog'liqni saqlash xalq komissarligi tomonidan bu talablar bajarilmagan. 1921-yil 5-sentyabrda yuborilgan 3 nafar shifokorlar ham bir oy o'tgach, ortlariga qaytib ketgan[15]. 1921-yil 30-mart holatiga ko'ra, Qo'qon shahrida 100 o'rinli shahar kasalxonasi, 20 o'rinli ayollar kasalxonasi, 60 o'rinli terapevt kasalxonasi, 30 o'rinli tug'ruqxona, 40 o'rinli quloq, tomoq, burun kasalliklari kasalxonasi, 55 o'rinli yuqumli kasalliklar baraklari, 40 o'rinli bolalar kasalxonasi mavjud bo'lgan. Qo'qon shahrida viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasiga 3 nafar, kasalxonalariga 7 nafar, sanitar-epidemiologik nazoratga 3 nafar, maktablarga 3 nafar, sanitar-ta'lim ishlari uchun 2 nafar, jami 18 nafar shifokor zarur bo'lgani holda, 10 nafar shifokor faoliyat ko'rsatgan[16].

1921-yil 6-9-iyun kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston o'lkasi sog'liqni saqlash bo'limlari syezida shifokorlar yetishmovchiligi qayd etildi. Ayniqsa, Farg'ona viloyati va Mirzacho'l uyezdida ahvol og'ir edi. Tibbiy kadrlar yetishmovchiligi faqatgina markazdan shifokorlar jalb etish orqali bartaraf etish mumkin edi[17]. Rossiya sog'liqni saqlash komissari Semashko Turkistonga 150 nafar shifokor yuborishini va'da bergan bo'lsa-da, markazdan atigi 15 nafar shifokor jo'natilgan[18].

Farg'ona viloyatida tibbiy xodimlarning bir qismi moddiy ahvolning yomonligi tufayli boshqa kasblar bilan shug'ullanishga majbur bo'lgan. Sovet hukumati tibbiyot xodimlarining yetishmovchiligi ortidan, ularni majburan tibbiyot sohasiga qaytarishga qaror qildi. Turkkommissiya va Turkiston XKSning 1921-yil 27-dekabrda 290-sonli buyrug'iga asosan, Farg'ona viloyat revkomi 1922-yil 23-yanvarda barcha tibbiy xodimlarni, qaysi lavozimda ishlashidan qat'iy nazar, tibbiyot muassasalariga qaytarish to'g'risida qaror chiqardi[19].

Shifokorlarning harbiy xizmatga chaqirilishi ham sog'liqni saqlash ishini tashkil etishga salbiy ta'sir etgan. 1919-yilda Qo'qon shahar shifoxonasi qoshida Farg'ona viloyat tibbiyot jamiyati tashabbusi bilan kimyo-bakteriologiya laboratoriyasi tashkil etiladi.

Laboratoriyaga Farg'ona shahridagi barcha kasalxonalar laboratoriyalari va veterinar shifokor Shmelevning xususiy laboratoriyasi jihozlari birlashtirildi. Ushbu laboratoriyani shifokor Samsonov boshqargan. Lekin 1919-yil dekabrda shifokor Samsonov ikkinchi Turkdiviziya sanitar-gigiyena otryadi boshlig'i tomonidan harbiy xizmatga chaqiriladi. Shifokor Samsonov o'z sohasi bo'yicha Farg'ona viloyatidagi yagona mutaxassis edi. Shu sababdan, laboratoriya faoliyati to'xtab qoldi va laboratoriyaga tegishli barcha inventarlar mahalliy hospitalga o'tdi. Turkdiviziya sanitar bo'limi boshlig'i Ter-Grigoriyansning buyrug'i bilan laboratoriya jihozlari Toshkentga jo'natildi. Natijada Farg'ona viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi kimyo-bakteriologiya laboratoriyasiz qoladi[20]. Mazkur davrda epidemiyalar keng tarqalganini hisobga olinsa, kimyo-bakteriologiya laboratoriyasi Farg'ona viloyati uchun suv va havoday zarur edi. Shu sababdan, Farg'ona viloyat tibbiyot jamiyati laboratoriyani qaytarish uchun jiddiy ravishda harakat qildi.

Sog'liqni saqlash ishini tashkil etishda asosiy qiyinchiliklar sohaga yetarli mablag'lar ajratilmagani, moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi sababli yuzaga keldi. 1921-yil 6-9-iyundagi Turkiston o'lkasi sog'liqni saqlash bo'limlari syezida qayd etilishicha, o'lkada sog'liqni saqlash tizimi qiyin ahvolda qolgan. Kasalxonalar ta'mirlalab holatga kelib qolgan, xo'jalik inventarlarida jiddiy tanqislik mavjud edi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysidagi ahvol nihoyatda og'ir edi. Hamomlarning yoqilg'i bilan ta'minlanmasligi natijasida, qichima kasalligi ko'payib ketgan. Sanitarlar soni juda kam, borlari ham ish og'irligidan ketib qolgan. Kasalxonalar ham yoqilg'i bilan ta'minlanmasligi tufayli kuz-qish mavsumida o'rinlar ikki marta kamayishi mumkin edi[21]. 1921-yilda yangi iqtisodiy siyosatning e'lon qilinishi ortidan, 1922-yildan tibbiyot muassasalari mahalliy byudjetlar hisobiga o'tkazildi. Barcha viloyatlarda tibbiyot muassasalari mahalliy byudjet hisobiga o'tkazilishida imkoniyatlar hisobga olinmagani oqibatida jiddiy qisqarishga uchradi.

1921-yilda Farg'ona viloyatida 55 ta tibbiyot muassasasi, shundan 3 ta kasalxonadan tashqari dorixon va 3 ta aralash dorixon va 27 ta ambulatoriya, 10 ta stomatologiya ambulatoriyasi, 1 ta stomatologiya texnik laboratoriyasi faoliyat ko'rsatdi. Mazkur tibbiyot muassasalarida 35 nafar shifokor, 29 nafar akusher, 98 nafar tibbiy yordamchi, 10 nafar tish shifokorlari, 26 nafar farmatsevtlar, jami 234 nafar tibbiyot xodimlari va 766 nafar texnik xo'jalik xizmatchilari faoliyat ko'rsatgan. Kasalxonalaridagi moliyaviy qiyinchiliklar tufayli, tibbiy xodimlarning faoliyat ko'rsatishi yanada qiyinlashdi. 1922-yilning dastlabki ikki yarim oyi davomida Farg'ona sog'liqni saqlash

boshqarmasiga yuqori organlardan hech qanday yordam berilmadi. Natijada tibbiyot xodimlari ishdan keta boshladi. Aprel oyida ozroq pul bilan ta'minlangan bo'lsa-da, bu ko'p vaqtga yetmadi. Tibbiyot xodimlarini oziq-ovqat bilan yetarli ta'minlamagan: belgilangan unning 50 foizi va guruchning 30 foizi berilgan, boshqa hech narsa berilmagan[22].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Sovet hukumati sog'liqni saqlash sohasida kadrlar, dori-darmon, tibbiy

inventarlar yetishmasligi, shifokor va kasalxonalariga moddiy ta'minotning yetarli emasligi kabi muammolarga duch keldi. Sovet hukumati mazkur muammolarni hal etishga harakat qilib, bir qator ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirgan bo'lsa-da, qiyin iqtisodiy-ijtimoiy inqiroz sharoitida ko'rilgan choralar yetarli bo'lmadi. Bu esa, aholi sonining keskin qisqarishiga sabab bo'ldi.

#### ADABIYOTLAR

1. Мўминова Г. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизими тарихи (1917-1991 йиллар). Тошкент: Янги нашр, 2015. – Б. 55.
2. O'z MA, R.17-fond, 1-ro'yxat, 1107- yig'ma jild, 159-varaq.
3. O'z MA, R.40-fond, 1-ro'yxat, 1- yig'ma jild, 50-51-varaqlar.
4. O'z MA, R.25-fond, 1-ro'yxat, 208- yig'ma jild, 5-varaq.
5. O'z MA, R.40-fond, 1-ro'yxat, 138- yig'ma jild, 307 varaq.
6. O'z MA, R.40-fond, 1-ro'yxat, 138- yig'ma jild, 145-varaq.
7. O'z MA, R.40-fond, 1-ro'yxat, 378- yig'ma jild, 128-varaq.
8. Farg'ona viloyat davlat arxivi (FVDA). 121-fond, 1-ro'yxat, 82- yig'ma jild, 8-varaq va orqasi.
9. FVDA. 121-fond, 1-ro'yxat, 76- yig'ma jild, 11-varaq.
10. O'z MA, R.40-fond, 1-ro'yxat, 1- yig'ma jild, 24-varaq.
11. O'z MA, R.40-fond, 1-ro'yxat, 138- yig'ma jild, 146-varaq orqasi.
12. O'z MA, R.40-fond, 1-ro'yxat, 17- yig'ma jild, 2-varaq.
13. Тракман Л. Эпидемия // Известия ТуркЦИКа. №9. 13 январ 1922 г.
14. O'z MA, R.40-fond, 1-ro'yxat, 137- yig'ma jild, 399-varaq va orqasi.
15. O'z MA, R.40-fond, 1-ro'yxat, 159- yig'ma jild, 79-varaq.
16. O'z MA, R.40-fond, 1-ro'yxat, 190a- yig'ma jild, 2-том, 1420-varaq va orqasi.
17. Здравоохранение в Туркестанские Республике // Известия ТуркЦИКа. – №135. – 23 июн 1921 г.
18. Народное здравие // Известия ТуркЦИКа – 15 июл 1921 – №154.
19. FVDA. 435-fond, 1-ro'yxat, 140- yig'ma jild, 1-varaq.
20. FVDA 435-fond, 1-ro'yxat, 140- yig'ma jild, 1-varaq.
21. O'z MA, R.40-fond, 1-ro'yxat, 41- yig'ma jild, 15-varaq.
22. O'z MA, R.17-fond, 1-ro'yxat, 92- yig'ma jild, 277-varaq va orqasi.





UDK:39:908 (575.293)

**Sharifbek SAIDAXMATOV,**

*Termiz davlat pedagogika instituti v.b, PhD*

*E-mail: saidaxmatovsharifbek@gmail.com*

*Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi katta ilmiy xodimi, dotsent J.Mirzayev taqrizi asosida*

## MUSTAQILLIK YILLARIDA JANUBIY VILOYATLARDA EKOLOGIK MUAMMOLARNI BARQARORLASHTIRISH MASALALARI

Аннотация

Ushbu maqolada bugungi kunda global iqlim o'zgarishi eng dolzarb ekologik muammolardan biri ekanligi, mustaqillik yillarida O'zbekistonning janubiy hududlaridagi ekologik muammolarning atrof-muhitga ta'sirini barqarorlashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar haqida mulohazalar keltirilgan. Bu boradagi mavjud muammolar va ularni kelib chiqish sabablari hamda ularni bartaraf etish chora-tadbirlari haqida xulosalar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** Mustaqillik, O'zbekiston, ekologiya, atrof-muhit, Surxondaryo, Qashqadaryo, tabiat, ko'kalamzorlashtirish.

## ВОПРОСЫ СТАБИЛИЗАЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ В ЮЖНЫХ РЕГИОНАХ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация

В данной статье отмечается, что глобальное изменение климата является одной из наиболее актуальных экологических проблем на сегодняшний день, а также даются комментарии о проделанной работе по стабилизации воздействия на окружающую среду экологических проблем в южных регионах Узбекистана за годы независимости. Представлены выводы о существующих проблемах, их причинах и мерах по их устранению.

**Ключевые слова:** Независимость, Узбекистан, экология, окружающая среда, Сурхандарьинская, Кашкардарьинская, природа, озеленение.

## ISSUES OF STABILIZATION OF ENVIRONMENTAL PROBLEMS IN THE SOUTHERN REGIONS DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Annotation

This article notes that global climate change is one of the most pressing environmental issues today, and also provides comments on the work done to stabilize the environmental impact of environmental problems in the southern regions of Uzbekistan over the years of independence. Conclusions are presented on existing problems, their causes and measures to eliminate them.

**Key words:** Independence, Uzbekistan, ecology, environment, Surkhandarya, Kashkadarya, nature, landscaping.

**Kirish.** Bugungi kunda butun dunyo aholisini tashvishga solayotgan, bu yo'nalishda insoniyatning faol sa'y-harakatlarini talab qiladigan global va mintaqaviy ekologik muammolarni hal etish zarurati hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biridir. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, atrof-muhitni, hayvonot va o'simliklar dunyosini muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratildi. Mavjud boy tabiiy resurslar va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha zarur shart-sharoitlarni yaratish barqaror rivojlanishni ta'minlovchi asosiy omillardan sanaladi. Bu, shuningdek, mamlakat aholisi salomatligini ta'minlashning muhim shartlaridan hisoblanishini chuqur anglagan holda mustaqillikning dastlabki kunlaridan qulay tabiiy muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga kirishildi.

Mamlakatimizdagi ekologik xavfsizlik siyosati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, atrof-muhit va barqaror rivojlanishga oid qonunchilik hamda Yoxannesburg Deklaratsiyalari va Parij konferensiyalari tamoyillari asosida olib borilib, ijtimoiy va ekologik yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti orqali huquqiy demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyati barpo etilmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mustaqillik yillarida O'zbekistonning janubiy viloyatlarida yuzaga kelgan ekologik muammolar maslasiga bir qator mahalliy olimlar o'z e'tiborini qaratgan. Bu borada ayniasa, K.A.Allanov, A.Q.Choriev, N.J.Embergenov. S.N.Tursunov kabilar ko'plab tadqiqotlar olib borganlar [2].

Ta'kidlash lozimki, mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida bir qator xalqaro konvensiyalar va tegishli rivojlanish protokollari ratifikatsiyalariga qo'shildi: Ozon qatlamini himoya qilish bo'yicha Vena konvensiyasi (1993-yil), Ozon qatlamini buzadigan moddalar bo'yicha Monreal protokoli (1993-yil) shular jumlasidandir. Vena konvensiyasini imzolash orqali O'zbekiston Respublikasi quyidagi majburiyatlarni qabul qildi:

Ozon qatlamining holatini tizimli muntazam kuzatish va boshqa tegishli parametrlar – ozon qatlamining holatini o'zgartirish yoki o'zgartirish imkoniyatini yaratib, ushbu faoliyat salbiy ta'sirga

ega ekanligi aniqlansa, o'z yurisdiksiyasiga kiradigan inson faoliyatini nazorat qilish, cheklash, kamaytirish yoki oldini olish uchun tegishli qonuniy yoki ma'muriy choralar ko'rish; Ushbu konvensiya protokol va ilovalarni amalga oshirish uchun kelishilgan chora-tadbirlar, protseduralari va standartlarni ishlab chiqishda hamkorlik qilish; Ushbu konvensiya va protokollarni samarali bajarish maqsadida vakolatli xalqaro organlar bilan hamkorlik qilish [3].

“Ozon qatlamini himoya qilish to'g'risida”gi Vena konvensiyasi ko'p tomonlama ekologik kelishuvdir. Bu ozon qatlamini himoya qilish bo'yicha xalqaro harakatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu yuqoridagi qonunlar va konvensiya ekologik buzilishlar rivojini kamaytirib va kelajak avlodga yetkazish tabiatni asrash uchun ishlab chiqilgan. O'zbekistonda ham ekologik buzilishlar zamon rivojlangan sari ko'rinishlari tobora ortib bormoqda [2].

Hozirgi kunda sayyoramizda inson faoliyatining salbiy ta'siri natijasida atrof-muhitda sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Jumladan, iqlim o'zgarishlari, turli xildagi tabiiy ofatlar yer sayyorasining barcha kengliklarida sezilmoqda. Oqibatda o'rmon bilan qoplangan maydonlar qisqarmoqda, atmosfera, suv va litosfera ifloslanmoqda [7].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mustaqillik yillarida janubiy viloyatlarda ekologik muammolarni barqarorlashtirish masalalariga bag'ishlangan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning analiz, sintez, qiyosiy tahlil kabi metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Aytish mumkinki, O'zbekiston 1992-yil 8-fevralda MDH davlatlari rahbarlari tomonidan imzolangan shartnomaga muvofiq tuzilgan Davlatlararo Ekologiya Kengashining to'la huquqli a'zosi hisoblanadi. 1996-yilda O'zbekiston Respublikasining “Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida”gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun qilingandan keyin O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan vazirliklar, idoralar, tashkilotlar va korxonalar bilan birgalikda atmosfera havosiga salbiy ta'sirni kamaytirish choralari ma'lum tizimga solindi. 2007-yil yakunlariga ko'ra atmosferaga

chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalarning umumiy hajmi 2 mln tonnagacha qisqardi.

2000-yilda "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilinishi atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur qonunning qabul qilinishi bilan Davlat ekologik ekspertizasining aniq vazifalari belgilab berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-apreldagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoniga muvofiq Respublikada ekologik xavfsizlikni ta'minlash va atrof-muhitni davlat boshqaruvi tubdan takomillashtirish, ekologik holatni yaxshilash, chiqindilarning fuqarolar sog'ligiga zararli ta'sirini oldini olish, aholi turmush darajasini yaxshilash va Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish, maishiy chiqindilarni yig'ish, saqlash tashish, utilizatsiya qilish, qayta ishlash va ko'mish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi qaytadan O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi deb tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro hamkorligi milliy qonunchilik va xalqaro hamkorlikning konvensiyalari asosida tartibga solinadi. O'zbekistonning atrof-muhit muhofazasi borasidagi milliy siyosati va mazkur masaladagi xalqaro hamkorligi mamlakatning ekologik salohiyatini saqlashga asoslangan. Ushbu maqsadda O'zbekiston Respublikasi 1995-yilda "Biologik xilma-xillik to'g'risida"gi konvensiyaga, "Butun jahon madaniy va tabiiy meroslarni muhofaza qilish to'g'risida"gi konvensiyaga, 1997-yilda "Yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo qilish to'g'risida"gi konvensiyaga, 1998-yilda esa "Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini muhofaza qilish" bo'yicha konvensiyaga, shuningdek, tabiatni muhofaza qilish bo'yicha hamkorlik sohasidagi qator davlatlararo bitimlarga qo'shilgan. Mana shu farmon va hujjatlardan kelib chiqqan holda O'zbekistonning janubiy viloyatlari, xususan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida ham ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, tabiatni asrab-avaylash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida vohaning barcha hududlarida ko'chat ekish va bog'lar tashkil etish borasida amaliy ishlar olib borilayotgani fikrimizning dalilidir. Zero, «Yashil makon» loyihasi hududlarda toza atmosfera barqarorligi va atrof-muhit musaffoligini ta'minlash imkonini yaratadi. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari o'zining go'zal tabiati, maftunkor tog'lari, daryolari bilan azaldan o'ziga jalb qilib kelgan. Surxondaryoda 4000 ga yaqin o'simlik turlari o'sadi. O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan 163 o'simlik turidan 74 turi Surxondaryoda ro'yxatga olingan. Surxondaryo viloyatida ham 100 dan ortiq turdagi dori vositalari tayyorlash imkonini beruvchi dorivor o'simliklar mavjud. Mintaqaning faunasi juda xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu hududda sut emizuvchilarning 97 turi, qushlarning 332 turi, baliqlarning 83 turi mavjud. Ushbu flora va fauna dunyosini asrash bugungi kunda vohadagi ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Viloyat hududida Surxon tog'-vodiy qo'riqxonasi joylashgan. Uning maydoni 24583 gektar. Qo'riqxonada hududida 200 dan ortiq qush va 20 dan ortiq hayvon turlari aniqlangan [1].

Qashqadaryo viloyati (maydoni 28,6 ming kv.km) subtropik mintaqaning shimoliy qismida, O'zbekistonning janubida, O'rta Osiyo tabiiy geografik o'lkasining markazidan janubroqda 370 58 bilan 390 32 sh.k. va 640 23 bilan 670 42 sh.u. orasida joylashgan. Qashqadaryo viloyatining tabiiy florasi 1200 ga yaqin yuksak o'simlik turidan iborat. Viloyatda 76,6 ming ga o'rmon mavjud. O'rmonlarning asosiy qismini archa va saksovluzorlar tashkil etadi. Tog' yon bag'irlari har xil o't-o'simliklar bilan qoplangan, shuningdek, butazorlar ham bor. Tog' o'rmonlari archa bodom, pista, jiydazorlardan iborat. Tog'larda

na'matak, zirk, chakanda, anzur piyozi, qora zira va boshqalar o'sadi [2].

Tog' mintaqasi keng hududlarni egallab A. Zokirov tasnifi bo'yicha dengiz sathidan 1500 (1700) – 2700 (2800) metr balandlikdagi joylardir. Qashqadaryoning tog' mintaqasi o'simliklar qoplamida 70 dan ortiq oilaning 200 dan oshiq turkumi va 600 ga yaqin turi borligi adabiyotlarda ko'rsatilgan. Tog' mintaqasida eng ko'p tarqalgan oilalarga karamdoshlar (30), qoqidoshlar (25), bug'doydoshlar (21), chinniguldoshlar (15), burchoqdoshlar (14), ra'nodoshlar (14), yalpizdoshlar (13), ayiqtovondoshlar (12) misol bo'ladi. Astragallar turkumining 32, karraklarning 12, piyozlarning 11, g'ozpanjaning 10, toronning 8, shuvoqning 7, isparakning 6, ayiqtovonning 6, na'matakning 6 turi keng tarqalgan. Havzaning tog' mintaqasi daraxtlarning 20 ga, butalarning 50 ga, chalabutalarning 30 ga, ko'p yillik o'tlarning 400 ga, ikki yilliklarning 25 ga, bir yilliklarning 100 ga yaqin turi uchraydi. Ulardan ba'zilari alohida himoya ostida [2].

Oxirgi yillarda Surxondaryo viloyati aholisi orasida qalqonsimon bez kasalliklari butunlay bartaraf etildi. Bu kasallikka moyillikning yuqori darajasi Sariosiyo, Uzun rayonlarida aniqlangan. Buning sababi mintaqaga Tojikiston alyuminiy zavodi ishlab chiqarish chiqindilarining ta'siri yuqori darajada ekanligidir. Ushbu ekologik inqirozni bartaraf etish uchun mustaqillik yillarida Surxondaryo vohasidagi ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha samarali chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Buning uchun tegishli hujjat va materiallarni tayyorlashda o'zaro manfaatli, yaxshi qo'shnichilik va muvozanatli yondashuv namoyon bo'lmoqda. Surxondaryo viloyatining shimoliy-sharqiy qismida atmosfera havosining ifloslanishi va aholi salomatligiga salbiy ta'sirining oldini olish maqsadida bir qancha amaliy tadbirlar ishlab chiqilgan [4]. Shu bilan bir qatorda tabiatni asrab-avaylash maqsadida ekoturizmni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Zero, viloyatning Sariosiyo, Denov, Boysun va boshqa tumanlari o'zining betakror tabiati bilan ekoturizm rivojiga namun yaratadi. Mavjud salohiyatdan oqilona foydalanilib, viloyatda 2015-yilda 77 gektar yerda tokzor, 400 gektar maydonda intensiv bog' yaratilganligi mintaqalarda ekoturizm rivojining istiqbolida muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, viloyatning Termiz, Angor, Boysun va Oltinsoy tumanlarida mana shunday diqqatga sazovor manzarali go'shalarga sayyohlarni taklif qilish uchun imkoniyat va maskanlar yaratilganligi ekoturizmni bog'dorchilik turizmini rivojlantirish istiqbolini belgilab beradi [7].

Qashqadaryo viloyatida Qarshi zonasi viloyatning janubiy-g'arbiy tekisliklari – cho'l qismida joylashgan, Kitob-Shahrisabz zonasi shimoliy-sharqiy va sharqiy tog' etaklari, tog'li hududlar hisoblanadi. Qishloq joylari hududiga qarab demografik salohiyat, iqtisodiy ixtisoslashuv va ishlab chiqarish quvvati, rivojlanish darajasi va shuningdek turistik rekreatsiya resurslarining salohiyati farqlanadi. Ular orasida Kitob-Shahrisabz tumanlari turistik va rekreatsiyon salohiyat bilan guruhi ajralib turadi [5].

**Xulosa va takliflar.** Mustaqillik yillarida Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida ekologik muhitni sog'lomlashtirish, tabiatni asrab-avaylash borasida amalga oshirilayotgan izchil tadbirlar doirasida voha tabiatini boyitish, o'simlik va hayvonot dunyosini saqlab qolish, suv havzalari qurib ketishining, havo ifloslanishining oldini olish borasida bir qancha yutuqlarga erishildi. Bu borada qabul qilingan "O'rmon to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, "O'zbekiston Respublikasi hukumatining davlat ekologik nazoratini takomillashtirishga yo'naltirilgan ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, "O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Abdunazarov H.M., Choriev.A.Q., Embergenov N.J., Oteuliev M.O. Issues of human economic activity and environmental protection. «Экономика и социум» № 11(78) 2020. – P. 23-26.
2. Allanov K.A., Choriev A.Q., Embergenov N.J. Ecological Condition of Surkhan Oasis and its Impact on the Health of the Population. Science and education in Karakalpakstan. №1. – Nukus: 2020. – P.101-103.
3. Ergashev H., Hashimova S.A. Hozirgi zamon ekologik muammolar va ularning insoniyatga ta'siri haqida. – Toshkent: TDSHU nashriyoti, 2022. – 232 b.
4. Navruzbaeva, G. T., Embergenov, N. J., Oteuliev, M. O. «Study of The Contemporary State of the Environment and The Status of Population Health in The Conditions of Southern Aral Region, Karakalpak Scientific Journal. Vol. 2, Iss. 1. 2018. – P. 29-31.
5. Olimova D.A. Qashqadaryo okrugidagi neft va gaz konlarining atrof-muhitga salbiy ta'siri. «Экономика и социум» №6(109)-1 2023. – P. 354-355.

6. Turdimambetov I., Madreymov A., Foldvary L., Oteuliev M., Kurbanov M., Utarbaeva K., Bekanov K. Influence of Adverse Ecological Factors on the Incidence of Malignant Neoplasms. E3S Web Conf. Volume 227. 2021. – P. 192-198.
7. Yormatova D.Y., Xushvaqtova X.S. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. – Toshkent: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2018. 132 b.



**Gulrux SIRLIBOYEVA,**  
*O'zFA tarix instituti mustaqil tadqiqotchisi*  
*E-mail:sirliboyevagulrux@gmail.com*

*TDIU professori, N.H.Oblomuradov taqrizi asosida*

### LEGAL BASIS OF FOREIGN RELATIONS OF THE UZBEKISTAN SSR.

Annotation

This scientific article describes the features of the foreign policy of the Uzbek Soviet Socialist Republic, as well as the legal basis of the norms of conducting foreign policy.

**Key words:** Foreign relations, legal bases, constitution, act, economic contracts.

### ПРАВОВАЯ ОСНОВА ВНЕШНИХ СВЯЗЕЙ УЗБЕКИСТАНСКОЙ ССР.

Аннотация

В данной научной статье описаны особенности внешней политики Узбекской ССР, а также правовая основа норм ведения внешней политики.

**Ключевые слова:** Международные отношения, правовые основы, конституция, акт, хозяйственные договоры.

### O'ZBEKISTON SSR TASHQI ALOQALARINING HUQUQIY ASOSLARI

Аннотация

Ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining tashqi siyosat xususiyatlari, shuningdek, tashqi siyosat yuritish me'yorlari belgilangan huquqiy asoslar haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Tashqi aloqalar, huquqiy asoslar, konstitutsiya, akt, iqtisodiy shartnomalar.

**Kirish.** O'zbekiston SSR tashqi aloqalarining huquqiy asoslari bu davrdagi qonun me'yorlari va huquqiy normalarda o'z aksini topgan. SSSR huquqiy normalar Sovet davlati va uning organlari nomidan chiqariladigan turli shakl va mazmundagi normativ aktlar majmuidir. Bu muqarrar yo'riqlar yurish-turishning u yoki bu qoidalarni belgilashda davlat irodasini ifodalaydi. Bunday huquqiy normativ aktlar huquq manbalari hisoblanadi. Mazkur huquqiy aktlar sotsialistik sovet huquq manbalari sistemasida yetakchi rol o'ynaydi. Shuning uchun ham qonunlarni faqat hokimiyatning oliy organlari, ya'ni SSSR Oliy Soveti chiqara oladi [1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbekiston SSR ning tashqi aloqlarining huquqiy asoslari sovet davridagi konstitutsiyada o'z aksini topgan, shuningdek, Po'latov X. O'zbekiston SSR konstitutsiyasi asosida tashqi aloqalar qanday olib borilganligi yoritib bergan [2]. Yana bir tadqiqotchi Osiyo mamakatlari bilan aloqalarini tahlil qilib, madaniy aloqalar bo'yicha maxsus shartnomalarni yoritib bergan [3].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada O'zbekistonning sovet davridagi tashqi siyosatining huquqiy asoslari qabul qilingan tarixiy va sotsiologik metodlar – tizimli tahlil, qiyosiy-tarixiy, tuzilmaviy, funksional yondashuv, qiyosiy mantiqiylik, tahliliy, ketma-ketlik, xolislik, ob'ektivlik tamoyillari asosida yoritilgan.

**Tahlil va natijalar.** O'zbekiston SSR ning tashqi aloqalarining birlamchi huquqiy asosi sifatida SSSR Konstitutsiyasini keltirishimiz mumkin. Xususan, SSSR Konstitutsiyasining 4-bobi tashqi siyosat masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda tashqi siyosat prinsiplari belgilab berilgan. Xususan, 28-moddada SSSR lenincha tinchlik siyosatini og'ishmay amalga oshiradi, xalqlar xavfsizligini mustahkamlash va keng xalqaro hamkorlik uchun kurashadi. SSSR ning tashqi siyosati SSSR da kommunizm qurish uchun qulay xalqaro sharoitlarni ta'minlashga Sovet Ittifoqining davlat manfaatlarini himoya qilishga, jahon sotsializmining pozitsiyalarini mustahkamlashga, xalqlarning milliy ozodlik va sotsial taraqqiyot yo'lidagi kurashini qo'llab quvvatlashga, agressiv urushlarni oldini olishga, yalpi va to'la qurollanishni oldini olishga hamda turli ijtimoiy tuzumdagi davlatlarning tinch-totuv yashash prinsipini izchil ravishda amalga oshirishga qaratilgan siyosatdir. Urushni propaganda qilish SSSR da man etilishi qayd etilgan bo'lsa, 29-moddada SSSR ning boshqa davlatlar bilan munosabatlari suveren tenglik, kuch ishlatishdan yoki kuchni pesh qilishdan tahdid etishdan o'zaro voz kechish, chegaralarning buzilmasligi; davlatlarning territorial butunligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish, ichki ishlariga aralashmaslik; inson huquqlarini va asosiy erkinliklarini hurmatlash; xalqlarning teng huquqligi va o'z taqdirini o'zi hal etish huquqi;

davlatlar o'rtasidagi hamkorlik; xalqaro huquqning hamma tan olgan prinsiplari va normalaridan, SSSR tuzgan xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni halol ravishda bajarish prinsiplariga rioya qilish asosida qurilishi aks etgan [4].

SSSR Konstitutsiyasida tashqi iqtisodiy aloqalar prinsiplari ham belgilab berilgan bo'lib, bu o'z navbatida SSSR tarkibidagi O'zbekiston SSRga ham taaluqli edi. Sotsialistik davlatlar bilan Asosiy qonunning 30-moddasida jahon sotsialistik sistemasining, sotsialistik hamdo'stlikning tarkibiy qismi bo'lgan SSSR sotsialistik internatsionalizm prinsipi asosida sotsializm mamlakatlari bilan do'stlikni va hamkorlikni, o'rtloqlar yordamlashishni rivojlantiradi va mustahkamlaydi, iqtisodiy integratsiyada va xalqaro sotsialistik mehnat taqsimotida aktiv qatnashishini belgilab qo'yilgan [5].

Shu bilan birgalikda, SSSR ekonomikasi mamlakat teritoriyasidagi ijtimoiy ishlab chiqarishning taqsimot va ayrboshlashning barcha bo'g'inlarini o'z ichiga olgan yaxlit xalq xo'jaligi kompleksi ekanligiga alohida urg'u berib o'tilgan. Bundan ma'lum bo'ladiki, barcha Ittifoqdosh respublikalarning tashqi iqtisodiy aloqalari bilan bir qatorda xo'jalikni barcha yo'nalishlari to'la ravishda markazga bo'ysundirilgan. Iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish masalasi ham Konstitutsiyada o'z aksini topgan. Qo'shimcha tarzda ekonomikaga rahbarlik iqtisodiy va sotsial rivojlantirish davlat planlari asosida tarmoq va territorial prinsiplarni hisobga olgan holda markazlashtirilgan boshqaruvni korxonalar, birlashmalar va boshqa tashkilotlarning xo'jalik yuritishdagi mustaqilligi va tashabbuskorligi bilan uyg'unlashtirilgan holda amalga oshirilishi qonun qilib kiritilgan [6].

Shuningdek, ushbu Konstitutsiyada Xalqaro munosabatlarda Sovet Ittifoqi respublikalarining SSSR nomidan vakillik qilishi va ittifoqdosh respublikalarning chet davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarining umumiy tartibini SSSR tomonidan belgilanishi bu munosabatlarni koordinatsiyalashi keltirilgan. Shuningdek, davlat monopoliyasi asosidagi tashqi savdo va tashqi iqtisodiy faoliyatning boshqa turlari ham SSSR nazoratida bo'lishi belgilab qo'yilgan [7].

SSSR konstitutsiyasining 9- bobi Ittifoqdosh Sovet Sotsialistik respublikasi deb nomlanib, bu bobda ittifoqdosh respublikalar, shu qatorda, O'zbekiston SSSR ning boshqaruv, tashqi aloqalar tartiblari aniq belgilab qo'yilgan. 80- moddada Ittifoqdosh Respublika chet davlatlar bilan aloqa bog'lashga, ular bilan shartnomalar tuzishga hamda diplomatiya va konsullik vakillari ayriboshlashga, xalqaro tashkilotlar faoliyatida ishtirok etishga haqliligi o'z tasdig'ini topgan [8]. Har bir ittifoqdosh respublika davlat-huquq munosabatlari obektigina bo'lib qolmay, balki xalqaro



huquq munosabatlar subyekti hamdir. Ittifoqdosh respubliklar SSSR bilan birgalikda xalqaro konferensiyalarda va xalqaro tashkilotlarda tinchlik yo'lini faol himoya qilgan [9].

Bundan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston SSR xalqaro tashkilotlar faoliyatida to'la mustaqil bo'lmada, ishtirok etishi mumkin bo'lgan. Yuqorida tahlil qilingan qonunlar O'zbekiston SSR ning tashqi aloqalariga bag'ishlangan SSSR ning asosiy qonunida belgilab qo'yilgan normalar bo'lib, O'zbekiston SSR shu qonunlarga asoslangan holda tashqi siyosat olib borgan.

SSSR Konstitutsiyasida xalqaro shartnomalar va bitimlar tuzish tartiblari, chet elik fuqarolarning va chet el korxonalarining huquqlari ham qonuniy belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, SSSR ishtirok etgan xalqaro shartnomada yoki xalqaro bitimda mazkur asoslarda ifodalangandan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomadagi yoki xalqaro bitimdagi qoidalar tatbiq etiladi. Agar ittifoqchi Respublika ishtirok etgan xalqaro shartnomada yoki xalqaro bitimda ittifoqchi respublikalarning grajdanlik protsessual qonunlarida ifodalangandan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, ittifoqchi respublika territoriyasida ham yuqoridagi qoida tatbiq qilinadi [10].

Demak, SSSR tashqi siyosatda xalqaro huquqlarning ustuvorligi prinsipiga amal qilgan.

O'zbekiston SSR tashqi aloqlarining yana bir huquqiy asosi sifatida O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining Konstitutsiyalarni keltirishimiz mumkin. Xususan, O'zbekiston SSR ning 1927-yilgi birinchi Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining SSSR Ittifoqi tarkibida paydo bo'lganini yuridik jihatdan qayd qilib ko'rsatdi. Ushbu konstitutsiya O'zbekiston SSR tarixidagi birinchi Konstitutsiya bo'lib, loyiha 1927-yil 27-31-martda bo'lib o'tgan O'zbekiston Sovetlarining II qurultoyida ma'qullangan va 11-iyulda e'lon qilingan. Konstitutsiyada, shuningdek, ittifoqning boshqa respublikalari konstitutsiyalarida Davlat hokimiyati vakolatlarini "Ishchi dehqonlar Sovetlari va Qizil Armiya deputatlari amalga oshirishi ko'rsatilgan. Shuningdek, Konstitutsiyaning 6-bobi, 8- va 9-boblari butunlay Sovetlarga saylovni tashkil etish va o'tkazishga bag'ishlangan [11].

1927- yildagi Konstitutsiyada O'zbekistonning tashqi aloqalari masalasiga kam to'xtalgan bo'lib, O'zbekiston SSR ko'p millatli davlat doirasida hamkorlik qilishlari belgilab qo'yilgan [12].

1936- yil 5-dekabrda qabul qilingan SSSR Konstitutsiyasida sotsializm asoslari qurilishi munosabati bilan sovet ijtimoiy va davlat tuzumida yuz bergan chuqur o'zgarishlarni o'zida aks ettirdi. Bu Konstitutsiyaga muvofiq O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi ham ishlab chiqildi va 1937 yil 14 fevralda qabul qilindi [13].

40 yildan ortiq vaqt davomida amalda bo'lgan O'zbekiston SSR ning ikkinchi konstitutsiyasi 1937-yil navbatdan tashqari VI qurultoyida qabul qilingan. Konstitutsiya 13 bob va 146 moddadan iborat bo'lib, unga ham tashqi aloqalarga oid qonunlar kiritilgan [14].

1978-yilning 19 -aprelda O'zbekiston SSR ning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Ushbu yangi Konstitutsiyada avvalgilardan farqli ravishda tashqi siyosiy faoliyatga oid alohida bob ajratilgan.

O'z SSR ning 1978-yilning 19-apreldagi konstitutsiyaning 4-bobi tashqi siyosiy faoliyat va sotsialistik vatanni himoya qilish deb nomlangan. Ushbu bobda O'z SSRning qanday tashqi siyosat olib borishi belgilab qo'yilgan. bo'lib, O'z SSR bu qonunlardan chiqmagan holda tashqi siyosat olib borgan. Xususan, 4-moddada Sovet davlati, uning barcha organlari sotsialistik qonuniylik asosida ishlaydi, qonun va tartibni, jamiyat manfaatlarini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilinishi belgilab qo'yilgan [15].

Shuningdek, davlat va jamoat tashkilotlari, mansabdor shaxslar SSSR Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Sovet Ittifoqi qonunlariga rioya qilishga majburdir deb takidlangan. Shu jumladan, iqtisodiy va madaniy aloqalar ham yuqoridagi hujjatlarga asoslangan holda olib borilgan.

Misol tariqasida oladigan bo'lsak, 28-moddada O'zbekiston SSR o'zining tashqi siyosiy faoliyatida SSSR Konstitutsiyasida

belgilangan tashqi siyosat maqsadlari, vazifalari va prinsiplariga amal qiladi. Urushni propaganda qilish O'zbekiston SSR da man etiladi deb belgilab qo'yilgan [16].

16-moddada tashqi iqtisodiy masalalarga oid bo'lib, O'zbekiston SSR ekonomikasi SSSR teritoriyasidagi ijtimoiy ishlab chiqarishning, taqsimot va ayirboshlashning barcha bo'g'inlarini o'z ichiga olgan yaxlit xalq xo'jalik kompleksining tarkibiy qismi ekanligi, ekonomikaga rahbarlik iqtisodiy va sotsial rivojlantirish davlat planlari asosida, tarmoq va territorial prinsiplarni hisobga olgan holda, markazlashtirilgan boshqaruvni korxonalar, birlashmalar va boshqa tashkilotlarning xo'jalik yuritishdagi mustaqilligi va tashabbuskorligi bilan uyg'unlashtirilgan holda amalga oshirilishi, shuningdek, xo'jalik hisobi, foyda, tannarx, boshqa iqtisodiy vositalar va stimular aktiv ishga solinishi belgilab qo'yilgan [17].

Iqtisodiy masalalar konstitutsiyaning 10-moddasida ham o'z aksini topgan. Ushbu moddada O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy tizimining asosini ishlab chiqarish vositalariga davlat (milliy) va kolxoz-kooperativ mulk shaklidagi sotsialistik mulk tashkil etishi, sotsialistik mulkka kasaba uyushmalari va boshqa jamoat tashkilotlarining o'z ustav vazifalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan mulklari ham kiradi deb qonuniylashtirilgan. Davlat sotsialistik mulkni himoya qiladi va uni ko'paytirish uchun sharoit yaratadi. Hech kim sotsialistik mulkdan shaxsiy manfaat yoki boshqa g'arazli maqsadlarda foydalanishga haqli emasligi o'z aksini topgan.

Shu bilan birgalikda, 1978- yilgi O'zbekiston SSR ning Konstitutsiyasining 3-bobi ijtimoiy rivojlanish va madaniyat deb nomlangan bo'lib, bu bobning 27-moddasida davlat sovet xalqini axloqiy-estetik tarbiyalash, ularning madaniy darajasini yuksaltirish uchun ma'naviy qadriyatlarini muhofaza qilish, ko'paytirish va keng o'zlash haqida g'amxo'rlik qilishi aytib o'tilgan [18]. Shundan kelib chiqqan holda, bu davrda xalqaro madaniy aloqalar rivojiga katta ahamiyat berilgan. Ko'plab xorijiy davlatlar bilan bir qatorda sotsialistik Yevropa mamlakatlari bilan ham keng madaniy aloqalar olib borilgan. Sotsialistik davlatlarning O'zbekiston SSR hududida madaniyat kunlari tashkil qilinganligi buning yaqqol tasdig'idir. Shuningdek, O'zbekiston SSR da professional san'at va xalq amaliy san'atini rivojlantirish har tomonlama rag'batlantirilgan. Shunday bo'lsada, bu amaliy ishlar sovet mafkurasi yo'yishga qaratilgan edi.

Tashqi aloqalarning tarkibiy qismini tashkil qilgan xorij tashkilotlari va fuqarolariga oid huquqiy normalar 1978- yilgi Konstitutsiyada aks etgan.

35-moddada xorijlik fuqarolarning huquqlari to'la yoritib berilgan. O'zbekiston Respublikasida xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquq va erkinliklar, shu jumladan, o'zlarining shaxsiy, mulkiy, oilaviy va boshqa huquqlarini himoya qilish uchun sudga va boshqa davlat organlariga murojaat qilish huquqi kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar SSSR Konstitutsiyasini, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini hurmat qilishlari va Sovet qonunlariga rioya qilishlari shart [19].

Bu qonunga ko'ra, chet elik fuqarolar O'zbekiston SSR fuqarolari kabi ko'plab huquq va erkinliklarga ega bo'lishgan. Bu esa O'zbekiston SSR ning xorij davlatlar bilan aloqalarning yaxshi bo'lishiga xizmat qilgan.

**Xulosa va takliflar.** O'zbekiston sovet davrida SSSR tarkibida keng tashqi siyosat olib borgan. Dunyoning ko'plab davlatlari qatori sotsialistik tuzumdagi Yevropa mamlakatlari bilan ham madaniy, iqtisodiy sohada aloqalar mavjud bo'lib, bu aloqalar to'la ravishda SSSR nomidan borgan. Bu aloqalar xususiyatlari SSSR va O'zbekiston SSR konstitutsiyalarida belgilab berilgan. Shuningdek, iqtisodiy va madaniyat vazirliklari tomonidan imzolangan ikki tomonlama xalqaro shartnomalar ham tashqi aloqalarning muhim huquqiy asoslaridan biri sanaladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Зимин А.Д., Каримова О.А. Совет давлати ва ҳуқуқи асослари. Пед.бўл.ўқув юрт. учун ўқув қўлланма. – Т.:Ўқитувчи 1983. Б-9.
2. Пўлатова Ҳ.М. Республикамиз асосий қонуни. – Т.: “Ўзбекистон” 1978. – Б.39.
3. Эрназаров Ф.Н. Ўзбекистоннинг Осиё давлатлари билан маданий алоқалари. Тарих фанлар доктори дисс. Тошкент.2018. – Б.23.
4. Конституция союза советских социалистических республик. Москва издательство политической литературы. 1977. С 34.
5. Конституция союза советских социалистических республик. Москва издательство политической литературы. 1977. С 36.
6. Конституция союза советских социалистических республик. Москва издательство политической литературы. 1977. С 73 .
7. Конституция союза советских социалистических республик. Москва издательство политической литературы. 1977. С 69.
8. Конституция союза советских социалистических республик. Москва издательство политической литературы. 1977. С 74.
9. Пўлатова Ҳ.М. Республикамиз асосий қонуни. – Т.: “Ўзбекистон” 1978. – Б.39

10. ССР Иттифоқи ва иттифоқчи республикаларнинг гражданлик қонунларининг Асослари. ССР Иттифоқи ва иттифоқчи республикаларнинг гражданлик суд ишларини юргизиш Асослари. Т., Ўздавнашр.1962. – Б.98.
11. Nazirjon S.Yakubov, THE CONSTITUTIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THE HISTORY OF VOTING RIGHTS (On the example of the constitutions of the Turkestan ASSR, Khorezm SSR, Bukhara SSR and the Uzbek SSR). Look to the past. 2022, Special issue 2, pp.150
12. Пўлатова Ҳ.М. Республикамиз асосий қонуни. – Т.: “Ўзбекистон “ 1978. – Б.6.
13. Пўлатова Ҳ.М. Республикамиз асосий қонуни. – Т.: “Ўзбекистон “ 1978. – Б.7.
14. Nazirjon S.Yakubov, THE CONSTITUTIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THE HISTORY OF VOTING RIGHTS (On the example of the constitutions of the Turkestan ASSR, Khorezm SSR, Bukhara SSR and the Uzbek SSR). Look to the past. 2022, Special issue 2, pp.151
15. Ўзбекистон Совет Социалистик Республика Конституцияси.Ўзбекистон 1978. -Ташкент. 10 бет.
16. Ўзбекистон Совет Социалистик Республика Конституцияси.Ўзбекистон 1978. -Ташкент. 10 бет.



UDK:904.93.4

*Samaritdin SUYUNOV,*  
*Samarqand arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi*  
*E-mail: suyunosamar.1963@gmail.com*

*Samarqand arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi, t.f.n. K.Raximov taqrizi asosida*

### THE IMPORTANCE OF IRRIGATED AGRICULTURE IN KASHKADARYA

Annotation

The article examines the emergence of irrigation systems in the Kashkadarya valley, focusing on the utilization of river and stream waters to irrigate land and their significant influence on the formation of early urbanization processes in the region. The development of cities in the upper, middle, and lower reaches of Kashkadarya coincided with the emergence of small agricultural oases. During the early and medieval periods, intensified migration processes led to significant demographic changes, enabling the steady growth of cities. This resulted in the creation of new irrigation systems, expansion of irrigated lands, and overall improvement in the socio-economic conditions of the population.

**Key words:** Southern Sogd, Kesh, Pachkamar, Chimkurgan, Hisorok, Kamashi, Langar, Chigir, Charkpalak, Chimkurgan, Jeti Asar, Karshi, Eski Anhor.

### ЗНАЧЕНИЕ ИРРИГАЦИОННОГО ЗЕМЛЕДЕЛИЯ В КАШКАДАРЬЕ

Аннотация

В статье рассматривается зарождение ирригационных систем в Кашкадарьинской долине, использование воды рек и ручьев для орошения земель и их значительное влияние на формирование процессов ранней урбанизации в регионе. На территории верхнего, среднего и нижнего течения Кашкадарьи наблюдалось развитие городов и формирование небольших сельскохозяйственных оазисов. В раннем и среднем средневековье из-за интенсификации миграционных процессов произошли значительные демографические изменения, что способствовало стабильному развитию городов. В результате этого появились новые ирригационные системы, расширились площади орошаемых земель, что привело к улучшению социально-экономического положения населения.

**Ключевые слова:** Южный Согд, Кеш, Пачкамар, Чимкурган, Хисорок, Камаша, Лангар, Чигирь, Чархпалок, Чимкурган, Джетиасар, Карши, Эски Анхор.

### QASHQADARYODA SUG'ORMA DEHQONCHILIKNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada, Qashqadaryo vohasida qadimdan sug'orish tizimlarining paydo bo'lishi daryolar va soy suvlarining sun'iy ravishda o'zlashtirilayotgan yer maydonlariga yo'naltirilishi, albatta vohada ilk urbanizatsiya jarayonlarining shakllanishiga keskin ta'sir ko'rsata boshlaganligi kuzatilgan.

Qashqadaryoning yuqori, o'rta va quyi oqimlarida shaharlarning rivojlanishi bilan birga kichik-kichik dehqonchilik vohalarining shakllanish jarayoni boshlangan. Ilk va o'rta o'rta asrlarda migratsiya jarayonlarining kuchayishi ortidan vohada juda kuchli demografik o'zgarishlar yuzaga kelib, shaharlarning rivojlanishi bir maromda davom etgan. Buning hisobiga esa yangi sug'orish tizimlarining paydo bo'lishi va sug'oriladigan yer maydonlarining kengayishi ortidan, aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli yaxshilangan.

**Kalit so'zlar:** Janubiy Sug'd, Kesh, Pachkamar, Chimqo'rg'on, Xisorok, Qamashi, Langar, Chig'ir, Charxpalak, Chimqo'rg'on, Jetiasar. Qarshi, Eski Anhor.

**Kirish.** Qashqadaryo tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. XX asr boshlarida olib borilgan qidiruv tadqiqotlari natijasida Qashqadaryo vohasining sharqiy qismida so'nggi bronza, ilk temir davridan boshlab qadimgi Kitob, Shahrisabz va Yakkabog' hududlari jadallik bilan o'zlashtirila borganligi aytilgan. Lekin vohada miloddan avvalgi X-IX asrlarda hozirgi Kitob, Shahrisabz, Yakkabog' va Qarshi (Erqo'rg'on) hududlarida ilk dehqonchilik manzilgohlari paydo bo'lgan bo'lsada, ularning sug'orilish tarixi muammolari to'g'risida biror narsa deyilmagan. O'sha davr aholisining o'troqlashuvi bilan bog'liq bo'lgan yodgorliklar hozirgacha Qashqadaryoning o'rta (Oqsudaryo, Tanhozaryo, Yakkabog'daryo) va quyi (Qarshi) irrigatsiya rayonlarida yaxshi saqlangan. Yuqoridagi muammolarning yechimini topish maqsadida Qashqadaryo vohasi bo'yicha mavjud arxeologik yodgorliklar bilan uzviy bog'liq bo'lgan sug'orish tarmoqlari (kanallar, eski o'zanlar, suv inshootlari) ni o'rinni aniqlab, ularni bevosita voha ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlariga ta'sirini yoritishdan iboratdir.

Qashqadaryo vohasida ilk dehqonchilik madaniyatining vujudga kelishi va uning asosi bo'lgan sug'orishning paydo bo'lishi, irrigatsiyaning taraqqiyot tarixi bilan bog'liq bo'lgan ilmiy tadqiqotlar jahonning ilg'or ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy o'quv yurtlari tomonidan jumladan, Berkli universiteti (AQSh), Ilmiy tadqiqotlar milliy markazi (Fransiya), Istanbul universiteti (Turkiya), Bolonya universiteti Tarix va madaniyat departamenti (Italiya) tomonidan olib borilmoqda. Yangi natijalarga erishmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Voha tarixini dastlab o'rgangan tabiatshunos olim A.L. Kun (1870), to'garak a'zolari V.N. Litvinov (1890-1910 yillar), I.A. Kastane (1916 yil), suratlash G.E. Krivsov, topograf N.F. Sitnyakovskiy, yozuvchi V.V. Kristovskiyalar bo'lib, bu shaharda o'zlarini ko'rgan me'moriy obidalar to'g'risida

umumiy ma'lumotlar yozib qoldirishgan. Bu tadqiqotlarni sovet davrigacha o'tkazilgan ilk izlanishlar deb qarash mumkin.

1917-1990 yillar oralg'ida tadqiqotchi arxeologlar tomonidan Qashqadaryo vohasida bir qator ilk dehqonchilik manzilgohlarining paydo bo'lishi borasida ma'lumotlar to'plangan. Ularga M.E. Masson, V.V. Bartol'd, S.K. Kabanov, Ya.G'. G'ulomov, A.R. Muhammadjonov, R.G. Muqminova, N.I. Krasheninikova, S.B. Lunina, Z.I. Usmanova, A.S. Sagdullaev, R.X. Sulaymonov, A.A. Raimqulov, M.X. Xasanovlarning ishlarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Mustaqillik yillarida ham Qashqadaryo vohasida joylashgan arxeologik yodgorliklar bilan o'zaro bog'liq bo'lgan suv manbalari va sug'orish inshootlarining o'rniga biroq aniqlik kiritilgan. Bunga misol qilib Qashqadaryoning o'rta o'zanlari hisoblangan Kesh (Kitob, Shahrisabz, Yakkabog' va Chiroqchi) dehqonchilik hududlarini hamda quyi o'zanlari hisoblangan Qarshi (Erqo'rg'on) shahar atrofidagi dehqonchilik yer maydonlarini ko'rsatish mumkin. Bu borada A.S. Sagdullaev, R.H. Sulaymonov, M.X. Isomiddinov, A.A. Raimqulov, M.X. Xasanov, S.S. Suyunov, M.S. Bo'riev, I.X. Jabborovalarning qilgan ilmiy tadqiqotlari o'rindir.

Yuqoridagi tadqiqotlardan xulosa shuki, uzoq yillar davomida Qashqadaryo vohasining qaysi bir joyida qazuv va qidiruv tadqiqotlari olib borilgan bo'lsa, o'sha hududning albatta sug'orilish tarixi bilan bog'liq muammolari ham qisman o'rganilgan. Hattoki o'rganilgan hududlar irrigatsiya vohalariga alohida ajratib ham ko'rsatilgan. Shu tariqa voha sug'orilish tarixi to'g'risida ko'plab ma'lumotlar to'plangan. Lekin, butun Qashqadaryo vohasining irrigatsiyasi bilan bog'liq qismining o'rganilish ishlari yahlit bir yagona tizimga solinmagan. Bu esa Qashqadaryo vohasining sug'orilish tarixi muammolarining ochiq holda qolganligini ko'rsatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'rta Osiyo mintaqasidagi Qashqadaryo vohasining tabiiy, geografik va tarixiy–madaniy o'rni ochib berish, Qashqadaryo vohasining sug'orilish tarixi bilan bog'liq bo'lgan arxeologik yodgorliklar va ularda qayd etilgan materiallar hamda yozma manbalar ma'lumotlarini bir joyga jamlash, yangi GIS ma'lumotlariga suyangan holda tadqiqotlar olib borish tadqiqotning asosini tashkil etadi.

Tadqiqotlarda topografik, stratigrafik, tipologik tahlil, davrlashtirish va xronologik izchillik usullari hamda tarixiy–qiyosiy usullaridan foydalangan holda qadimgi sug'orish tizimi bilan bog'liq arxeologik materiallarni va yozma manbalarni qiyosiy tahlil qilish, tizimlashtirish, ilmiy muomalaga kiritish, arxeologik qazuv va qidiruv ishlari davomida qo'lga kiritilgan yangi materiallar asosida Qashqadaryo vohasi sug'orilishining tarixiy dinamikasini aniqlashga olib kelishni taqozo etadi.

Qashqadaryo vohasi (tumanlar kesimida) ning suv havzalari bo'ylab, joylashgan qadimgi va o'rta asrlar davriga oid bo'lgan arxeologik yodgorliklar vositasida irrigatsiya rayonlariga bo'lish va hududiy chegaralarini aniqlash, vohadagi xalqaro va mahalliy yo'llar tarmoqlari bo'ylab joylashgan sardobalarning funksiyasi, qurilish tarixi, irrigatsiya texnikasi va me'morchiligi bilan bog'liq bo'lgan muammolarni tadqiq etish orqali uslubiy yondashuvlarga oydinlik kiritiladi.

Ilmiy tadqiqotlar yangi metodika asosida (UTM 42 dasturi tizimida) har bir yodgorlikning koordinatasi, fotosurati, topografi va yodgorliklarning joylashgan o'rni aniqlanib xaritaga tushiriladi. Majmuada yodgorliklarning o'lchamlari (balandligi, uzunligi va eni), qisqacha tavsifi, o'rganilish tarixi va yangi arxeologik topilmalar asosida davriy sanasiga aniqlik kiritishdan iborat bo'ladi.

**Tahlil va natijalar.** Yozma manbalar, arxeologik qidiruv ma'lumotlari, mavjud suv manbalari asosida Qashqadaryo vohasining qadim va o'rta asrlar davri sug'orilish tarixiga doir bo'lgan jarayonlar tadqiq etildi. Shu asosida vohaning arxeologik yodgorliklar bilan bog'liq irrigatsiya xaritasi yaratildi. Vohaning siyosiy, ijtimoiy–iqtisodiy hayotida mavjud suv manbalarining tutgan o'rni va ahamiyati tahlil qilindi.

Mavzu doirasida tadqiqot usullarining mukammalligi, aniq ilmiy manbalarga va ishonchli dalillarga tayanilganligi hamda chiqarilgan xulosalarning tarixiy–geografik tahlil usullari yordamida asoslanganligi mavzuda ko'rsatib berildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, mavzusiga oid nazariy–uslubiy yondashuvlar qadim va o'rta asrlarda butun Sug'd hududining sug'orilish tarixini keng va chuqur o'rganishga, qo'llanilgan tadqiqot usullarini takomillashtirishga xizmat qiladi deb bema'lol aytish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa tadqiqot davomida o'rganilgan, to'plangan ma'lumotlardan va ularning xulosalaridan Qashqadaryo vohasining qadimgi va o'rta asrlar sug'orilish tarixiga doir bo'lgan yozma manba ma'lumotlari bilan birga arxeologik materiallarning qiyosiy tahlili orqali voha sug'orish tarmoqlarining joylashuvi, davriy sanasi hamda sug'oriladigan yer maydonlarining hajmiga aniqlik kiritildi.

Shu tariqa Qashqadaryo vohasi aholisining siyosiy, ijtimoiy–iqtisodiy va madaniy hayotida sug'orma dehqonchiligining ahamiyati zaruriyat ekanligi ochib berildi.

1). Qashqadaryo vohasida ilk temir davridayoq sug'orish tizimlarining yaratilishi, soylar, daryolar suvlarini sun'iy ravishda

o'zlashtirilayotgan ekin maydonlariga yo'naltirilishi vohada ilk urbanizatsiya jarayonlarining shakllanishiga olib kelgan.

2). Antik davrga kelib urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi natijasida Qashqadaryoning yuqori, o'rta va quyi oqimlarida shaharlarning rivojlanishi, yangi shaharlarning paydo bo'lishi hamda shahar atroflarida, alohida daryo vodiylarida kichik-kichik dehqonchilik vohalarining vujudga kelish jarayoni boshlangan.

3). Ilk o'rta asrlarda migratsiya jarayonlarining kuchayishi, Sirdaryoning quyi oqimidagi "Jetiasar madaniyati"ga, o'rta oqimidagi "Qovunchi madaniyati"ga mansub xalqlarning Sug'dga, xususan Qashqadaryo vohasiga ham ommaviy migratsiyasi tufayli vohada juda kuchli demografik o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Shaharlarning rivojlanishi bir maromda davom etgan bo'lsada, vohada qishloqlar soni keskin oshib, yangi sug'orish tizimlari va yirik dehqonchilik vohalari paydo bo'lishiga olib keladi.

4). Rivojlangan o'rta asrlarga kelib, Qashqadaryo vohasida urbanizatsiya jarayonlari o'zining eng yuqori rivojlanish pallasiga o'tadi, o'shanda vohada o'ttizdan ortiq shaharlar faoliyat ko'rsatadi. Shaharlar atroflarida, ularning ta'sir doirasida dehqonchilik vohalari shakllanadi va sug'orish tarmoqlari butunlay kengayganligi kuzatiladi.

5). Amir Temur davrida mo'g'ullar istilosida vayronaga aylangan shaharlar qayta tiklanadi, qishloqlarda aholining soni ortadi, vohada ekin yer maydonlari va bog'-rog'lar kengayadi, yangi-yangi sug'orish inshootlari bunyod etiladi.

6). Sovet hokimiyati yillarida Qashqadaryo vohasida amalga oshirilgan irrigatsiya sohasidagi bunyodkorlik ishlari tufayli mavjud suv inshootlari (Chimqo'rg'on, Xisorak, Pachkamar, Qamashi suv omborlari, Qorabog', Langarsoy sel suv omborlari, Qarshi bosh kanali va boshqa ichki kanallar) va sun'iy sug'orish tarmoqlari va suv inshootlari hisobidan bir necha ming gektarga yaqin yer maydonlari o'zlashtiriladi. Bu esa Qashqadaryo aholisining siyosiy, ijtimoiy–iqtisodiy madaniy hayotida irrigatsiya ishlarining nechog'lik ahamiyati katta ekanligini ko'rsatadi.

**Xulosa va takliflar.** Vohada so'nggi yillar davomida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar o'tmishimizning turli davrlariga oid moddiy madaniyat yodgorliklarini o'rganish va ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan sug'orilish tarixini yoritish imkonini berdi. Voha sug'orma dehqonchiligi bilan uzviy bog'liq bo'lgan tarixiy jarayon Qashqadaryoliklarning asrlar davomida sug'orish ishlari bilan bog'liq muammolarini hal etish, suv manbalarini yagona bir sug'orish tizimiga solish uchun olib borgan kurash tarixidir.

Qashqadaryo vohasida bunyod etilgan sun'iy sug'orish tizimlari (Eski Anhor kanali) va suv inshootlari (Chimqo'rg'on, Xisorak, Pachkamar, Qamashi suv omborlari, Qorabog', Langarsoylar) ning xususiyatlari keng tahlil qilinib, qadim va o'rta asrlardan toki hozirgi davrgacha Qashqadaryo vohasi aholisining siyosiy, ijtimoiy–iqtisodiy va madaniy hayotida sug'orma dehqonchilikning tutgan o'rni va ahamiyati ochib berildi.

Mavzu yuzasidan takliflar:

a). Arxeologik materiallar asosida Qashqadaryo vohasining sug'orilish tarixi bo'yicha o'quv qo'llanmalar yaratish, yangi avlod darsliklari uchun materiallar olish;

b). Qashqadaryo vohasining qadimgi davr tarixiy jarayonlari va ijtimoiy–iqtisodiy masalalarini targ'ib qiluvchi deb sahifalar yaratish;

#### ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараккиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1–жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2017. – Б. 29.
2. Массон М.Е. Проблема изучения цистерн-сардоба, -Ташкент, 1935. С. 43.
3. Бартольд В.В.Сочинения, Т. III. М., Изд-во «Наука»1965.С. 97-236.
4. Кабанов С.К. Археологические наблюдения на строительстве Иски- Ангарского канала // ИМКУ. Вып. 1. -Ташкент, 1959. С. 154-175.
5. Гулямов Я.Г. Исследование исторический гидрографии низовьев Кашкадарьи и Зарафшана // ИМКУ. Вып. 6,-Ташкент, 1965. С. 17-21.
6. Усманова З.И., Сагдуллаев А.С. К изучению памятников Яккабагского района. Тр. ТашГУ, №582, -Ташкент, 1981. С. 13-21.
7. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб проблемы цивилизации Узбекистана VII в.до н.э. - VII в. н. э. -Самарканд-Ташкент, 2000. С. 6-7.
8. Раимкулов А.А., Чешмели И., Эгамбердиев Ф.П. Археологические раскопки на Ялпактепа Гузарского района Кашкадарьинской области в 2007-2008 гг. // Археологические работы в Узбекистане 2007-2008 гг. -Самарканд, 2010. С. 229-236.
9. Раимкулов А.А. Древние и средневековые кочевнические города Кашкадарьи. Археология Евразийских степей. № 3 2022, С.36-42.
10. Сагдуллаев А.С. ва бошқалар. Қадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар, -Тошкент, 1998. Б. 207.
11. Суёнов С.С. Қашқадарё вохасини суғорилиш тарихи, Қарши, 2023, Б. 272.





UDK:374:37.091.3

**Bahodir XALILOV,**  
Navoiy davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi  
E-mail: bahodirxalilov@mail.ru

DSc, dotsent R.Abdullayev tarqizi asosida

### EXTRACURRICULAR EDUCATION IN KHATIRCHI DISTRICT: ACHIEVEMENTS AND CHALLENGES

Annotation

This article analyzes the current state of the extracurricular education system in the Khatirchi district, highlighting its achievements and existing challenges. It addresses issues of effectively organizing students' free time and increasing their participation in social and cultural activities. Recommendations are provided for enhancing the efficiency of the educational process and improving the infrastructure of extracurricular educational institutions.

**Key words:** Extracurricular education, Khatirchi district, educational process, social activity, infrastructure, achievements, challenges.

### ВНЕШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В ХАТЫРЧИНСКОМ РАЙОНЕ: ДОСТИЖЕНИЯ И ПРОБЛЕМЫ

Аннотация

В статье анализируется современное состояние системы внешкольного образования в Хатырчинском районе, её достижения и существующие проблемы. Рассматриваются вопросы эффективной организации досуга учащихся, их участия в социально-культурных мероприятиях. Также предлагаются рекомендации по повышению эффективности учебно-воспитательного процесса и улучшению инфраструктуры внешкольных образовательных учреждений.

**Ключевые слова:** Внешкольное образование, Хатырчинский район, учебный процесс, социальная активность, инфраструктура, достижения, проблемы.

### XATIRCHI TUMANIDA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM: YUTUQLAR VA MUAMMOLAR

Аннотация

Ushbu maqolada Xatirchi tumanida maktabdan tashqari ta'lim tizimining hozirgi holati, yutuqlari va mavjud muammolari tahlil qilingan. O'quvchilarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish, ijtimoiy va madaniy faoliyatlarda ishtirokini oshirish masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining infratuzilmasi va o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabdan tashqari ta'lim, Xatirchi tumani, o'quv jarayoni, ijtimoiy faoliyat, infratuzilma, yutuqlar, muammolar.

**Kirish.** O'quvchilarning salohiyatini namoyon etgan holda keljakda o'zining munosib o'rini topishi, o'z kasbini va sohasining yetuk va malakali mutaxassisi sifatida kamol topishida ta'lim tizimining o'rni nihoyatda muhim hisoblanadi. Maktabdan tashqari ta'lim tizimi esa o'quvchilarning iqtidorlarini yuzaga chiqarishda, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda, shuningdek, o'zlari tanlagan sohalar bo'yicha chuqurroq bilim va malakaga ega bo'lishlariga yaqindan yordam beradi. Ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda mustaqillik yillarida fan, ta'lim, sport, madaniyat va san'at yo'nalishlarida xalqaro musobaqalarda bellasha oladigan hamda ushbu sohalarida faxrlari o'rinlarni qo'lga kiritib kelmoqda. Ushbu yutuqlarning asosida shubhasiz maktabdan tashqari ta'lim sohasining ham katta hissasi mavjud. Chunki, o'quvchilar iqtidori maktabiy davrlariyoq yuzaga chiqadi, ko'zga tashlanadi. Ularning iqtidorini erta aniqlab, maktabdan tashqari turli to'garaklar va qo'shimcha mashg'ulotlarda chiniqtirish, bilimni oshirish yuksak yutuqlarni qo'lga kiritishda muhim ahamiyatga egadir.

Xatirchi tumanida mustaqillik yillarida o'quvchi-yoshlarning fan, ta'lim, sport, madaniyat va san'at yo'nalishlarida maktabdan tashqari bo'sh vaqtlarida shug'ullanishlari uchun imkoniyat va sharoitlar yaratish ishlari yildan yilga rivojlantirilib borildi. Xatirchi tumanida 2023-2024 o'quv yili holatiga ko'ra 88 ta (Navoiy viloyatida 366 ta[1]) umummaktab bo'lib ularda 35 ming nafarga yaqin o'quvchilar tahsil olmoqda. Shuningdek, Xatirchi tumanida, o'quvchi yoshlarning maktabdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmuni tashkil etish uchun "Barkamol avlod" bolalar markazi, bolalar va o'smirlar sport maktablari, kutubxonalar, madaniyat uylari, qo'shimcha to'garaklar hamda nodavlat ta'lim muassasalari faoliyat olib bormoqda.

Xatirchi tumanida bugungi kunda 400 ta sport inshooti mavjud bo'lib, shundan sport zal 59 ta, basketbol maydoni 64 ta, voleybol maydoni 103 ta, gandbol maydoni 66 ta, mini futbol maydoni 49 ta, futbol maydoni 59 tani tashkil qiladi. Sport bilan shug'ullanayotgan yoshlar soni esa 14669 nafar bo'lib, ularning 5665 nafari qizlardir[2].

Xatirchi tumanida birinchi bor bolalar va o'smirlar sport maktabi 1976 yilda tashkil topgan. Tuman bolalar va o'smirlar sport

maktabida bir kunda qariyb 400 nafar o'quvchi muntazam stol tennis, gandbol, erkin kurash, kurash, badiiy gimnastika, shaxmat, qo'l jangi, yengil atletika, futbol va boshqa sport turlari bilan shug'ullanadi.

Mustaqillik yillarida tumanda sport sohasining rivojlanishiga e'tibor hamda yoshlarning muntazam ravishda sport bilan shug'ullanish natijasida sportchilar faxrlari natijalari qo'lga qiritdilar. 1992 yil birinchi bo'lib futbol bo'yicha O'zbekiston chempionati oliy legasida tumanimiz futbolchisi Abdullayev Obidjon Samarqandning Dinamo jamoasida to'p so'rdi. Sportning stol tennis turidan o'zbek qizlaridan ilk bora Manzura Inoyatova 2004-yilda Afinada bo'lib o'tgan Olimpiada o'yinlari ishtirokchisi, 2016 yil Reo-de Janeyro erkin kurash bo'yicha Raxmonov Abbas Zafar o'g'li Olimpiada ishtirokchisi bo'ldi.

Abbos Raxmonov 2010 yil milliy kurash bo'yicha Hindistonning Dehli shahrida o'tkazilgan jaxon chempionatida faxrlari 3-o'rin, 2012 yil Milliy kurash bo'yicha yana bir kurashchi Dusqulov Bekzod Angliyaning London shahrida yoshlar o'rtasida Jaxon chempionatida faxrlari 1-o'rinni egalladi.

Tumandagi barcha umumta'lim maktab o'quvchilari uchun o'zlari qiziqqan fan yo'nalishi, shuningdek, sport turlari bilan shug'ullanishga yetarli darajada imkoniyat yaratilgan. Mana shunday imkoniyatdan samarali foydalanilayotgan 85-umumta'lim maktabi o'quvchisi Jafar Jalilov erkin kurash bo'yicha 4 karra viloyat chempioni sanaladi.

Asadbek Shukurov erkin kurash bo'yicha ikki karra respublika, 2018 yil hamda 2019 yilda viloyat chempionligini qo'lga kiritgan. U 2019 yilda Qozog'istonning Aktau shahrida o'tkazilgan erkin kurash bo'yicha chempionatda 73 kg. vazn bo'yicha 1-o'rinni egallab, muddatidan oldin oliy ta'lim muassasasiga qabul qilindi.

Tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli 5-umumta'lim maktab o'quvchisi Zilola Aktamova Xitoyda shaxmat sport turining "rapirt" yo'nalishi bo'yicha 3-o'rinni, "blits" yo'nalishi bo'yicha faxrlari 1-o'rinni qo'lga kiritgan. Shundan so'ng Qirg'iziston, Rossiya, Mongoliya, Shri Lanka kabi davlatlar tumirlarida ham faol ishtirok etib, faxrlari o'rin va sertifikatlarni qo'lga kiritdi. Ta'lim va sportdagi erishgan yutuqlarini inobatga olgan holda Zilola Aktamova Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlangan. Yana bir iqtidorli

o'quvchi 5-sonli umumta'lim maktabi bitiruvchisi Sitora Saparova shaxmat bo'yicha xalqaro darajadagi sport musobaqalarida yuqori natijalarni ko'rsatib, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibi bo'ldi[3].

Tumanda bugungi kunda 19 ta sport turlari mavjud. Olimpiya sport turlari 14 ta (futbol, erkin kurash, gandbol, stol tennis, badiiy

gimnastika, suzish, yengil atletika, voleybol, badminton, boks, og'ir atletika, taekvondo WTF, kamondan otish, basketbol) noolimpiya sport turlari 2 ta (shaxmat va qo'l jangi). Milliy sport turlari 1 ta (kurash). Paraspport turlari 2 ta (para suzish, para yengil atletika).

#### Xatirchi tuman Bolalar va o'smirlar sport maktabi natijalari

No	F.I.SH.	Sport turi	Chempionat	Yili	Davlat	O'rin	
1	Saparova Sitora Shaydullo qizi	Shaxmat	Osiyo chempionati	2018 yil 5-15 iyul	Shri-Lanka davlati	1	
2	Aktamova Zilola Anvar qizi	Shaxmat	Osiyo chempionati	2018 yil 5-15 iyul	Shri-Lanka davlati	2	1
3	Saparova Sitora Shaydullo qizi	Shaxmat	G'arbiy Osiyo chempionati	2018 yil 17-23 noyabr	Toshkent shaxrida	1	1
4	Aktamova Zilola Anvar qizi	Shaxmat	G'arbiy Osiyo chempionati	2018 yil 17-23 noyabr	Toshkent shaxrida		1
5	Saparova Sitora Shaydullo qizi	Shaxmat	16 yoshgacha Butun jaxon yoshlar olimpiadasi	2018 yil 24-noyabr, 3-dekabr	Turkiya davlatida	1	
6	Saparova Sitora Shaydullo qizi	Shaxmat	Osiyo chempionati	2019 y 15-29 iyun	Turkiya davlatida	1	

Xatirchilik sportchilar 2023 yilda respublika va xalqaro musobaqalarda jami 58 ta medal qo'lga kiritilgan. O'zbekiston chempionati va kuboglarida 5 ta oltin, 20 ta kumush, 24 ta bronza. Osiyo chempionatlari va kuboglarida 1 ta oltin, 1 kumush 2 ta bronza. Jahon chempionatida 1 ta kumush, 2 ta bronza medal.

Xatirchi tumanida faoliyat olib borayotgan madaniyat markazlarida san'at va maishiy ro'zg'or buyumlari yasashni o'rganish yo'nalishida jumladan, ashula, rubob, drama, dutor, tikish-bichish kabi to'garaklar faoliyat olib bormoqda.

Tuman xalq ta'lim tizimida zamon talabi asosida yangi loyihalar ustida ham ishlanmoqda. Xususan, 2020 yil yakunida "Raqqamli texnologiyalar o'quv markazi" faoliyatini boshladi. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining sa'y-harakatlari bilan tashkil etilgan markaz qariyb 500 million so'mlik texnologik vositalar bilan jihozlandi.

O'quv kurslarida hududdagi maktablarning 5-11 sinflarida ta'lim olayotgan 1000 nafardan ortiq o'quvchilar, uyushmagan yoshlar hamda korxon va tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan xodimlarning axborot kommunikatsiya sohasidagi bilimlarini oshirish rejalashtirilmoqda.

Bundan tashqari, markazda tuman yoshlarini "One Million Uzbek coders" loyihasiga jalb qilish ishlari ham amalga oshiriladi. Bugungi kunda Navoiy viloyati bo'yicha "One Million Uzbek coders" platformasida 10 000 nafardan ziyod, Xatirchi tumanida esa 355 nafar faol yoshlar ishtirok etib faxrli natijalarni qo'lga kiritib kelmoqdalar.

Ta'kidlash kerakki, Navoiy viloyati yoshlari oliy o'quv yurtlariga kirish bo'yicha yuqori natijalarini ko'rsatib kelmoqda[4]. Shuningdek, 2022 yil Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan e'lon qilingan umumta'lim maktablari reytingida[5] ham Navoiy viloyati peshqadam o'rinlarni egalladi. Bu borada Navoiy shahri yetakchi bo'lsada, Xatirchi tumani maktablarini bitirgan abituriyentlarning test sinovida ko'rsatgan natijalari ham yuqori darajalarni ko'rsatdi. Bu yo'nalishda Xatirchida maktabdan bo'sh vaqtlarda o'quvchilarni turli fanlarga qo'shimcha o'qitish borasidagi nodavlat o'quv markazlarining alohida hissasi mavjud. Xususan, Xatirchi tumanidagi Tamabahrin mahallasi – abituriyentlar tayyorlash borasida 25 yillik tajribaga ega. Ushbu mahalladagi nodavlat o'quv markaziga Xatirchi tumanidan tashqari, Navoiy viloyatning turli hududlaridan, hatto boshqa qo'shni viloyatlardan abituriyentlar kelib tahsil olishadi. Tamabahrin mahallasini "Abituriyentlar mahallasi" deb ham atashadi[6]. Ushbu

mahaladagi o'quv markaz hatto Buxoro viloyati Qorako'l tumadagi oliy o'quv yurtlariga tayyorlov markazlari bilan ham raqobatlasha oladigan darajaga yetgan. 2021 yil O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev navoiylik saylovchilar bilan uchrashuvda Xatirchi tumanidagi Tamabahrin mahallasi va hududdagi 22-maktabni e'tirof etib, bu maktabni rivojlantirishni taklif qildi. "Sizlar yaxshi bilasiz, Xatirchi tumanida mashhur Tamabahrin mahallasi bor. Mahallada joylashgan 22-maktab viloyatning eng ilg'or ta'lim maskanlaridan biri hisoblanadi. Bu yil Navoiy viloyati maktab bitiruvchilari oliygohlarga kirish bo'yicha mamlakatimizda 1-o'rinni egallashida ushbu jamoaning alohida hissasi bor.

Bu yerda faoliyat yuritayotgan fidoyi ustozlar mehnatini munosib rag'batlantirish maqsadida, ushbu maktab negizida aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internet tashkil etsak, o'ylaymanki, barchangiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaysiz", deb ta'kidladi prezident saylovchilar bilan uchrashuvda. Ta'kidlash kerakki, ushbu maktab bitiruvchilarning oliy o'quv yurtlariga kirishlarida eng asosiy turli fanlar bo'yicha bilimlarining yuksaltirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Xatirchi tumanida maktabdan tashqari ta'lim sohasida muhim yutuqlar qo'lga kiritildi. Biroq, bu borada amalga oshirilishi zarur bo'lgan ishlar ham mavjud. Jumladan, Xatirchi tumanidagi markaziy suzish xavzasida shug'ullanuvchi sportchi-o'quvchilarga barcha qulay shart-sharoitlar yaratilgan jumladan, yechinish va yuvinish xonalari, ichki va tashqi xo'jat xonalari, ma'muriyat xonasi, trenerlar xonasi, tibbiyot xonasi, loyabatoriya xonalari mavjud. Lekin ushbu suzish havzasini zamonaviy talablar asosida ta'mirlash va jihozlash ehtiyoji mavjud. Shuningdek, 1978 yilda qurilgan "Markaziy yoshlar futbol o'yingohi"da bugungi kunda yengil atletika, futbol, shaxmat sport turlari bo'yicha 200 nafar o'quvchi-sportchilar muntazam ravishda sport bilan shug'ullanishadi. O'yingoh 2021 yilda qayta rekonstruksiya qilingan. Biroq o'yingohni yugurish yo'laklari kuz-qish mavsumida suv to'planib qolishi hamda beton qorishmalar joyidan ko'chish xolatlarini uchrayotganligi sababli rezina bilan qoplash hamda maydonda kunning qorong'u paytida foydalanish uchun noqulaylik kelib chiqayotganligini inobatga olib yortish tizimini to'liq qayta ta'mirlash zarur.

Tumanning olis qishloq hududlarida davlat va xususiy sherikchilik asosida sport maydonchalari, madaniyat uylari, turli zamonaviy to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish ehtiyoji mavjud.

#### ADABIYOTLAR

1. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-2024 o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim maktablari to'g'risidagi ma'lumot // <https://www.uzedu.uz/uploads/downloads/m2sE->
2. Qurbonov X., Mustafoyev J., Toshurov Sh., Inoyatov A., Rahmonov H. Xatirchi tumani: kecha va bugun. – Toshkent: Sahhof. 2021. - B. 352.
3. Kirish imtihonlarida eng past ballni qaysi viloyat abituriyentlari olgani ma'lum bo'ldi // <https://www.qalampir.uz/news/kirish-imti%D2%B3onlarida-eng-past-ballni-k-aysi-viloyat-abituriyentlari-olgani-ma-lum-buldi-88622>
4. Maktablar reytingi: Eng yuqori o'rinlarda – Buxoro, Navoiy va Xorazm, oxirgi o'rinlarda – Surxondaryo, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlari // <https://kknews.uz/uz/117932.html>
5. Ўзбекча репетиторлик мактаби — 25 йиллик тарихга эга абитуриентлар маҳалласидан репортаж // <https://kun.uz/kr/07543075>



*Yulduz XOLXUJAYEVA,*  
*SamDU Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi, PhD*  
*E-mail: Xolxujayeva91@mail.ru*

*PhD, dotsent S.Islomov tarqizi asosida*

### HISTORIOGRAPHY OF THE TURKESTAN REGION: INTERPRETATION AND ANALYSIS (SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY AND EARLY 20TH CENTURY)

Annotation

The region of Central Asia experienced serious political, socio – economic changes in the second half of the XIX-early XX centuries. Among these, a historical analysis of the issues of formation of the peoples of colonial Turkestan and multinational in the territory is important. The essence of multinationalism, the study of the problems of demography, which arose in Turkestan in the second half of the XIX – early XX centuries, serves to introduce new data into the history of the colonial period of Uzbekistan.

**Key words:** Works belonging to Russian and foreign tourists, ambassadors, military, administrators who were in Central Asia, the Turkestan region, Turkestan, the peoples of Central Asia, lifestyle, ethnic and social composition, historians of the Soviet period, sources.

### TURKISTON O'LKASI TARIXSHUNOSLIGI: TALQIN VA TAHLIL (XIX ASR IKKINCHI YARMI VA XX ASR BOSHLARIDA)

Annotatsiya

O'rta Osiyo mintaqasi XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida jiddiy siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Shular jumlasidan, mustamlaka Turkiston xalqlari va o'lkada ko'pmillatlikning shakllanish masalalarini tarixiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida vujudga kelgan ko'pmillatlikning mohiyati, demografiya muammolarini o'rganish O'zbekistonning mustamlaka davr tarixiga yangi ma'lumotlar kiritishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zi:** O'rta Osiyo, Turkiston o'lkasi, Turkistonda bo'lgan rus va xorijlik sayyohlar, elchilar, harbiylar, ma'murlarga tegishli asarlar, O'rta Osiyo xalqlari, turmush tarzi, etnik va ijtimoiy tarkibi, sovet davri tarixchilari, manbalar.

### ИСТОРИОГРАФИЯ ТУРКЕСТАНСКОГО КРАЯ: ТОЛКОВАНИЕ И АНАЛИЗ (ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XIX-НАЧАЛО XX ВЕКА)

Аннотация

Среднеазиатский регион пережил серьезные политические, социально – экономические изменения во второй половине XIX-начале XX века. Среди них важное значение приобретает исторический анализ вопросов формирования народов колониального Туркестана и многонациональности в стране. Изучение сущности многонациональности, возникшей в Туркестане во второй половине XIX – начале XX века, проблем демографии послужит введению новых данных в историю колониального периода Узбекистана.

**Ключевые слова:** Средняя Азия, Туркестанский край, произведения, относящиеся к русским и иностранным туристам, побывавшим в Туркестане, послам, военным, администраторам, народам Средней Азии, образу жизни, этническому и социальному составу, историкам советского периода, источникам.

**Kirish.** Turli davrlarda uzoq davom etgan tarixiy jarayonlar davomida O'zbekiston aholisining xilma-xil etnik tarkibi shakllanib qolmasdan, bu xalqlarning o'zaro ijtimoiy-madaniy munosabatlariga ta'siri sezilarli bo'ldi. Turli milliy, diniy, madaniy xilma-xillik sharoitida hamjihatlik munosabatlarining qaror topishi bilan birga, turli xalqlar Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston tarixida muhim o'rin tutadi.

**Tahlil va natijalar.** 1867-1917 yillarda Turkiston o'lkasining mustamlaka sharoitida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tarixiga oid izlanishlarni, xususan aholi milliy, etnik tarkibi to'g'risidagi masalani o'rganilgan davri, hududi, yondoshuv uslubi xususiyatlari bo'yicha bir nechta guruhga bo'lib tahlil qilishimiz mumkin. Bular: XIX asr 1-yarmi va XX asr boshlariga oid izlanishlar; Sovet davrida olib borilgan tadqiqotlar; Mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan ishlar hamda zamonaviy xorijiy tadqiqotlar hisoblanadi. Mazkur maqolada birinchi va sovet davriga oid ma'lumotlarni bayon qilamiz.

Birinchi davrga taalluqli bo'lgan ishlar sirasiga XIX asr birinchi yarmida O'rta Osiyoga kelgan va mustamlaka sharoitida Turkistonda bo'lgan rus va xorijlik sayyohlar, elchilar, harbiylar, ma'murlarga tegishli asarlar kiradi. Jumladan, Ye.Meyendorf N.Xanikov, A.Borns, A.Vamberi, V.Radlov, V.Nalivkin, A.Xoroshxin, M.Albrect, J.Kurzon M.Virskiy, N.Ostromov va boshqa mualliflarning[1.] asarlari shular jumlasidan sanaladi.

Rossiya bosqini arafasida O'rta Osiyo xalqlari, ularning turmush tarzi, etnik va ijtimoiy tarkibi to'g'risida bir qator mualliflar qiziqarli ma'lumotlar bergan. Biroq shuni ham ta'kidlash lozimki, aholini etnik tavsifida keltirilgan ayrim ma'lumotlarda chalkashliklar ham kuzatiladi. Rus elchisi, sharqshunos N.Xanikovning "Buxoro xonligi tavsifi" asarida, etnik guruhlarini o'zaro tasniflashi ko'proq bir tomonlama xarakterga ega bo'lib, xususan o'zbeklar va tojiklarning ko'rinishi, xulq-atvoriga oid ma'lumotlar bir-birini inkor etish, zid

xususiyatlarni ifodalaydi. Xalqlar "chiroyli" yoki "chiroyli emas", "baland yoki o'rta bo'lyi" va boshqa shu kabi ta'riflar bugungi elshunoslik ilmiy nuqtai nazariga xos emas. Rus elchiligi tarkibida kelgan Ye.Meyendorfning O'rta Osiyo xalqlari to'g'risida bergan ma'lumotlari nisbatan qiziqarli deb hisoblash mumkin. Muallifning Buxoro amirligi, Xiva xonligi xalqlari, ularning joylashuvi va mashg'ulotlari raqamlarda tavsiflanadi.

Elshunoslik masalasida tajribasi katta bo'lmagan rus amaldori A.Xoroshxin Turkiston xalqi, jumladan Zarafshon, Samarqand viloyati tumanlarida yashagan etnik guruhlar to'g'risida qiziq statistik ma'lumotlar berishi barobarida, ba'zi bir-biriga zid qarashlarni ishlarida[2] ifodalagan. Bular jumlasiga, Turkiston aholisini "o'troq tojiklar va ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi o'zbeklarga" bo'lgan muallif, "o'zbeklar va tojiklar o'rtasidagi farqlar nisbiy va ularni bir-biridan farqlash juda mushkul" deb bildirgan edi.

Rus olimi V.Radlovning O'rta Zarafshon vohasi aholisi haqida to'plagan ma'lumotlari kishi e'tiborini tortadi. Ushbu olim ayrim mualliflardan farqli ravishda, voha aholisini tili bo'yicha ikki guruhga bo'linadi: 1) turkiy lahjalarda so'zlashuvchi qabilalar; 2) forsiy til shevalarida so'zlashuvchi qabilalar[3]. Turkiy tilda so'zlashuvchi qabilalar vodiy aholisining asosiy qismini tashkil etishi, forsiy tilda so'zlashuvchilar esa bir necha aholi punktlarida istiqomat qilishini ta'kidlaydi. Olim turkiy urug'-qabilalar, barcha etnik guruhlarining joylashuvi, turmush-tarzi haqida ma'lumotlar beradi.

Rus ma'murlari orasida N.P.Ostromov "sartlar alohida xalq" ekanligi to'g'risidagi nuqtai nazarni nisbatan himoya qilgan, shu bilan birga "bu masala shunchalik maxsus va murakkabki, uni oxirigacha mufassal hal etish etnolog, filolog va tarixchining birgalikdagi mehnatini talab etadi"[4], deb hisoblagan. O'zining qarashlarida u, sartlarning kelib chiqishi aralash xalq, ya'ni, na eronlik va na turk ekanligini qat'iy ta'kidlagan.

V.Nalivkinning bir qator ishlarida[5], Turkistonning umumiy etnografiyasi tasniflanib, xususan aholi etnik tarkibi to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar to'plangan. Ko'p yillar oilasi bilan Farg'ona vodiysida istiqomat qilgan V.Nalivkin, Farg'ona viloyatining "sart" deb nomlangan o'troq aholisi o'zbek (turk) va tojiklardan tashkil topib, ularning orasidagi farq "birgina tilda" bo'lib, qolgan barcha turmush jihatlari bir-biriga mos" deb ta'kidlagan edi. "Qo'qon xonligi qisqa tarixi" kitobida, sartlarni "o'troq aholi" sifatida "o'zbek-sartlar" va "tojik-sartlar"ga bo'lgan.

XIX – XX asr boshlarida Turkiston aholisi, ularning mashg'uloti, etnik tarkibi masalalari yoritishda xorijlik mualliflardan A.Borns, A.Vamberi, Maks Albrect, Jorj Kurzon, Yujin Skayler kabi mualliflarning[6] ishlari ham diqqatga loyiq sanaladi. Xususan, O'rta Osiyo xalqlarining tili, folklor madaniyati, xo'jalik hayoti va turli milliy guruhlar to'g'risida Arminiy Vamberi qiziq ma'lumotlar bersa, Jorj Kerzon, Yujin Skayler, Maks Albrectlar XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida o'lka aholisining urf-odatlarini, milliy, ijtimoiy guruhlar faoliyatini, hunarmandchilik, ishlab chiqarish sohalari va ularning iqtisodiy hayotidagi o'rni bo'yicha bergan ma'lumotlari e'tiborga loyiq.

Mavzuni yoritishda muhim bo'lgan yana bir guruhdagi ishlar qatoriga sovet davrida olib borilgan izlanishlar kiritildi. Bunday izlanishlar V.Bartold, P.Galuzo, A.Semenov, N.Yakovlev, P.Ivanov, S.Radjabov, A.Fomchenko, M.Vahobov, Suxareva, B.Karmisheva va boshqalarning ishlari, shuningdek hammualliflikda yaratilgan monografiya, ilmiy to'plamlarni[7] o'z ichiga oladi.

Sovet davri tarixshunosligini taniqli rus sharqshunos olimi V.Bartoldning qarashlarida boshlaydigan bo'lsak, o'tgan asrning boshlarida olim "O'rta Osiyoning o'troq aholisi birinchi navbatda o'zini musulmon, keyin esa ma'lum bir shahar yoki joyga mansub deb hisoblaydi; aniq bir xalqqa mansublik to'g'risidagi fikr xalq uchun ahamiyatga ega emas" deb qayd etgan olim[8], biroq keyingi qarashlari, xususan "sart" atamasi bo'yicha rus ma'murlari fikriga yaqin bo'lib, bu atamani etnografik jihatdan qo'llash mumkinligini yoqlaydi. V.Bartold, "sart" so'zi dastlab etnografik mazmunga ega bo'lmagan bo'lsa-da, endilikda etnografik birlik sifatida til va tipiga ko'ra xalqni ifodalaydi"[9] deb, sartlarning etnik mavjudligini tan olgan va ular tojiklarning bevosita ajdodlaridir[10], degan qarashlarni ilgari surgan.

Biroq Bartoldning xulosalari tez orada unutilib, XX asr sovet tarixshunosligida boshqacha yondashuvlar ustunlik qila boshlagan. Ularga ko'ra "etnoslar" va "xalqlar" qadimdan mavjud bo'lgan, kichik qabilalardan xalqlarga va millatga aylanish bosqichlaridan o'tib, rivojlanib borgan. Bunday qarashlarga ko'ra, Markaziy Osiyoning asosiy "titul" etnoslari yoki millatlari – qozoqlar, qirg'izlar, o'zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar X–XV asrlarda katta yoki kichik etnik jamoalarga birlashganlar va XIX–XX asrlar chegarasida to'laqonli millatlar bo'lib shakllanganligi qayd etiladi[11].

P.Ivanov tadqiqotlarining birida[12], aynan XVIII-XIX asr birinchi yarmida Buxoro amirligida kechgan ijtimoiy-siyosiy

jarayonlarga keng o'xtaladi. Shunday tarixiy ma'lumotlar orasida aholining ijtimoiy ahvoli, etnik tarkibi, aholi soliq-to'lovlari bilan bog'liq masalalar yoritiladi.

O'zbekiston va Tojikistonning janubiy hududlarida etnik jarayonlarni tadqiq etgan B. Karmisheva asarida[13], o'zbek va tojiklarning urug'-aymoqlari yaxshi tasnif etiladi. Jumladan, ishda o'zbek va tojik chig'atoylari yoritilar ekan, Sharqiy Buxoro tojiklarining yirik etnografik guruhlari, Surxondaryoda istiqomat qilgan o'zbek urug'-qabilalari tahlil etiladi. Shuningdek, B.Karmisheva boshqa tadqiqotchilardan farqli ravishda o'z tadqiqotida, urug'-qabilachilik munosabatlariga ega bo'lmagan, o'troq yashash tarzini olib borgan o'zbek guruhini – chig'atoylar degan nom bilan yuritadi. Ular o'zbek chig'atoylari va tojik chig'atoylariga bo'linib, ular asosan amirlikning Sharqiy Buxoro hududida istiqomat qilganligini yozadi.

Sovet davri mafkurasi asosida yaratilgan yana bir qator ilmiy izlanishlarda (P.Galuzo, A.Fomchenko va b.), imperiya tomonidan mustamlakachilik siyosatining ustuvor maqsadlari, xususan ko'chirish, ruslashtirish siyosati bosqichlari va uning oqibatlarini hamda mohiyati yoritib beriladi.

M. Vaxobovning o'zbek millatining shakllanishiga bag'ishlangan kitobida[14], xalqlar va ularning tarkibi, iqtisodiy va etnomadaniy rivojlanishi borasidagi fikr-mulohazalari chuqur tahlil qilingan. Biroq biroq muallif o'sha davr sinfiylik qarashlari bilan etnomadaniy jarayonlar, millatga xos omillarning shakllanishi, o'zbeklarning sotsialistik millat bo'lib uyushishi sovet davrida tugallanligi, kabi xulosalar berishi bugungi kun ilm-fanida ayrim olimlar e'tiroziga sabab bo'ldi.

Buxoro shahri va amirligi aholisi to'g'risidagi qimmatli ilmiy ma'lumotlarni olim A.Suxareva o'z izlanishlarida yoritib bergan. Albatta olimaning tadqiqoti ko'lamli XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarini qamrab olgan bo'lsa-da, dissertatsiya uchun aholining etnik tarkibi, turli milliy guruhlarining ijtimoiy mavqeyi va turmushiga oid berilgan ma'lumotlarni Rossiya bosqini arafasida vaziyat bilan qiyosiy solishtirishga imkon berdi.

Yuqoridagi ma'lumotlar bo'yicha xulosa qilganimizda, qayd etilgan tarixshunoslik ishlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 1867-1917 yillar oralig'ida mustamlaka Turkiston o'lkasini ijtimoiy-iqtisodiy sohalari, jadicilik harakati, milliy siyosati jumladan, ko'chirish, ruslashtirish, ijtimoiy tuzilmasi tarixi kabi alohida muammolarni qamrab oladi. Ushbu manbalar Turkiston mintaqasidagi aholining milliy tarkibi bo'yicha birlamchi ma'lumotlar beradigan manbalar sifatida foydalanish o'rinlidir. Mustamlaka Turkiston xalqlari va o'lkada ko'pmillatlikning shakllanish masalalarini tarixiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. –СПб., 1843. –279 с.;
2. Хорошкин А.Л. Сборник статей касающихся до Туркестанского края. – СПб., 1876. – С.498–499.
3. Радлов В.В. Средняя Зарафшанская долина. – ЗИРГО по отд. этнографии. – СПб., 1880. Том VI. – С. 1–92.
4. Остроумов Н. Значение названия «сарт» // Туркестанские ведомости. 1884. № 28. 17 июль; 1884. № 29. 24 июль; 1884. № 30. 31 июль.
5. Наливкин В.П. Туземцы раньше и теперь. – Ташкент, 1913. – 144 с.; Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы / В. Наливкин, М. Наливкина. –Казань: Тип. Императорского университета, 1886. – 245 с.
6. Борнс А. Путешествие в Бухару. Часть. III. – М., 1850. – С. 472–475; Вамбери А. Очерки Средней Азии. – М., 1868. – 361 с.
7. Галузо П.Г. Туркестан–колония (Очерк истории Туркестана от завоевания русскими до революции 1917 г.). – М., 1929
8. Бартольд В.В. Сарт // Бартольд В.В. Сочинения. М., 1964. Т.2, ч.2. – С.528–529.
9. Ферганская долина: этничность, этнические процессы, этнические конфликты / Абашин С.Н., Бушков В.И. (отв. ред.). – М.: Наука, 2004. – С.54.
10. Аскарлов А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. –Тошкент: O'zbekiston 2015. – Б.51.
11. Центральная Азия в составе Российской империи. ..., – С.259–260.
12. Иванов П.П. Очерк по истории Средней Азии (XVI–XIX в). – М., 1958. – 239 с.
13. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. (по этнографическим данным – Москва: Наука, 1976. – 323 с.
14. Вахобов М. Ўзбек социалистик миллати. –Тошкент: Ўзбекистон ССР давлат нашриёти, 1960. – 536 б.





**Gulmira EMBERGENOVA,**  
*Assistant Lecturer Department of the History of Uzbekistan and Karakalpakstan,  
Berdakh Karakalpak State University, Nukus*

*Based on the review by PhD, Associate Professor G. Seydamatova*

### THE HISTORY OF THE FORMATION OF THE RICE COMPLEX IN KARAKALPAKSTAN

Annotation

This article examines the history of the formation of the rice complex in Karakalpakstan, its role in agriculture, and the stages of its development. Particular attention is paid to the economic, social, and environmental aspects of rice cultivation in the second half of the 20th century. Issues related to the introduction of technological innovations, land reclamation, and the impact of these processes on the region's sustainable development are analyzed.

**Key words:** Karakalpakstan, rice cultivation, agriculture, land reclamation, environmental issues, economic development, sustainable development.

### QORAQALPOG'ISTONDA RIS KOMPLEKSINING SHAKLLANISH TARIXI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Qoraqalpog'istonda ris kompleksi shakllanishining tarixi, uning qishloq xo'jaligidagi o'rni va rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Maqola XX asrning ikkinchi yarmida ris etishtirishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlariga e'tibor qaratadi. Ris etishtirishda texnologik yangiliklar va melioratsiya masalalari, shuningdek, bu jarayonlarning mintaqaning barqaror rivojlanishiga ta'siri o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** Qoraqalpog'iston, ris etishtirish, qishloq xo'jaligi, melioratsiya, ekologik muammo, iqtisodiy rivojlanish, barqaror rivojlanish.

### ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ РИСОВОГО КОМПЛЕКСА КАРАКАЛПАКСТАНА

Аннотация

В статье рассматривается история формирования рисового комплекса в Каракалпакстане, его роль в сельском хозяйстве и этапы развития. Особое внимание уделяется экономическим, социальным и экологическим аспектам выращивания риса во второй половине XX века. Изучены вопросы внедрения технологических новшеств и мелиорации, а также влияние этих процессов на устойчивое развитие региона.

**Ключевые слова:** Каракалпакстан, выращивание риса, сельское хозяйство, мелиорация, экологическая проблема, экономическое развитие, устойчивое развитие.

At the beginning of the 1950s, agriculture in Karakalpakstan consisted of cotton farming, rice cultivation, animal husbandry, as well as vegetable and melon farming. As of January 1, 1956, there were 194 collective farms (kolkhozes) in the republic's 14 administrative districts, including 12 fishing kolkhozes in the industrial Muynak district. Of the 182 remaining kolkhozes, 178 were focused on cotton farming, 3 on vegetable farming (in the Nukus district), and 1 on rice cultivation (in the Kungrad district)[1]. This structure underwent a diametric change in a short period, which subsequently impacted the socio-economic and ecological conditions of our region.

But let us delve into this in more detail. In the post-war period, the Soviet government adopted a program for the development of the country's agriculture. One of the main directions of this program was achieving stable and increasing yields of agricultural products through land irrigation. In the conditions of irrigated agriculture in Central Asia, Kazakhstan, the Lower Volga region, southern Ukraine, the Krasnodar region, the Rostov region, and the Primorsky region, rice was the main cereal crop.

In these regions, it was believed that rice could yield 50-60 centners of grain per hectare on a production scale. For this purpose, technologies for cultivating this agricultural crop were developed. The main direction for the development of rice cultivation in the country was determined by the March 1965 Plenum of the Central Committee of the Communist Party of the Soviet Union (CPSU). It was emphasized there that the demand for rice in the USSR was growing every year. However, adequate attention had not been given to cultivating this crop. Between 1960 and 1965, approximately 1.5 million tons of rice were imported from other countries. Based on this, it was decided to invest in rice production within the USSR.

In line with the decisions of the March Plenum of the CPSU Central Committee, plans were made to increase rice production in the USSR to 2 million tons per year within ten years. Karakalpakstan's rice farmers were assigned a specific role in achieving these goals.

Rice cultivation in Karakalpakstan became a new commercial sector in the lower reaches of the Amu Darya River. The command-administrative governance system of the state considered that, at the

time, there were significant natural and economic resources in the region. The land area suitable for irrigation in the autonomous republic amounted to 1,645,000 hectares, of which only 253,000 hectares were used for crops and plantations in 1975. More than 23,000 hectares of arable land suitable for cultivation were located in the northern zone of Karakalpakstan, where the soil and climatic conditions were allegedly favorable for rice cultivation.

To implement the program for creating a material and technical base to steadily increase grain production through irrigation, the Central Committee of the Communist Party of Uzbekistan and the Council of Ministers of the Uzbek SSR adopted a resolution to establish rice-growing state farms in the northern zone of Karakalpakstan. Following this decision, three rice-growing state farms were established in 1961, and three years later, another five such farms were created. Thus, the extensive lands of the Amu Darya delta began to be developed for rice cultivation, creating large rice-growing regions in the area.

As a result, virgin lands in the northern regions of Karakalpakstan were developed not only for cotton cultivation but also for rice production. In January 1957, the XII Kurultay of Agricultural Leaders of Uzbekistan raised the issue of developing rice farming in the republic. That same year, rice cultivation in the autonomous republic was removed from the cotton-growing areas and concentrated in the "Raushan" state farm in the Kungrad district. A good rice harvest was achieved, prompting a decision in 1958 to increase the area of rice fields to 1.5-2 thousand hectares. In a short period, 170 two- and three-room houses, a secondary school for 400 children, a kindergarten, a radio station, and a postal office were built in the area.

In 1960, a resolution was adopted by the Central Committee of the Communist Party of Uzbekistan and the Council of Ministers of the Uzbek SSR to establish rice-growing state farms on virgin lands. By 1961, three state farms were created: the "XXI Party Congress" and "Altynkol" farms in Leninabad (now Kanlykul) district, and the "Maizhap" farm in Chimbay district. Rice cultivation began to develop most intensively in Karakalpakstan in 1962. However, the average yield remained low, at no more than 25-26 centners per



hectare, although some individual state farms and brigades achieved yields of 30–36 centners per hectare.

The low yield was primarily due to insufficient attention to mechanization in rice farming. Producing one centner of rice required 3–4.4 person-days, and the cost per centner was 18 rubles and 50 kopecks. There were no conditions for introducing comprehensive mechanization in rice farming, as the irrigation network had not been reconstructed, and plots and irrigation maps had not been enlarged. Among all processes carried out in the rice fields, only plowing, constructing check bunds, and threshing the harvest were mechanized. Other tasks, such as field leveling, rice sowing, weeding, and harvesting, were still performed manually at the time.

Between 1962 and 1964, five additional rice-growing state farms were established: the "Chapaev" farm in Kungrad district, the "50th Anniversary of the Komsomol" farm in Nukus district, the "October" farm in Chimbay district, and the "Karaozek" and "Madaniyat" farms in Takhtakupyr district. Reconstruction and specialization efforts began at the "Raushan" state farm. By 1964, the sown area in these farms reached 14.2 thousand hectares. A significant portion of the rice crops was planted on newly developed lands, the preparation of which was incomplete. Water was supplied to these fields, but drainage was directed into local depressions, leading to waterlogging and the degradation of these lands. The yield in 1964 was 15.3 centners per hectare. Such land use practices drastically worsened the reclamation condition of the soil[2].

As a result, rice cultivation areas and yields increased significantly. For instance, while approximately 1,507 thousand tons of rice were delivered to the state in 1958, this figure rose to over 10,761 thousand tons in 1963. Between 1962 and 1965, 7,500 hectares of new lands were developed for rice cultivation. Large-scale construction projects were systematically carried out. Investments in this sector amounted to 520 million rubles from 1959 to 1965 and 812 million rubles from 1966 to 1970[3].

Between 1961 and 1976, Karakalpakstan produced 1 million tons of raw rice, of which 800,000 tons were delivered to the state. The annual gross harvest volume increased from 3,500 tons to 190,000 tons in 1976. Of the total rice harvest in 1976, 186,100 tons, or more than 98%, were grown by specialized rice state farms under the territorial management of "KarakalpakiRisoshosstroy"[4].

The expansion of rice fields and other water-intensive crops, along with their continuous increase through land development and extensive use of chemical agents and mineral fertilizers to boost yields, negatively affected the ecosystem and sustainable development of the region. This also impacted the health of the population. The dominance of rice and cotton in the region's agricultural sector transformed it from an agrarian producer into a consumer-oriented one.

Overall, the republic's territory was conditionally divided into three zones:

Southern Zone: This area, characterized by favorable natural conditions and a high labor force density, specialized in expanding

cotton fields and silk cocoon production. Opportunities for developing dairy farming and karakul sheep breeding were also present in this zone.

Northern Zone: This zone focused on cotton farming, rice cultivation (emphasis ours – ed.), livestock breeding, and the cultivation of potatoes, vegetables, melons, vineyards, and orchards. Livestock farming was oriented toward increasing meat and dairy production.

Coastal Zone: This area specialized in fishing and was also considered a zone for expanding fur farming and developing meat and dairy production for internal consumption.

By the end of the Ninth Five-Year Plan (1971–1975), all nine rice-growing state farms had reached their projected capacity. In the first year of the Tenth Five-Year Plan (1976–1980), three newly established rice-growing state farms were added.

Thus, by the mid-1970s, the Karakalpak ASSR was operating 12 specialized rice-growing state farms[5], including:

- "Chapaev" and "Raushan" farms in Kungrad district,
- "XXII Party Congress," "Altynkul," and "Ustyurt-2" farms in Leninabad (now Kanlykul) district,
- "50th Anniversary of the Komsomol" farm in Nukus district,
- "October" and "Maizhap" farms in Chimbay district,
- "Madaniyat" and "Karaozek" farms in Karaozek district,
- "Frunze" and "Council of Uzbekistan" farms in Takhtakupyr district.

The total sown area of these farms reached 40,500 hectares.

At the same time, the cultivation of food crops rapidly declined, and the size of villagers' personal household plots was limited. The development of new lands for Karakalpakstan's rice complex continued. In 1974, farms in Karakalpakstan sold 120,000 tons of raw rice to the state—more than seven times the amount sold in 1966. Meanwhile, the rice sown area increased from 13.6 thousand hectares in 1965 to 35.6 thousand hectares in 1974[6].

Overall, the monocultural orientation of the agricultural sector in the region transformed it from an agrarian producer into a consumer. The republic began to import not only grain but also potatoes and some types of vegetables and fruits. The uncontrolled use of the waters of the Amu Darya and Syr Darya led to a global change in their flow. While the average annual discharge of these rivers into the Aral Sea was 42.9 cubic kilometers in 1961–1970, by the early 1980s, it had decreased to 4.2 cubic kilometers. This became one of the main causes of the Aral Sea tragedy.

In its lower reaches, the Amu Darya dried up completely, and its delta turned into a saline desert. In the arid natural environment, water—a precious resource—became almost free in the extensive, non-market economy. Thousands of cubic meters flowed through numerous irrigation systems, flooding cotton and rice fields. Instead of effectively irrigating them, these waters often left behind crusts of evaporated salt.

## REFERENCES

1. ЦГА РК, ф. Р-551, оп.182, д.436, л.56.
2. Решения партии и правительства по хозяйственным вопросам: Сб. док. за 50 лет. Т. 5. 1962-1965 гг. — М.: Политиздат, 1968. С.606-608.
3. Правда Востока, 18 январь 1957 год, №16 (10076).
4. Таджиева Р. Из истории развития рисоводства в Каракалпакской АССР // Вестник ККФ АН УзССР, 1990, №2. С.126.
5. Каракалпакстан жана тарийхи. – Нукус, 2003. 306-б.
6. О истории формирования данного управления мы остановимся более подробно в следующих наших исследованиях.
7. Палванов Дж. Рисовый комплекс Каракалпакии. Нукус, 1977, с.33.
8. Народное хозяйство ККАССР за 60 лет. Н., 1984, с.40.
9. Джумашев А. Сотрудничество Центральной Азии в решении проблем Арала: история и современность. / Новый Узбекистан и региональное партнерство в Центральной Азии (к 30-летию Независимости Узбекистана и государств Центральной Азии). Материалы международной научно-практической конференции (18 октября 2021 г., г.Ташкент). Ташкент, 2022, с.175-179.